

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

NURIDDIN ALTINBOYEV

TURK MAQOLLARIDA OILA
TUSHUNCHASI

Toshkent – 2025

Altinboyev Nuriddin, Turk maqollarida “oila” tushunchasi. – Toshkent, TDSHU, 2025. – 136 b.

ISBN: 978-9910-8696-2-4

UO‘K: 811.512.161

KBK: 81.631.2

A-52

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tayyorlangan ushbu tadqiqotda xalq og‘zaki ijodining eng kichik, lekin chuqur ma’noli asarlari hisoblanadigan maqollar qardosh turk madaniyatidagi o‘rni, zamonaviy tilshunoslik – lingvomadaniy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, undan turk va o‘zbek tillari orasida amalga oshirilayotgan lingvistik, konseptual va folklorga oid tadqiqotlar olib borayotgan yosh mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi:

Qudratulla Omonov,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Xayrulla HAMIDOV,
filologiya fanlari doktori, professor

Çetin YILDIZ,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 29-martdagi 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© N.Altinboyev.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

SO'ZBOSHI

Turkiy ulusning kishilik tamadduni tarixida eng qadimgi kezlardan hozirga qadar dunyoning yetakchi etnoslaridan biri o'laroq yashab, yuksalib kelishida ular dunyoqarashidagi oila qadriyati va unga bo'lgan o'ziga xos munosabatining ayricha o'rni bor. Turkiy xalqlar hamisha oilaga nisbatan tiriklikning eng muhim manbasi sifatida qarashgan. Shu jihatdan ham ularning olam lisoniy manza-rasida oila va u bilan bog'liq qarashlar, madaniy kodlar, rasm-rusumlar, urfu odatlar, marosimlar, og'zaki ijod namunalari, ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlari hatto hokimiyatning boshqaruv tizimlari asosida ham oila qadriyatlari yotadi. Ularning tafakkuridagi oila bilan bog'liq nihoyatda ko'p, turli - tuman, bitmas-tuganmas lug'aviy birliklar va qatlamlarning tiyranligi sababi ham ana shu omildandir.

Oila bilan bog'liq tushuncha va birliklar tadqiqi dunyo tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlaridan biri aksiologik lingvistikaning ham bosh o'rganish ob'ektlaridan biri sifatida ahamiyati oshib bormoqda. Shu jumladan, turkshunoslikda ham keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda turkiylarning lingvomadaniyatshunosligida oila va u bilan bog'liq birliklar tadqiqi masalasi sohaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ilgingizdagi ushbu monografiyada lingvomadaniyatshunoslikda "oila" konseptining o'rganilishi, uning madaniy qadriyat sifatida namoyon bo'lishi, metaforik timsollari, turkcha maqollarda erkak obrazining qadriyatga oid unsurlari, o'g'il-farzand obrazi-niing konseptuallashuvi masalasi, ayol timoslining qadriyat-ga aylanishi va metaforalarda ifodalanishi, qiz-farzand obrazining konseptga aylanishi singari jihatlar turk maqollari materiallari asosida yoritilgan. Muhimi, o'zgacha turmush tarzi va tafakkur egasi bo'lgan turklarning olam lisoniy manzarasida oila bilan bog'liq maqollarda xalqning ongi, o'y-qarashlari, mentaliteti, urf-odati, madaniyati, ko'zqarashi nihoyatda chuqur aks etgani hamda oila turklar uchun dunyoqarash va milliylikni o'zida mujassam ettiruvchi ayri-cha ustuvor madaniy qadriyat ekanligi asoslab berilgan.

Qudratulla Omonov,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

Jahon kishilik taraqqiyotining hozirgi bosqichida oila instituti va uning an'anaviy qadriyatlariga qaytish masalasi nihoyatda muhim muammo o'laroq kun tartibidan joy olgan. Turli xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, diniy e'tiqodi, madaniy, ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq dunyoqarashlari jamiyatning "oila" deb atalmish kichik bir bo'g'inida yaqqol va yorqin ko'rinadi. Shu jihatdan, jahon fanida oilaviy munosabatlar va ular bilan bog'liq masalalarga qator ijtimoiy - gumanitar sohalarning asosiy o'rganish obyekti sifatida alohida urg'u berilmoqda. Oila bilan bog'liq tushuncha va birliklarlar tadqiqi tilshunoslikning ham ustuvor yo'nalishlari qatorida turadi.

Dunyo xalqlari, xususan, turkiy ellarda oilaga tiriklikning eng muhim, asosiy bo'g'ini o'laroq munosabatda bo'linadi. Shu jihatdan oilaviy munosabatlar va ularni aks ettiruvchi birliklar hamda oila bilan bog'liq xalq maqollari nihoyatda o'ziga xos va rang-barangdir. Ayniqsa, o'ziga xos madaniyat o'chog'i bo'lgan turk olam lisoniy manzarasida "oila" konsepti xalq ongi, millat tafakkuri, mentaliteti, madaniyatida chuqur aks etgan. Biroq turk tilidagi oila va u bilan bog'liq maqollarning konsept sifatida voqelanishi va ifodalanishi yetarlicha tadqiq qilinmagan. Oila turklar uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos dunyoqarash va milliylikni o'zida aks ettiruvchi madaniy dominant tushunchadir. Turk tafakkuridagi oilaning lingvomadaniy tahlili borasida ilmiy yondashuvlarda yagona to'xtamga kelinmagan hamda bu yo'nalishda qator o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar mavjud.

Yurtimizda barcha jabhalarda kechayotgan islohatlarning hozirgi bosqichida oila institutiga ayrica e'tibor qaratilgan. O'zbek jamiyati uchun oila asosiy o'rinda turuvchi bosh qadriyat sanaladi. Xalqimiz tafakkurida baxtiyorlik tushunchasi asosan oila va u bilan bog'liq jarayonlar qurshovida voqelanadi. Tarixan turk va o'zbek xalqlarining oilaga nisbatan hurmati va e'tibori doimo eng yuqori mavqeda bo'lib kelgan. Bu qarashlar majmuasi, xususan, maqollarda to'liq va yaqqol aks etgan. Ushbu yo'nalish bilan bog'liq maqollarni o'rganish turk olam lisoniy manzarasida "oila" konseptining o'rnini baholashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Oila konsept va giperkonsept sifatida dunyo tilshunosligi, xususan, antroposentrik nuqtayi nazarga asoslangan hozirgi tilshunoslik yo'nalishlarida tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning nazariy asosini tashkil qiluvchi kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va qator yondosh sohalar rivojida Z.Popova, I.Sternin, V.Maslova, V.Vorobev, N.Alefirenko, Ye. Zinoveva¹ kabi rus olimlarining o'rni salmoqli. O'zbek tilshunosligida bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan Sh.Safarov, D.Ashurova, M.Galiyeva, D.Baxronova, Sh.Usmonova, D.Xudoyberganova, X. Hamidov, D.Tosheva, D.Abduxamidova, N.Valiyeva²larning xizmatlari tahsinga sazovor.

Turk tilshunosligida ushbu yo'nalish XXI asrning boshlarida paydo bo'la boshladi. Bu yo'nalish bevosita rus tilshunosligining ta'sirida yuzaga kelganligi sir emas. 2014-yil G'oziy universiteti doktorantlari tomonidan konsept va lingvomadaniyatshunoslikka oid bir qator maqolalar O.Kozan tahriri ostida rus tilidan turk tiliga

¹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001; Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М., 2006; Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Уч.пос. – М.: АСТ Восток-Запад, 2007; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. Уч.пос. – М.: Наука, 2010; Зиновьева Е.И. Лингвокультурология: от теории к практике. Учебник. – СПб, 2016.

²Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах.: Сангзор, 2006; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 2010; Agzamova D.B. "Xotira" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2012; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2015; Ҳамидов Х. Аёл ва оила мавзусидаги туркча мақол ва ибораларнинг ўзбекча таржимада берилиши, Шарқ аёли: Кеча ва бугун. Илмий – амалий анжуман материаллари.– Тошкент, 2013; Она ва фарзанд мавзусидаги туркча мақол ва идиомаларнинг ўзбекча таржимада берилиши, Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам 7. – Тошкент: ТДШИ, 2016; Турк лингвомаданиятида "севги" концептининг воқеланиши хусусида, Қарши давлат университети, Хорижий тилшунослик ва адабиётшуносликнинг қиёсий-типологик таҳлили, Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами, 2018 йил 27-28 апрел, Қарши, 2018; Турк тилида фразеологизмларнинг юзага келиши, маъно ва грамматик хусусиятлари, Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент. – 2018; Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2017; Бахронова Д.К. Олам манзарасининг миллий-маданий ва лингвокогнитив категорияланиши. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2021; Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022; Abduxamidova D. Yapon tilida qarindoshurug'chilik bilan bog'liq birliklarda "uy" konsepti. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2023; Valiyeva N. Xitoy tilida "baxt" konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2023.

tarjima qilindi³, natijada turk tilshunosligida yangi sohadagi muhim qadam ilgari tashlandi.

Tadqiqotning maqsadi turk maqollarida oila va u bilan bog'liq birliklarning konsept sifatidagi o'rni hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Lingvomadaniyatshunoslikda til va madaniyatning o'zaro munosabati hamda u bilan bog'liq konsept va madaniy konsept tushunchalarini ilmiy tavsiflash, turk maqollarida "oila" konseptining qadriyatga oid komponentlari, erkak, ayol va farzand obrazlarining konseptuallashuvini yoritib berish, turk olam lisoniy manzarasida erkak, ayol, farzand obrazlarining maqollarda ifodalanishini asoslash, turk maqollarida "oila" konseptining metaforik talqini va uning leksik sathdagi verballashuvini tahlil etish tadqiqot oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

³ Kozan, O. Kültürdilbilim: Temel Kavramlar ve Sorunlar. – Ankara, 2014.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA OILA KONSEPTI

Tilshunoslikda konsept masalasi

Hozirgi kundagi atroposentrik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri lingvomadaniyatshunoslikdir. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniy voqelik sifatida yoki aksincha, madaniyatning tilda qay tarzda namoyon bo'lishini tadqiq qiladi hamda u tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'ladi. Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Zero, madaniyat xalqning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy xususiyatlarning majmuidir⁴. Til esa madaniy ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy turmushining xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Til – madaniyat ko'zgusi, unda xalqning o'z-o'zini anglashi, mentaliteti, milliyligi, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi⁵. Bu esa tilshunoslikka shaxsni shakllantiruvchi gumanitar bilimlarning majburiy qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Muloqot vositasi sifatida ta'riflash mumkin bo'lgan til insoniyatning bebaho boyligi va kelajak avlodlarga qoldiradigan buyuk va qudratli merosidir. Chunki til "umumiy va muntazam tarzda millionlab odamlarning minglab yillar davomida singib ketgan e'tiqodlari va tajribadan o'tgan haqiqatlari ombori"⁶ sanaladi. Har bir xalqning moddiy, ma'naviy, diniy, axloqiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishi bilan ular foydalanadigan til o'rtasida zaruriy va muqarrar bog'liqlik mavjud. Boshqacha aytganda, mushtarak madaniyat va sivilizatsiya mahsuli bo'lgan tilda xalqlar ruhi, o'ziga xosligi, ong-u shuuri aniq aks etadi. Til madaniyatning eng muhim tashuvchisi va uzatuvchisi bo'lsa-da, bu jarayondan eng ko'p yana tilning o'zi ta'sirga uchraydi. Chunki tilni oziqlantiruvchi, ko'paytiruvchi, davolovchi, o'zgartiruvchi, turli ma'no qatlamlarining shakllani-

⁴ Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили. Филол. фан. б. фалс. док. дисс. – Самарқанд, 2019. – 11 б.

⁵ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000. – С.14.

⁶ Kaplan, M. Dede Korkut Kitabı'nda Kadın // Türk Edebiyatı Üzerine Araştırmalar. – İstanbul: Dergâh Yayınları. 2001. – s.9.

shini ta'minlovchi ijtimoiy madaniyatdir⁷. Shuning uchun madaniyatshunoslik va tilshunoslik o'rtasida muhim va sezilarli parallelizm mavjud.

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini o'rganish XVIII asrning oxirlariga borib taqaladi. Tilshunos olimlardan Vilhelm fon Humbold (1767-1835), Franz Boas (1858-1942) va Benjamin Uorf (1897-1941) til, tushuncha va madaniyat masalalari xususida to'xtalganlar. Biroq o'sha paytlar til va madaniyat munosabatlarini birgalikda tadqiq qiluvchi fanlar ichidagi qo'shma fan (lingvomadaniyatshunoslik) to'laligicha rivojlanmagan. Til va madaniyat masalasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, o'tgan asrda tilga nisbatan kognitiv tizim, ijtimoiy amaliyot, kompleks moslashgan tizim degan qarashlar o'rta tashlangan va hatto, Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (ICLA) tashkil qilingan bo'lsa⁸, o'z navbatida madaniyatga nisbatan ham kognitiv tizim, ramziy (simvolik) tizim, ijtimoiy amaliyot yoki tuzilma⁹ sifatida qaralganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, har ikkala hodisaning o'zaro bog'liq tomonlari mavjud. Mazkur ikki hodisani birgalikda o'rganish yangi bilim sohasi – lingvomadaniyatshunoslik fanining dunyoga kelishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Lingvomadaniyatshunoslik termini tilshunoslar tomonidan turlicha atalgan. Masalan, Palmer¹⁰ "Cultural linguistics" (madaniy tilshunoslik) deb atagan bo'lsa, Underhill¹¹, Yevropada til va madaniyat munosabatlarini tadqiq qiluvchi soha sifatida, "ethnolinguistics" (etnolingvistika) terminini qo'llaydi. Professor Farzad Sharifian¹² ham mazkur yangi soha uchun o'zining barcha ilmiy ishlarida "cultural linguistics" terminini qo'llaydi. Tadqiqot

⁷ Akbalik, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı // Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 36. – Nisan 2013. – s.81.

⁸ <https://www.cognitivelinguistics.org/en/about-cognitive-linguistics>

⁹ <http://dx.doi.org/10.1080/10888691.2020.1789360>

¹⁰ Palmer, B. Gary, Toward a Theory of Cultural Linguistics (Lingvokulturologiya nazariyasi tomon) kitobi va bir qator maqolalar muallifi, Nevada Universiteti professori

¹¹ Underhill, James W., Ethnolinguistics and Cultural Concepts: Truth, Love, Hate and War (Etnolingvistika va madaniy konseptlar: haqiqat, sevgi, nafrat va urush) kitobi va bir qator boshqa kitob va maqolalar muallifi, Rouen Universiteti (Fransiya) professori.

¹² Sharifian, Farzad (1964-2020) lingvokulturologiya borasida qator kitob va maqolalar muallifi, Monash Universiteti (Avstraliya) professori

ishimiz turk maqollarini lingvomadaniy tadqiq qilish bilan bog'liq bo'lgani bois turk tilshunosligida mazkur terminning qanday atalishiga ham to'xtalib o'tsak. Hozirgi turk tilshunosligida mazkur soha hozircha yetarli darajada o'rganilmagan, bu yo'nalishda tadqiqotlar soni barmoq bilan sanarli darajada. Bu borada amalga oshirilgan dastlabki ish O. Kozan to'plagan va muharrirlik qilgan ***Kültürdilbilim: Temel Kavramlar ve Sorunlar*** (Lingvomadaniyatshunoslik: Asosiy tushunchalar va muammolar) tarjima kitobi bo'lib, mazkur to'plam O. Kozanga oid *Kültürdilbilim nedir? (Lingvomadaniyatshunoslik nima?)* nomli kirish so'zi o'rnidagi maqolasi va yigirma to'rtta sohaga oid rus tilidagi maqolalarning tarjimasidan iborat. Mazkur kitob Turkiyaning G'oziy universiteti doktorantlari tomonidan tayyorlanib turk tilshunosligiga armug'on qilindi. Kitobning ahamiyati faqatgina tarjimasi bilan cheklanmaydi, balki turk tilshunosligida yangi terminlarning paydo bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda bu soha rus tilshunoslik maktabining mahsuli hisoblanadi. Mazkur tushuncha asosida XX asrning oxirgi choragida mustaqil fan sifatida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik V.Teliya boshchiligidagi iboralar maktabi tadqiqotlari asosida Yu.Stepanov, N.Arutyunova, V. Vorobev, V. Shaklein, V. Maslova kabi izlanuvchilarning ishlari bilan bog'liq ravishda rivojlandi¹³. V.Maslova xalqning o'tmish asrlarga oid qarashlari tildagi maqollarda, frazeologik birliklarda, metaforalarda va madaniy ramzlarda hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligini bayon qilib, mazkur fanning tadqiqot doirasini quyidagicha izohlaydi: "Lingvomadaniyatshunoslik, asosan, afsonalar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, madaniyat ramzlari va boshqalarni o'rganadi. Ushbu tushunchalar madaniyatga tegishli bo'lib, ular kundalik va marosimlardagi aloqa-munosabatlar shaklida tilda mustahkamlanadi. Ularni kuzatish mazkur tadqiqot uchun material bo'lib xizmat qiladi"¹⁴. Qadriyatlar va stereotiplar uzoq vaqt davomida iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi majoziy ifodalarda, ya'ni maqol va matallarda o'z aksini topadi.

¹³ Paşaoğlu C., Rus ve Türk dil dünya görüşlerinde aile konsepti // Avrasya uluslararası araştırmalar dergisi, C.8, Sayı:25. – 2020. – s.165

¹⁴ Маслова В.А., Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – с.17

Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sifatida madaniy tizimdagi ramziy, etalonlashgan, obrazli-metaforik mohiyatga ega bo'lgan hamda mif, afsona, rituallar, urf-odat, folklor va diniy diskurslarda, nasriy va nazmiy matnlarda, ibora va metaforlarda, maqol va matallarda amal qiladigan sof insoniy arxetipik va prototipik bilish natijalarini umumlashtiruvchi til birliklarida namoyon bo'ladi. Xalq maqollari lingvistik tahlilga tilshunoslikning yangi paradigmalari paydo bo'lishi natijasi o'laroq tortilmoqda¹⁵. Zamonaviy tilshunoslikning, xususan, lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sifatida maqollar alohida ajralib turadi. Bu sohaga kirish va uning tahlillarini olib borish uchun asosiy "kalit" konseptdir. Maqollar madaniy konseptni yoritishga xizmat qiluvchi logoepistema hisoblanadi. Logoepistema (episteme — yunoncha «bilim») — til birligida saqlanadigan bilim tilini tavsiflash va o'zlashtirish semiotik tizimining birligi; til (belgilovchi) va madaniyat (belgilangan) darajasida tushunishni talab qiladigan belgi¹⁶ deya ta'riflanadi. Maqollar, matallar, frazeologik birliklar, qanotli so'zlar va pretseident matnlar ko'rinishidagi moddiy shakl orqali logoepistemalar etnosning bilimi, fikri, an'analari, urf-odatlari, belgilari, g'oyalari, uning milliy xarakterining xususiyatlarini ifodalaydi. Logoepistema lingvistik birliklarga qaraganda mamlakatga xos ma'lumotlar hajmi jihatidan ko'proq va kengroq, to'yinganlik darajasi jihatidan chuqurroq va boyroq ma'lumot hisoblanadi, ya'ni maqol madaniy konseptni to'liq yoritib berish uchun eng asosiy manba vazifasini bajaradi. Chunki maqollar obrazli-metaforik va qadriyatga asoslangan (baholovchi) bilim va tajriba yig'indisi sanaladi.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga uni shunday birlik deb hisoblashga asos bo'la oladigan belgilar, ya'ni etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy assotsiasiyalari, unga munosabat yoki baholash va boshqalar kiradi. U milliy mental qurilma bo'lib, uning mazmun jihatini ma'lum obyekt haqidagi bilimlarning jami tashkil

¹⁵Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси // Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. дисс. – Қўқон, 2019. – 41 б.

¹⁶Сергеева Т.Г. К вопросу определения основных единиц в лингвокультурологии <https://uchebana5.ru/cont/1672441-p13.html>

etsa, shakliy tomoni lisoniy (leksik, frazeologik, paremiologik) birliklar majmuidir. Konsept har qanday emas, balki umuminsoniy va milliy madaniyatga daxldor bo'lgan mohiyatni aks ettiruvchi tushunchadir. Buni madaniy konsept deb atasak to'g'riroq bo'ladi, zero milliy madaniyatga daxldor bo'lmagan tushunchalar ham konsept bo'la oladi. Masalan, daraxtni olaylik, u haqidagi barcha bilimlarimiz daraxt konseptini tashkil qiladi. Lekin majnuntol desak, o'zbeklar uchun; archa desak xristian dinidagi millatlar uchun o'ziga xos madaniy konseptni ifodalaydi.

Yu. Stepanov fikriga ko'ra "konsept – bu inson ongidagi madaniyat va madaniyatni ifodalab beradigan tushunchalar yig'indisi... va boshqa tomondan konsept – bu uning vositasida insonning madaniyatga kirishidir"¹⁷. Bola qaysi madaniyat vakillari orasida ulg'aysa, o'sha madaniyat ko'rinishlarini o'zida aks ettiradi. Buni ijtimoiy tarmoqdagi bir videorolik orqali misol qilib keltirmoqchiman. Unda musulmon davlatdan bir yigit metroda katta yoshli rus kishiga joy beradi. Haligi kishi yigitga qarab, nega o'rningdan turding, nima men senga qarimanmi? -deydi jahl bilan. Yigit muammo chiqishini xohlamay eshik tomon uzoqlashadi, ortidan kelib yana qat'iy ohangda so'raydi. Shunda yigit: "Menga qarang, muhtaram zot, gap sizda emas, gap mening o'zimda, tarbiyamda. Men hech qachon yonimda katta yoshli odam tursa o'tirmayman. Xohlang o'tiring, xohlamasangiz yo'q", deydi. Shunda haligi kishi o'zining nafaqadagi harbiy psixolog ekanligini, yigitni o'rnidan turg'izgan narsa nima ekanligiga qiziqqanini aytadi. Yigit bilan chamasi tengqur qizi borligini uyga kirganida biror marta o'rnidan turmaganligini qo'shib qo'yadi. Mazkur misoldagi yigit ham o'zi voyaga yetgan madaniyat izlarini xatti-harakatlarida namoyon qilmoqda.

J. Matnazarovning fikricha, lingvomadaniy konsept shartli ravishda mental birlik sifatida tushuniladi. Uni tilda, tafakkurda va madaniyatda jamlovchi birlik sifatida qo'llaydi. Tafakkur – konseptning joylashuv maydoni, madaniyat konseptni aniqlashtiradi; til yoki nutq – konseptning namoyon bo'lish sathi hisoblanadi.

¹⁷ Степанов Ю.С., Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический Проект, 2001. – с.43

Milliy madaniy soʻzlar, frazeologik birliklar, milliylikni aks ettiruvchi badiiy asarlar bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Konseptni olimlar turli zonalarga boʻlishadi: a) asosiy zona – intrazona va ekstrazona; qoʻshimcha zona – kvazizona va kvaziekstrazona;¹⁸ b) asl maʼno (soʻzning ichki jihati), passiv (tarixiy qism), zamonaviy (dolzarb va faol qism); c) yadroviy zona va periferik zonalar. Yadroviy va periferik zonalarining mutanosibligi konsept strukturasini belgilab beradi. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi¹⁹.

Konseptni har bir millat oʻz dunyoqarashi va mentaliteti orqali tasavvur qiladi. Bu voqelik kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan olamning lisoniy manzarasi sifatida qaraladi. Lingvomadaniyatshunoslikda **olamning lisoniy manzarasi** (OLM) nimani anglatadi? OLM inson faoliyati jarayonida dunyoni bilish natijalarining soʻzda qayd etilishi, borliq haqidagi obyektiv bilimlarni toʻldiruvchi va lisoniy shakllarda muhrlangan bilimlar majmuasidir. Uni yaratishda xalq hayotining koʻzgusi boʻlgan frazeologizmlar alohida ahamiyatga ega²⁰. Chunki frazeologizmlar oʻsha xalqning taxixiy-madaniy anʼanalari, hayotiy tajribalari, qadriyatlari bilan bogʻliq hisoblanadi. Biror konseptni mukammalroq oʻrganish uchun shu konseptni turli tillarda solishtirib, uning turli millatlar madaniyati, kundalik hayoti va mentalitetida tutgan oʻrnini aniqlash zarur.

Birinchi bor bu terminni rus ilm-fanida 1928-yilda S. Askoldov qoʻllagan. Olim konseptni koʻpgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklarni fikrlash jarayonida oʻrnini toʻldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi²¹ (rivojlanish konsepti, haqiqatgoʻylik, matematik konseptlar). Taxminan, oʻsha vaqtlarda D.S. Lixachev konseptni til sohibining salohiyati, shaxsiy, professional va ijtimoiy tajribasidan kelib chiqib, qoʻllaydigan va talqin qiladigan umumxulosaviy tafakkur birligi deb izohlaydi va til sohiblarining

¹⁸ Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метоконцепты. – Волгоград, «Перемена», 2004. – с. 17-18.

¹⁹ Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар, КТУ, 2002. – с.142.

²⁰ Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Bookmany print. – Toshkent, 2022. – 86-87-bb.

²¹ Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. Антология. – М.: Academia, 1997. – с.45

tafakkuridagi aniq bir soʻzning oʻziga xos turli maʼnolarining umumlashmasi, muloqot qilayotganlarga ular orasida mavjud soʻzlarni tushunishdagi individual farqlarni bartaraf qilish imkonini beradi. D.S. Lixachev fikriga koʻra, konsept til mohiyatidan paydo boʻlmaydi, balki soʻzlovchining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan oʻzlashtirilgan bilimlari toʻqnashuvi hisoblanadi²². Konsept bu holatda D.S. Lixachev tushunchasiga asosan muloqot tilida oʻrindoshlik vazifasini bajaradi.

V. Karasik turli olimlarning konsept borasidagi qarashlariga oʻzining munosabatini bildiradi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritamiz:

– Konsept – oʻzida abstrakt, aniq assotsiatsiyaga ega, emotsional baholovchi belgilar hamda tushunchaning zichlangan tarixini aks ettiruvchi gʻoyadir²³. Bunda biror narsa-hodisa borasida xalq tafakkuridagi tushuncha ijobiy yoki salbiy, yaxshi yoki yomon, toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligi bilan baholanadi;

– Konsept – bu shaxsiy tushuncha, obʼyektiv maʼnoning tahlili va maʼnoning minimal sarmazmun mohiyatidir²⁴. Masalan toʻy konseptini olaylik. Baʼzi kishilar uchun katta xarajatni anglatasa, baʼzilar uchun oʻyin-kulgu, shirin taomlar, boshqa birovlar uchun esa yangi muommalarga tayyor turishni anglatadi. Bu holat millatlar va kishilar orasida oʻzgarib turadi.

– Konsept – aniq bir maishiy mohiyat asosida yaratilgan ilmiy, abstrak tushuncha²⁵. Yaʼni moddiy narsa-buyumlardan tortib, maʼnaviy tushunchalarni ham oʻzida qamrab oladi.

V. Karasikning oʻzi konseptga quyidagicha taʼrif beradi: konsept – inson ongida saqlanuvchi tajribaning anglangan, tiplarga ajratilgan fragmentlarni oʻzida aks ettiruvchi mental bilim; konsept koʻp oʻlchamli mental bilim boʻlib, uning tarkibida obraz-

²² Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка//Русская словесность: Антология. – М.: Academia, 1997. – с.90

²³ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический Проект, 2001. – с.412

²⁴ Лихачев Д.С. Koʻrsatilgan asar. – М.: Academia, 1997. – с.90

²⁵ Соломоник А. Язык и знаковая система. – М.,1992. – с.246

li-intuitiv, tushunchaviy hamda baholovchi qirralari yaqqol namoyon bo'ladi²⁶.

Konsept – lisoniy birliklar (masalan, so'z, gap, matn kabilar) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasi (hosili) dir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq predmet va hodisalari haqida juda keng miqyosda mukammal, har tomonlama ma'lumot, tushuncha, tasavvurlarni o'zida tashishi, saqlashi, o'zgaga yetkazishi (berishi) bilan jamiyat a'zolarining predmet va hodisalarga bo'lgan munosabatini qayd etishi bilan o'ziga xosdir²⁷.

Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarining asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko'rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimli xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimli xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab va tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi²⁸. Umuman olganda, *konsept* va *madaniy konsept*ni bir biridan ajratib olish zarur. *Konsept* har qanday narsa-buyum, voqea-hodisa, his-tuyg'u haqidagi bilimlar yig'indisi bo'lsa, *madaniy konsept* biror bir xalq madaniyatida narsa-buyum, voqea-hodisa, his-tuyg'uning alohidalik aks etishidir. Bir nom ostidagi konseptlar boshqa-boshqa xalqlarda umumiylik va xususiylik ifodalashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan lingvomadaniyatshunoslikning qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, diaxronik

²⁶ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – с.59 – 390 с

²⁷Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. – 154-b, (kitobdagi ushbu ma'lumot O'.Q.Yusupovning "Kognitiv lingvistika haqida" maqolasidan olingan. – Toshkent, 2007. – 22-24-bb.)

²⁸Матназаров Ж. Концепт тушунчаси ва унинг когнитив тилшунослик ва лингвомаданиятшуносликка муносабати // Илм сарчашмалари (Ал-Хоразмий номидаги Урганч давлат университетининг илмий-методик журнали) 2013/5. – 64-b.

lingvomadaniyatshunoslik, sinxron lingvomadaniyatshunoslik kabi yo'nalishlari mavjud bo'lib, barchasida konseptlar turli tomondan tahlilga tortiladi. Bizning fikrimizcha, madaniy konsept umuminsoniy birlikning milliy qadriyatlar, milliy obrazlar bilan boyitilgan tushunchalar yig'indisidir. Uning boyish manbasi esa jamiyatda ro'y bergan hosidasalar, shaxsiy tajribalar va o'xshatishlar hisoblanadi.

Murakkab hodisa yoki tuzilma bo'lgan konsept tabiiy ravishda bir qator tadqiq qilish usullarini talab qiladi. Konseptni tadqiq qilish usullarini D.Valeyeva o'zining "О методах исследования концепта" nomli maqolasida quyidagicha sanab o'tadi: leksikografik tadqiqot usuli, komponentlarni tahlil qilish, so'z yasalishi tahlili, so'zning ichki shaklini o'rganish, sintagmatik tahlil (tarqatuvchi), leksik-semantik guruhlarini tadqiq qilish, paremiologik tahlil, kontekstual tahlil, eksperimental usullar²⁹. Bizning tadqiqot ishimiz maqollar doirasida bo'lganligi bois paremiologik tahlil va konseptual tahlil usullaridan foydalanamiz.

Konseptni tahlil qilishda S.Vorkachev, V. Karasik, G. Slishkinlar tomonidan taklif qilingan, kontsept tarkibida tushunchaviy, baholovchi va obrazli komponentlarni ajratib ko'rsatish biz uchun ahamiyatlidir³⁰. Ushbu talqinda tushunchaviy komponent konseptning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi, u "ongda verbal shaklda saqlanadi va bevosita nutqda takrorlanishi mumkin"³¹. Baholovchi komponenti ushbu kontseptning ma'lum bir madaniyatdagi o'rni haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, konsept bilan bog'liq bo'lgan assotsiatsiyalarni belgilaydi va konsept tarkibida ustunlik qiladi. Konseptning obrazli elementi inson ongida noverbal shaklda saqlanadi, nutqda bevosita takrorlanmaydi va leksik nomlarda mustahkamlangan kognitiv metaforalarga ishora qiladi. Natijada konseptning obrazli komponentini ajratib olish va izohlash uchun tilda konseptual ma'nolarning metaforik nominatsiya-

²⁹ Валеева Д.Р. О методах исследования концепта // Филологический аспект, № 1 (33). – 2018. – с. 6-12

³⁰ Воркачев С.Г. Концепт счастья: понятийный и образный компоненты // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. – 2001. Т. 60, № 6. – с. 47-58;

³¹ Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: научное издание / Под ред. И.А. Стернина. – Воронеж: Воронеж. гос. ун-т, 2001. – с. 75.

lari bilan ifodalangan konseptual metaforalar majmuasini aniqlash zarur.

Metafora kognitiv tilshunoslikda inson tafakkuri va inson tili-ning hodisasi sifatida talqin qilinadi va inson tajribasini izohlash vositasi sifatida tushuniladi. J.Lakoff va M. Jonson inson tafakkuri-ning metaforik mohiyati haqida shunday xulosaga kelishadi: konseptual tizimning o'zida mavjud bo'lgan va lisoniy ma'lumotlarda namoyon bo'ladigan metaforalar idrokimizni, fikrlashi-mizni va harakatlarimizni belgilab beradi³². Metaforani tushunish ongi-mizda mavjud bo'lgan odatiy sxemalarga yoki yangi vaziyatlarni umumlashtirish mumkin bo'lgan modellarga asoslanadi. Bunday sxemalar bizning oldingi tajribamizni, yangi kelgan ma'lumotni oldingi tajribadan olingan odatiy, takrorlanadigan qismlar-ga bo'lish xususiyatini aniqlaydi. Ushbu sxemalarning tahlili OLM ning majoziy qismlarini qayta yaratishga imkon beradi, ularda milliy dunyoqarash aks etadi³³. Maqollarda ham xuddi shu holat yuz berishini kuzatish mumkin. Xalq tajribalari qolip ifodalarga aylanadi va bu ifodalar barcha tajribalarni o'zida mujassam etib, tinglovchi tafakkurida o'zidagi bilim, ko'nikmalar asosida qayta jonlanadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sirasida maqollar alohida ajralib turadi. Maqollar ongda stereotip sifatida o'rnashadi, shu asosda inson atrofida va o'zida kechayot-gan hodisalarni baholaydi. Tilda borliqni baholashning milliy-madaniy mezon sifatida yashaydi³⁴. Shu bilan bir qatorda bu ifodaning ta'sirchanligini ham oshirishga xizmat qiladi. Biror xalqning madaniyatiga kirib borish uning maqollari orqali amalga oshiriladi. Maqol o'zining kelib chiqishi, qo'llanilishi va o'rganilishi nuqtayi nazardan mustaqil bir asardir. Mazkur asarlarning mavzu ko'lam shu qadar kengki, turmushning har jabhasini o'zida qamrab olgan. Oila mavzusi har bir xalq maqollarining salmoqli

³² Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – с. 388.

³³ Потураева Е.А. Метафорические обозначения концепта «дом» в русской языковой картине мира // Язык и культура. – 2010. – с. 59

³⁴ Убайдуллаев Ш.Н., Мансурова К.Х. Ўзбек ва немис тилларидаги мақолларда “меҳнат” концептини вербаллашуви // НамДУ илмий ахборотномаси, Махсус сон. – Наманган, 2021. – 876 б.

qismini egallashi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki hayotdagi har bir hodisaga munosabat oilada shakllanadi.

“Oila” konseptining tilshunoslikda o‘rganilishi

Oila insoniyat tarixidagi eng qadimiy institut – jamiyatning tamal toshi hisoblanadi. Uni o‘rganish insoniyat tarixi qadar qadimlarga borib taqaladi. Jamiyatning turli tomonlarini yoritishda oila asosiy obyekt bo‘lib xizmat qilib kelgan. Oila hozirga qadar dunyo miqyosida tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy jihatlaridan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda.

“Devonu lug‘otit turk” asarida tilga oid boshqa mavzular bilan bir qatorda maqollar ham sharhlangan. Maqollar milliy madaniy xarakterga ega ekanligini hisobga olingan holda arablarga turkiy tilni o‘rgatish maqsadida yozilgan ushbu asarda har biri alohida-alohida izohlangan. Asardagi maqollarning umumiy soni 298 tani tashkil qiladi. Ular orasida oila bilan bog‘liq maqollar 25 tani, ya’ni 8 % ini tashkil qilgan. Ushbu maqollarning ko‘pi hozirgi kun turkiy tillarida ham keng qo‘llaniladi³⁵. Asarda keltirilgan maqollar orqali hozirda qo‘llaniladigan ayrim maqollarning etimologiyasini ham bilib olishimiz mumkin.

Zamonaviy dunyoda inson omilini chuqurroq va teranroq anglash maqsadida juda ko‘p yangi fanlar, fan sohalari paydo bo‘lgani hech kimga sir emas. Oila mavzusi mazkur yangi yo‘nalishlarni ham chetlab o‘tmagan. Xususan, kognitiv tilshunoslik, sosiolingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarining ham tadqiqot obyektlaridan biriga aylanib ulgurdi.

XX asrga kelib paremiologik birliklar ustida bir qator tadqiqotlar olib borildi, ularning to‘plamlari yaratilib, yangi materiallari yig‘ildi va eskilari bilan solishtirildi. Shuningdek, paremalarning tuzilishi, paydo bo‘lish tarixi, evolutsiyasi va ularning xalq mentaliteti bilan bog‘liq tomonlari o‘rganila boshlandi³⁶.

³⁵ Хамидов Х. “Девону луғатит-турк” даги мақоллар ва ҳозирги турк тили паремиологияси // Turkologiya, Xalqaro ilmiy jurnal, 3-son. – Toshkent, 2021. – 88-89-bb.

³⁶ Мадалов, Н.Э. Ўзбек тилшунослигида мақолларнинг лингвистик тадқиқи // Academic Research in Educational Sciences, Volume 3, Issue 11. – 2022. – 708 б.

Oila konsepti bo'yicha M. Terpak, Z. Biktagirova, A. Raxmat, Ch. Tsinxan, K. Vorkina, U. Sinyuy, Yu. Jeleznova, Ye. Kostribuna, N. Zanegina³⁷ning yozgan dissertatsiyalari va M. Yurtbashi, H. Go'zpinar, J. Pashalio'g'li, A. Raximova, T. Romanova v.b., A. Gaychayeva, I. Sidorsh, Y. Kapustina va D. Aripova³⁸lar tomonidan yozilgan maqolalar ishimizning asosiy nazariy qismini belgilab beradi.

³⁷ Терпак М.А. Английский лингвокультурный концепт «семья» и способы отражения его коннотативного содержания в языке (на материале семантического поля «Родственные отношения») // Дисс. кан. фил. наук. – Самара, 2006; Биктагирова, З.А. Концепт «Семья» в парамииологии английского, турецкого и татарского языков // Дисс. канд. фил. наук. – Казань, 2007; Синьуй, У. Лингвокультурологические и лингвометодические аспекты концепта «семья» в русской и китайской культурах // Афтореф. дисс. канд. фил. наука. – СПб., 2009; Железнова Ю.В. Лингвокогнитивное и лингвокультурное исследование концепта «семья» // Афтореф. дисс. канд. фил. наука. – Ижевск, 2009; Кострубина Е.А. Гиперконцепт семья/дом – family/home в русской и английской лингвокультурах // Афтореф. дисс. канд. фил. наука. – М., 2011; Занегина, Н.Н. Концепт «семья» в русском литературном языке и принципы его описания // Афтореф. дисс. канд. фил. наука. – М., 2011; Рахмат, А. Концепт *семья* в русской паремике. Лингвокультурологический аспект // Дисс. кан. фил. наук, – СПб., 2013; Воркина, К.С. Японская *семья* как феномен культуры // Дисс. кан. фил. наук. – М., 2019; Цинхан, Ч. Семантическое наполнение концепта «семья» в русской языковой картине мира и его языковая объективация в современной русской речи // Дисс. кан. фил. наук. – Нижний Новгород, 2022;

³⁸ Сидорш, И.П. Концепт семья в ассоциациях носителей русского и турецкого языков // Работа представлена кафедрой русского языка как иностранного. Саратовского государственного медицинского университета. — 2008; Gözpinar H., Proverbs about children in English, Georgian and Turkish culture, Journal of Education; ISSN 2298-0172, – 31-35ss; Yurtbaşı M. Learning about “family relations” in Turkey through proverbs. International Journal of New Trends in Arts, Sports & Science Education volume 4, issue 4. – 2015; Гайченя А.А. Концепт *семья* в русской и испанской языковых картинах мира. Лингвокультурологический анализ // Язык и текст langpsy.ru. Том 5. № 4. – 2018; Капустина Е.А., Стенина В.Ф., Семантическое поле концептов «семья» и «дом» в алтайских былинах // Grand Altai Research & Education / Nauka i obrazovanie Bol'shogo Altaï: сетевое издание». выпуск 2 (9). – 2018; Rakhimova, A.E. and others, Linguistic and cultural characteristics of proverbs describing family relations in the german linguistic picture of the world // Humanities & Social Sciences Reviews eISSN: 2395-6518, Vol 7, No 6. – 2019; Romanova, T. and others, The concept family in the Russian and Ukrainian language culture (based on proverbs and sayings), CILDIAH-2019, SHS Web of Conferences 69, 00136. – 2019; Paşalıoğlu C. Rus ve Türk Dil Dünya Görüşünde Aile Konsepti. Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi, Cilt :8, Sayı :25, Aralık 2020; Арипова Д.В. Лексико-семантическое поле «семья» в русской и узбекской лингвокультурах // Synergy: Journal of ethics and governance Special Issue. – 2022.

Xususan, A. Raximova va bir qator mualliflar hamkorligida yozilgan maqola³⁹da oilaga oid 180 ta olmon maqoli saralab olingan va ulardagi oilaviy munosabatlar adabiyotlarning nazariy tahlili, maqollarni semantik va strukturaviy tahlil qilish, leksik va semantik guruhlarni tavsiflash, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanib, lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortilgan. Shuningdek, maqolada oila haqidagi nemis maqollari semantik guruhlarga ajratilgan, oilada ayollarning o'rne, oilada erkaklarning o'rne, xotin va er o'rtasidagi munosabatlar kabi xususiyatlar atroflicha yoritib berilgan.

M. Yurtbashi oila jamiyatning eng muhim bo'g'ini ekanligi, jamiyatning mustahkamligi oila mustahkamligi bilan bevosita aloqador ekanligi, turk oilasining asosi islomiy odob-axloq va qadriyatlariga tayanishini 100 ta oilaga oid maqolni tasniflarga ajratgan holda tahlil qilib yoritib bergan⁴⁰. Xususan, bu tasnifda oila qurish, er, xotin, kelin, qaynona, qaynota, ona, ota, farzandlar va ota-onaning munosabati, bobo-momolar va nabiralar munosabati, farzandlar – o'g'il, qiz bilan bog'liq maqollar ko'rib chiqilgan. Xulosa sifatida, sog'lom jamiyat mustahkam tamoyillarga asoslangan oilalardan tashkil topishi, aslida oilaviy munosabatlar universal bo'lib, turli madaniyatlarda unga bo'lgan qarashlarga farqli ekanligi bayon qilinadi.

Halis. Go'zpinar uch til – ingliz, gruzin va turk tillari doirasida bolalar haqidagi maqollarni tahlil qilib, uchala tildagi qisman yoki to'liq ekvivalent maqollarni saralab olgan⁴¹. Maqollarni tahlil qilishda ularni, bolalarni, tarbiyalashda ota-onaning roli; o'g'il bolani ota, qiz bolani ona tarbiyalaydi; ota-onaning farzandlari uchun o'rnak; farzand oilaning baxti va boyligi; bola tarbiyasi qiyin kabi guruhlarga ajratib olgan. Tahlil natijalariga ko'ra, qaysi madaniyatda bo'lishidan qat'iy nazar farzand tarbiyasi ota-onaning eng muhim va mushkul vazifasidir. Bola va ota-onaning munosabati to'g'ri-

³⁹ Rakhimova, A.E. and others, Linguistic and cultural characteristics of proverbs describing family relations in the german linguistic picture of the world // Humanities & Social Sciences Reviews eISSN: 2395-6518, Vol 7, No 6. – 2019. – pp. 1048-1055,

⁴⁰ Yurtbashi, M. Learning about "family relations" in Turkey through proverbs // International Journal of New Trends in Arts, Sports & Science Education - ISSN: 2146 – 9466, Volume 4, Issue 4. – 2015. – pp.31-37.

⁴¹ Gözpinar, H., Proverbs about children in English, Georgian and Turkish culture, Journal of Education; ISSN 2298-0172. – 31-35 p.

sidagi maqollar har uch tilda ham ko'p uchragan. Bola tarbiyasiga uchala madaniyat ham qadriyat sifatida qarashi alohida ta'kidlangan.

T. Romanova va bir qator mualliflar tomonidan Rus va ukrain lingvokulturologiyasida oila konsepti maqol va iboralar asosida yoritganlar⁴². Maqolada "oila" konseptini ikki slavyan xalqi – rus va ukrain xalqlarining paremiyalarida qanday aks etishini ko'rsatish, oilaning stereotipik tasavvurlari tizimini tavsiflash, mentalitetning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini, axloqiy qadriyatlarni, turli etnik guruhlarining urf-odatlarini va an'analarini aniqlash kabi masalalarni tizimli, sinergetik va empirik yondashuv usullaridan foydalangan holda yoritish maqsad qilingan. Natijada, ikki qardosh xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi paremiyalar tahliliga ko'ra oila konsepti o'xshash bo'lib, uning asosiy vazifalari yosh avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashdan iborat ekanligi bayon qilingan.

A.A. Gaychayeva tomonidan qalamga olingan "Rus va ispan lisoniy manzarasida "oila" konsepti. Lingvokulturologik tahlil"⁴³ maqolada rus tilida oila konseptining semantik maydoni, oilaning dinamik tushuncha ekanligi, oila leksemasi va uning konseptual semantik sohasi leksemalarining tipik ko'rsatkichi o'zgargandan keyin vaqt o'tishi bilan o'z ma'nolarini o'zgartirishi haqida so'z boradi. Xuddi shu tarzda, adabiy kastiliya variantidagi ispan tilidagi oila (familia) konseptining semantik maydoni lug'at ma'nolari bo'yicha berilgan. Bundan tashqari, har ikkala til frazeologik birliklari va maqollari tahlilga tortilgan. Tahlillar natijasi oila konsepti har ikkala xalq lisoniy manzarasida bir qator farqliliklarga ega ekanligi, ya'ni ruslar oila deganda jamiyatning hujayrasi bo'lgan va hissiy munosabatlar orqali qarindoshlar guruhini anglatrsa, ispanlar qarindoshlik munosabatlari mustahkam, ota-onadan alohida yashashiga qaramasdan yagona oila tushunchasi

⁴² Romanova, T. and others, The concept family in the Russian and Ukrainian language culture (based on proverbs and sayings), CILDIAH-2019, SHS Web of Conferences 69, 00136 (2019), 1-4 p.

⁴³ Гайчя А.А. Концепт *семья* в русской и испанской языковых картинах мира. Лингвокультурологический анализ // Язык и текст langpsy.ru. Том 5. № 4. – 2018. – с. 68–77

hukmronlik qilishini; rus lisoniy manzarasida oila do'stlik va umumiy manfaatlar bilan bog'langan odamlar guruhini ifodalasa, ispanlarda umumiy manfaat, umumiy kasb va bir ijtimoiy guruhga mansublikni anglatadi. Do'stlik bu guruhlar doirasiga kirmaydi. Muallif maqola orqali ikki madaniyat o'rtasidagi farqlilik konseptlar mazmuni va tuzilishida qay tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatib bergan.

Gaychayevadan farqli o'laroq I. Sidorsh qardosh bo'lmagan ikki til – rus va turk tillari egalari assotsiatsiyalarida “oila” konseptini psixolingvistik eksperiment usulidan foydalangan holda freym tahlil qilishga uringan⁴⁴. Oila a'zolari ichida turklar uchun ona asosiy o'rinni egallaydi (17.8%), ruslarda ham ona (2.2%), turklarda otaga nisbatan ijobiy reaksiya (8.9%) bildirilgan, unga nisbatan asosiy assosatsiya hurmat (7.8%) tushunchasi bo'lsa, ruslarda bor-yo'g'i 0.1% tashkil qilgan. Turk madaniyatidan farqli o'laroq, rus madaniyatida otaga nisbatan salbiy reaksiyalar ham kuzatilgan. Maqola muallifi rus madaniyatida yoshlarning otalarga nisbatan nafrati yoki salbiy fikri yuqori ekanligini rus oilasidagi ajrashishlar natijasida to'liqsiz oilalar ko'pligi bilan izohlaydi. Bundan tashqari maqolada oila xususiyatlari va oilaning hissiy qiyofasi ham foizlarda o'z aksini topgan. Maqoladagi tahlillar har ikkala tilda ham oila deyarli bir xil tushunchalar, ya'ni ruslarda bolalar, uy, ona, sevgi, er; turklarda ona, sevgi, ota, uy, bola, bobo, iliqlik, sadoqat kabi assotsiatsiyalarni bersa, ular borasidagi reaksiyalardagi farqlar esa voqelikning turli tomonlari va jamiyatning faollashuvini, rus va turk madaniyati va tilida aks etgan milliy xususiyatlarni ko'rsatadi.

Yana xuddi shu ikki til – turk va rus tillari olam manzarasida *oila* konsepti turk tadqiqotchisi J.Pashalio'g'lu⁴⁵ tomonidan tadqiq qilinadi. Mazkur maqolada tadqiqotchi har ikki tildagi maqollar, iboralar va qolip biriklamalarni (*söz kalıpları*) konseptual tahlil qiladi. Maqoladagi ota-onalar, er-xotin, farzandlar, turmush qurish va

⁴⁴ Сидорш, И.П. Концепт семья в ассоциациях носителей русского и турецкого языков // Работа представлена кафедрой русского языка как иностранного. Саратовского государственного медицинского университета. — 2008. — № 63-1. — с. 323-329.

⁴⁵ Paşalıoğlu C. Rus ve Türk dil dünya görüşlerinde aile konsepti // Avrasya uluslararası araştırmalar dergisi Cilt: 8, Sayı: 25, Türkiye – Aralık 2020. – s: 164 - 176

bo'ydoqlik mavzularidagi maqol va iboralar oila konseptining asosini tashkil qilgan. Turk tadqiqotchisi ham I. Sidorsh singari har ikki madaniyatda oila konseptining o'xshash jihatlari anchagina ekanligini ta'kidlagan.

Boshqa bir tadqiqotchi Z. Bigtagirova o'zining dissertatsiyasida uch til – ingliz, turk va tatar tillaridagi paremiologiyalar yordamida oila konseptini chog'ishtirma-qiyosiy yo'l bilan tahlil qiladi⁴⁶. Maqollardagi metaforik obrazlarni uch til doirasida o'zaro solishtirgan holda tadqiq qiladi. Turmush qurish, juft tanlash, er-xotin, ota-ona, farzandlar va qarindoshlar bilan bog'liq maqollar konseptni ochib berish uchun "ochqich" vazifasini o'taydi. Anketa usulidan foydalangan holda ayollar va erkaklardan oila va oilaviy munosabatlarni aks ettiruvchi 10 ta maqoldan birini tanlash imkoniyati taqdim qilingan, ya'ni oila deganda ularning tafakkurida qaysi maqollar jonlanadi. Anketaning ikkinchi topshirig'i esa oilaviy munosabatlar deganda yana qanday maqollar esga kelishi haqida so'ralgan. So'rovnomada oila tematik guruhida birinchi o'rinda ona (39) va undan keyingi ketma-ketlik quyidagicha ko'rinish olgan: farzand (23), xotin (16), uylanish (15), qarindosh (11), ota (9), er (4). Bundan ko'rinadiki, turklar uchun oila timsolida birinchi galda ona turadi.

Ye. Kostrubina ham ikki til – rus va ingliz tillari doirasida oila konseptini, aniqrog'i, giperkonseptini shu yo'nalishdagi boshlang'ich ish sifatida o'rtaga tashlaydi⁴⁷. Olima konseptlarni *Семья/ Family – Дом/Home* juftligi doirasida leksik-semantik jihatdan yoritishni maqsad qiladi. Har ikkala til egalari oila konseptini yadro oilasi sifatida tushunishini inobatga olgan holda oila komponentlari (er, xotin, o'g'il, qiz)ning semantik maydoni, sinonimik va assotsiativ qatorlari, milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda ramziy jihatlari tahlil qilingan. Uy leksemasining har ikkala tildagi lug'aviy ma'nolari aniqlanib, konseptual maydonda uning kognitiv qatlamlari ajratib ko'rsatilgan. Ingliz madaniyatida uyning unda yashovchilarga hissiy ta'siri, muhofazalanganligi (begonalar faqat

⁴⁶ Биктагирова, З.А. Концепт «Семья» в парамииологии английского, турецкого и татарского языков // Дисс. канд. фил. наук. – Казань, 2007. – 228 с.

⁴⁷ Кострубина Е.А. Типы концептов: гипер концепт семья // Вестник Пермского университета, Российская и зарубежная филология Вып. 6(12). – 2010. – с. 51-57

ruksat so‘rabgina kirishi mumkin) bilan ajralib tursa, rus madaniyatida uy nafaqat binoning o‘zi, uy-joy qurish, turli muassasalar va korxonalarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan inshoot ham hisoblanishi alohida ta’kidlanadi. Natijada har ikkala madaniyatda *Семья /Family – Дом /Home* giperkonseptlari mavjudligi, unda tahlil qilingan konseptlar uning tarkibiy qismlari sifatida kiritilganligi qayd etilgan. Ushbu maqolada konseptlar faqatgina lug‘atlardagi ma’nolar doirasida yoritib berilgan.

Shuningdek, Y. Kapustina va V. Stenina hammuallifligida yozilgan maqola⁴⁸ ham “oila” va “uy” konseptlarining semantik maydoniga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada ikki konsept oltoy dostonlari doirasida ko‘rib chiqilgan.

D. Aripova “oila” konseptining leksik-semantik maydonini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilgan⁴⁹. Maqola garchand o‘zbek va rus tillari doirasida deb nomlanganligiga qaramasdan, asosan o‘zbek tilidagi oila va uy konseptlariga e’tibor qaratilgan. Maqolaning biror joyida nomidan kelib chiqqan holda, ikki til doirasida chog‘ishtirilgani yoki o‘xshash jihatlarini bayon qilinganiga guvoh bo‘lmaysiz.

Oila konsepti borasida yozilgan maqolalar va ilmiy ishlar faqatgina yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Turk oila instituti, jamiyatshunoslari, folklorshunos olimlari, tilshunos va adabiyotshunoslari tomonidan oila mavzusi uzoq yillardan buyon tadqiq va tahlil qilinmoqda. Xususan, S. Akgul, E. Hirik, B.Tabar, J. Chelik⁵⁰ kabi tadqiqotchilar va yana ko‘plab izlanuvchilar o‘nlab sohada oila mavzusida maqola va ilmiy ishlar yozganlar. Ismini zikr qil-

⁴⁸ Капустина Е.А., Стенина В.Ф., Семантическое поле концептов «семья» и «дом» в алтайских былинах // Grand Altai Research & Education / Nauka i obrazovanie Bol’sogo Altaï: сетевое издание». выпуск 2 (9). – 2018.

⁴⁹ Арипова Д.В. Лексико-семантическое поле «семья» в русской и узбекской лингвокультурах // Synergy: Journal of ethics and governance Special Issue. – 2022.

⁵⁰ Akgül S. “Kadin Ve Aile Hayati” Konulari Bakimindan Türkiye Türkçesi Ve Gagavuz Türkçesi Atasözleri // Türkiyat Mecmuası, c.27/2. – 2017. – s. 1-16; Hirik E. Türkiye Türkçesi Atasözlerinde Akrabalık Bildiren Kelimeler ve Duygu Değerleri // İnsan ve toplum bilimleri araştırmaları dergisi Cilt / Vol: 6, Sayı/Issue: 3, 2017. – s. 1726-1746; Tabar B. Türk Atasözlerine Yansıyan Akrabalık İlişkilerinin Dilkültür Bağlantısı Kapsamında İncelenmesi // International Journal of Languages’ Education and Teaching ISSN: 2198 – 4999. – Mannheim – Germany udes 2015. – p. 294-306; Çelik C. Değişim Sürecinde Türk Aile Yapısı ve Din: Paradigmatik Anlam ve İşlev Farklılaşması // Karadeniz - Black Sea - Черное море, Sayı: 8. –Ankara, 2010. – s.25-35

ganlarimiz biz topgan va qo'lga kirita olgan ishlar hisoblanadi. Oila borasida qilingan ishlar hajmi, ishonchimiz komilki, aslida bundan bir necha barobar ko'p. Biz ko'zdan kechirgan va tahlil qilgan ishlarimizdan kelib chiqqan holda tadqiqot ishimizda oila konseptini metaforik va qadriyatga asoslangan maqollar tarzda ikki guruhga ajratgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz. Ko'rib chiqilgan ilmiy ishlarda bu jihatlariga qisman to'xtalib o'tilgan, ba'zilarida esa butunlay boshqa usullardan foydalanilgan. Umid qilamizki, bizning ojizona mehnatimiz bu borada "yozilayotgan katta kitobning bir sahifasi" bo'lib, kitobning mukammallashuviga xizmat qiladi.

Oila konseptining madaniy qadriyat sifatida namoyon bo'lishi va metaforik obrazlari

Qadriyatlar bu har bir xalq insonlari amalda qo'llanilishi va o'zlarining eng yaxshi hayot tarzlarini namoyish etishi uchun ijobiy deb hisoblanadigan fazilatlar, xususiyatlar va tamoyillardir. Madaniy qadriyat esa jamiyatlarning e'tiqodlari, urf-odatlar, tillari va munosabatlari majmuasidir. Jamiyat, jamoa va etnik guruhlarining madaniy merosi madaniy qadriyatlarda jamlanadi va namoyon bo'ladi. Madaniy qadriyatlarning insoniy va ijtimoiy jihatdan umumiyliklari bo'lsa ham turli jamiyatlarda o'ziga xos jihatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Bunda shu jamiyat insonlarining moddiy va nomoddiy boyliklarga qaratadigan ahamiyati bir-biridan farqlanishi asosiy jihat hisoblanadi.

Turk madaniyatida oila eng muhim madaniy qadriyat hisoblanadi, shuning uchun turklar oiladagi yoshi ulug'larga hurmat ko'rsatish, ota-onasiga g'amxo'rlik qilish, oilaning barcha a'zolari bilan mustahkam va muntazam aloqada bo'lish (silayi rahm qilish) kerakligiga qattiq ishonadilar. Yaqin qarindoshlariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishga oshiqadilar⁵¹. Turklarda qadimgi yunon va slavyanlar singari ota oilaning yagona boshqaruvchisi va qolgan oila a'zolari uning qullari emas. Biroq bu uyda ota hokimiyati butunlay yo'q degan ma'noga ham kelmaydi, ya'ni uyda onaning ham hurmati va izzati yuqori o'rinda turadi. Turk oilasi

⁵¹ Evason, N. Family. 2019. <https://culturalatlas.sbs.com.au/turkish-culture/turkish-culture-family#turkish-culture-family>

haqida ba'zi manbalar (masalan, xitoy manbalarida) matriarxal oila deyiladi. Buning isboti sifatida turk xalqlarining paydo bo'lishiga doir afsonadagi bo'rining ayol bo'lganligi ehtimoli bilan bog'laydilar. To'g'ri, urg'ochi bo'ri bolasini himoyasiga olgan va katta qilgan, lekin bu bo'ri bilan aloqa qilgan erkak ekanligini unutmaslik kerak. Turklar o'zlarini bu bo'riga yaqin oladilar va uni muqaddas deb biladilar. Shuning uchun turklarda onaning nasli muhim hisoblanadi⁵².

Turk tilida oila so'zining izohida *evlilik* (turmush qurish) so'zi keladi. Mazkur leksik birlik *ev* ya'ni uy so'zidan yasalgan yasama so'z bo'lib, *ev+li+lik* semalaridan tarkib topgan. Birinchi galda *ev* so'zini ko'rib chiqamiz.

Ev so'zi qadimgi turkiyda *eb* "qo'nim, chodir" [Orxun bitiklari(735) ma'nosini anglatgan: *özün édgü körteçi sen ebiñe kirteçi* (sen yaxshilik ko'rasan, uyingga kirasan)]. Evlemek – uylantirmoq [Orxun bitiklari (735) : *inim yéti urım üç kızım üç ärti äblädim* (yetti ukam, uch o'g'lum, uch qizim bor edi uyli-joyli qildim)]⁵³.

Ev so'zi hozirgi turk tilida, birinchi ma'nosi, faqat bir oila yashashi uchun mo'ljallab qurilgan inshoot. Ikkinchi ma'nosi, bir kishi yoki bir oila yashaydigan yer, turarjoy, xonadon: "*Ana oğul, yeni kiradıkları eve bir pazar günü taşındılar*". – N.Cumali (Ona-o'g'il ijaraga olgan yangi uyga yakshanba kunlarning birida ko'chib o'tdilar)". Uchinchisi esa, majoziy ma'noda bo'lib, oila tushunchasini ifodalaydi: *Evine bağlı bir adam* (Oilasiga g'amxo'r inson). Oxirgi, to'rtinchi ma'nosi esa eskirgan bo'lib, nasl-nasab ma'nosida qo'llaniladi⁵⁴. Uy bilan bog'liq, *ev açmak* va *ev bozmak* iboralari ham oila bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi. *Ev açmak* iborasining birinchi ma'nosi "alohida uy qilib chiqmoq, alohida uyga joylashmoq"ni anglatga, ikkinchi ma'nosi "uylanmoq"ni bildiradi: *Böyle birine evimi açmaktan memnun olurum* (Shunday kishi bilan turmush qurishdan baxtiyorman). *Evlendikleri günün ertesinde ev açmaya karar verdiler* (Uylangan1 kunining ertasiga alohida olib chiqishga qaror qildilar). *Ev bozmak* iborasi ham ikki ma'noda

⁵² Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık, 2015. – s. 4.

⁵³ <https://www.etimolojiturkce.com/kelime/ev>

⁵⁴ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 834.

qo'llaniladi, birinchi galda "er xotin ajrashmoq", ikkinchisi esa, "er-xotinning ajrashishiga sababchi bo'lmoq". *Kadın var ev yapar, kadın var ev bozar* (M.Y., 206) (Uyni (oilani) quradigan ham ayol, buzadigan ham ayol) Ev adamı iborasi, uyiga, oilasiga g'amxor erkakdir: *Engin, gerçek bir ev adamıydı, eşini çocuklarını hep korur kollardı* (Engin haqiqiy oilasiga sodiq kishi edi, ayoli va bolalarini hamisha qo'llab-quvvatlar edi).

Evlenmek fe'li ham ev so'ziga -le+n fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalgan va uylanmoq, oila qurmoq ma'nolarini anglatadi: "*Öyle olmasa Musa ile evlenmez, talipleri içinde en beğendiği İsa'nın İstanbul'dan dönmesini beklerdi*". – E.Şafak (Unday bo'lmasa, Muso bilan turmush qurmas, talabgorlar orasida ko'ngliga eng yoqqan Isoning Istanbuldan qaytishini kutgan bo'lardi). Mazkur termin uylangan o'g'il yoki turmush qurgan qizning ota uyini tark qilib boshqa yangi uy – oila qurishi ma'nosini beradi. Erkak ham, ayol ham turmush qurish chog'iga yetgach yoki turmush qurgach ulg'aygan hisoblangan. Chunki turmush qurayotgan farzand oilani boshqara olishi orqali jamiyat va davlatda fikr bildirish huquqiga ega bo'lganlar. O'g'il farzand uylanib alohida bo'lgan taqdirda ham ota so'ziga itoat saqlanib qoladi. Turk oilasida uy kichik o'g'il farzandga qolgan. Bu kichik farzand faqatgina ota yoki ona vafotidan keyingina uylangan. Bunday holatlarda yana oilaning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan kelib chiqilgan. Shu tariqa qadimda turklar kichik oila tuzimida yashaganlar va jamiyat uchun mustaqil shaxs yetishtirishga harakat qilganlar⁵⁵. *Evlenmek barklanmak* juft fe'li ham oila qurmoq ma'nosida qo'llaniladi. *Ev bark* so'zi turk tilining izohli lug'atida birinchi izohi uy, mulk bo'lib, *Almanya'da ev bark düzerek bir daha dönmemişti*. – Ö.Seyfettin. (Germaniyada uy-joy qilib, shu bilan qaytmadi); ikkinchi izohi esa oila, bola-chaqa: *Ev bark sahibi olunca hepsinden vazgeçti. Karısını da gül gibi geçindirdi*. – M.Ş.Esendal⁵⁶ (Bola-chaqali bo'lgach hammasini yig'ishtirdi. Xotinini ham bekami-ko'st ta'minlab qo'ydi) tarzida keladi.

⁵⁵ Gömeç, S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış // Aile Yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 8.

⁵⁶ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 834.

Evli sifatining uch ma'nosi bo'lib, birinchi ma'nosi, uylangan yoki turmushga chiqqan: "*İlk tanıştığı adamlara derhal evli olup olmadıklarını sorar*". – R.H.Karay (Birinchi bor tanishayotgan kishilardan darrov turmush qurganmisiz yo'qmi deya so'rar edi); ikkinchi ma'nosi, uy, xonadonga ega, ya'ni *Yirmi evli bir sokak* (Yigirmata xonadonli bir ko'cha); uchinchi ma'nosi esa, uy-joyi bor degan ma'noni anglatadi. Ushbu ma'nolar ichida birinchi ma'no turk tilida oila konsepti doirasidan joy olgan leksemelardan biri hisoblanadi. Hatto, **evli barklı** juft so'zi ham tez-tez qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. *Bark* so'zi turk tilining izohli lug'atida mustaqil ma'noga ega so'z sifatida kelmagan, faqatgina *ev* – *uy* so'zi bilan birga kelgandagina ma'no kasb etadi. Turmush qurgan, bola-chaqali kishi\ayol ma'nosida keladi: "*Hem evli barklı bir kadın olduğundan haberi yok mu bu salak şeyin?*" – A.Kutlu (Ham turmush qurgan ayol ekanligidan nahotki xabari bo'lmasa bu axmoqning?). Turk tilida *ev* bilan bir qatorda fors tilidan o'zlashgan *hane* so'zi ham uy-joy, oila va uning a'zolari ma'nolarida qo'llaniladi: "*Oğlan iyiydi; becerikli, yumuşak huyluydu ama hanesi kalabalıktı.*" – N.Cumalı (Yigit yaxshi edi; qo'l-oyog'i chaqqon, yumshoq tabiatli, lekin oilasi gavjumroq edi).

Turk tilida oila qurish *evlilik* deb atalishi haqida yuqorida biroz to'xtalib o'tgan edik va mazkur so'zning semantikasi va tuzilishi to'g'risida ma'lumot bergan edik. Endilikda oila institutini yaratish uchun tamal hisoblanuvchi ushbu tushunchaning mazmun mohiyati va turk madaniyatidagi qadriyaviy ahamiyati borasida to'xtalamiz. Birinchi galda turmush qurish oilada yangi muhit, yangi holat, yangi rol va yangicha hayot tarzini talab qiladi. Qizlar uchun bo'y qizlik davrining, o'g'il bolalar uchun esa bo'ydoqlikning tugashi bilan belgilanadi. Garchi turk tilidagi bo'ydoqlik bilan bog'liq maqollarning ba'zilar *Bekarlık sultanlıktır* (M.Y.,201) (Bo'ydoqlik sultonlikdir), *Bekarın mekanı sorulmaz* (M.Y., 200) (Bo'ydoqning qoladigan joyi so'ralmaydi) bo'ydoqlikni ijobiy holat deya baholasa, aksariyat maqollar *Bekarın boynunu bit yer, tutup biriktirdiğini it yer* (M.Y., 200) (Bo'ydoqning bo'ynini bit yer, yig'ib terganini it yer), *Bekarlık maskaralık* (M.Y., 201) (Bo'ydoqlik masxaralik), *Varsa eşin rahattır başın* (M.Y., 209) (Turmush o'rtog'ing bo'lsa, ko'ngil xotirjam bo'ladi) turmush

qurishga tashviq qiladi. Har ikki tomon uchun ham yangi rol juftlarning o'zaro ularning ota-onalari va yaqinlari, qolaversa, butun jamiyat bilan munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Turmush o'rtoq tanlash va turmushning dastlabki yillari shuning uchun ham murakkab va mushkul jarayon sifatida baholanadi. Oilalarning har tomonlama moddiy, ma'naviy, diniy va ijtimoiy jihatdan bir-biriga mosligi alohida ahamiyat kasb etadi⁵⁷. Teng – tengi bilan mazmunida (*Davul dengine çalar* (M.Y., 201)) maqol shu jihatlar nazarda tutilgan holda yuzaga chiqqan, chunki sanab o'tilgan jihatlarining har biri oila hayotida juftlarning o'zaro tushinmovchiliklarini yuzaga chiqaruvchi omillar hisoblanadi.

Turk madaniyatida turmush o'rtoq, umr yo'ldosh tanlash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratiladi, chunki turmush qurayotgan yigit va qiz birinchi galda baxtiyor yashashi, davlat va jamiyat uchun sog'lom va manfaatli farzand dunyoga keltirishlari lozim bo'ladi. Bular oilaning dastlabki va eng muhim shartlaridan sanaladi. Turmush qurayotgan yoshga kattalar tomonidan beriladigan asosiy o'git - maslahat xoh qiz bo'lsin, xoh yigit ularning nasl nasabiga birinchi navbatda ahamiyat qaratilgan. Bu esa maqollarda ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Nasli toza insonlar otasi, nasli buzuqlar esa onasi orqali tilga olinishini *Atı atasıyla, katırı anasıyla* (A.Ö., 161) (Ot otasi orqali, xachir onasi orqali bilinadi); nasl-nasab, qon baribir o'ziga tortishi, qachondir asliga tortishi *Domuzun kuyruğunu kes yine domuz* (A.Ö., 246) (To'ng'izning dumini kessang ham to'ng'iz bo'lib qolaveradi); nasli toza bo'lmagan ayoldan ham aslzoda tug'ilmasligini *Domuzdan toklu doğmaz* (M.Y., 50) (To'ng'izdan to'qli (qo'y) tug'ilmaydi); mardlik, jasurlik, matonatli bo'lish faqat erkaklarga xos xislat emas, balki shunday ayollar ham borligini *Erkek aslan aslan da dişi aslan aslan değil mi?* (A.Ö., 269) (Erkak arslon arslon-u, urg'ochi arslon arslon emasmi?); ekin maydonining toshlisi, ho'kizning katta boshlisi afzal bo'lgani singari qiz tanlashda uning uzun sochlisi afzalligini *Tarlanın taşlısı, kızın saçlısı, öküzün başlısı* (A.Ö., 442) (Dala toshli, qiz uzun sochli, ho'kiz katta boshli bo'lgani afzal) maqollari vositasida bilib olamiz. Nasl-nasab masalasi borasida gap ketga-

⁵⁷ Yıldırım, N. Yaşam Döngüsünde Aile, Aile Bireyleri ve Akrabalar // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 38.

nida maqollarda eshak obrazi ham o'ziga xos tazrda joy olganini ko'rishimiz mumkin. Otning yo'ldoshi, yuk tashib insonlarning kundalik turmushini qulaylashtiradigan, lekin ot singari zotdor bo'lmaganligi⁵⁸ bois turkiy xalq madaniyatida nasl-nasab kishilarni ifodalash maqsadida qo'llaniladi *Üç kurusluk eşeğin beş paralık sıpası olur* (A.Ö., 455) (Uch qurushlik eshakning besh chaqalik xo'tigi bo'ladi). Turmush qurish borasida, yoshlarga pand-nasihatlari berilgani singari ularning ota-onalariga ham yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi: *Çobana verme kızı, ya koyun güttürür ya kuzu. (Lafin azı, uzu çobana verme kızı, ya koyun güttürür ya kuzu)* (M.Y., 201). Bu maqol vositasida "teng-tengi bilan" tamoyilidan kelib chiqqan holda nasihat qilinmoqda. Ma'lumki, qiz bola o'z ota uyida ko'rgan, o'rgangan narsalar borgan joyiga moslashib ketishi uchun asos vazifasini bajaradi, ya'ni jamiyat ota-onaga "qizingni o'z oilangning turmush tarziga mos keladiganiga uzat" deya tavsiya bermoqda. Turmush qurishda yoshlarni ko'ngil ishlari, o'tkinchi hoy-u havas deb yengil qaramaslikka chaqiradi. Uning ortidan keladigan noxushliklardan ogohlantiradi: *Sevda geçer yalan olur, sonra sokar yılan olur* (A.Ö., 426) (Sevgi o'tar yolg'on bo'lib, keyin chaqar ilon bo'lib) Buni esa ilonning chaqishiga o'xshatadi⁵⁹. Umr yo'ldosh tanlash masalasida qizlar tanlash yoki fikr bidirish huquqiga ega emasligi, hatto kelin kuyovni to'y kuniga qadar ko'rmaslik holatlari tez-tez uchrab turishi haqida Deniz Guler va Nazmi Ulutak o'zlarining hammualliflikda yozgan maqolasi⁶⁰da to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari maqolada nikoh jarayoni haqida guvohlar kuyovning vazifalari haqida bayon qilinadi. Shariatga muvofiq ayollarga o'z mulklarini o'zlari xohlagandek sarflash huquqi berilganligiga qaramay, oilada er mutlaq hokimiyati amal qilishini ta'kidlaydi. Bu turk madaniyatidagi islomni qabul qilganidan keyingi jarayonlardagi holatlar. Lekin qadimda turk ayollari

⁵⁸ Doğan, L., Bayraktar, S., Türk Kültüründe ve Atasözlerinde Hayvanlarla ilgili İnanışlar // TKAE-Türk Kültürü Aylık Dergisi Nisan 2002. – s.468.

⁵⁹ Altinboyev N. Zoonimlar qatnashgan turk xalq maqollarida "oila" tushunchasi // Sharq xalqlari folklori – milliy qadriyatlar in'ikosi, Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2021. – 320-21-bb.

⁶⁰ Güler, D., Ulutak, N. Aile kavramının tarihsel gelişimi ve Türk toplum yaşantısında aile // Kurgu Dergisi, 11.sayı, 1992. – s. 60.

har sohada erkak bilan teng huquqli bo'lgan⁶¹. Juft tanlash turk madaniyatida davr va makonga xos tarzda o'zgarib turgan. Turk oilasi barpo bo'lishidagi endigi qadam sovchilik yoxud turkcha ta'bir bilan aytganda *kız isteme* marosimidir.

Kız istemek birikmasi "uylanish maqsadida ota-onasi yoki yaqinlaridan qizning qo'lini so'ramoq" ma'nosini beradi. "*Sen kızı kandıracaksın, sonra kaynananla gidip kızı isteyeceksin.*" – H.E. Adivar⁶² (Sen qizni avraysan, keyin qaynonang bilan borib, qizning qo'lini so'raysan). Qizning qo'lini so'rash udumi yigitlarning biror qizni yoqtirishi yoki ularning onalari xina kechasi (kına gecesi), to'y-marosimlari yoki hammomlarda, ya'ni ijtimoiylashuv sodir bo'ladigan maskanlarda yoqtirib qolishi natijasida ularning uylariga odam yuborish bilan boshlangan. Sharq madaniyatining yana bir oliy namunasi, yigitlarning otalariga uylanmoqchiman deb aytishga andisha qilganliklaridir. Bu holatda ona o'g'li va otasi o'rtasida "elchilik" vazifasini o'tagan. Yigitlar o'zlarining arz-u holini moniy orqali bayon qilganlar:

Hey hızara hızara

Dalda kirez kızara

Ana benim çağım geldi

Durma bana kız ara

Ushbu moniyning ma'nosi, "qaranglar, gilos pishibdi, onajon, mening ham vaqtim keldi, men uchun qiz izlang". Shundan so'ng yigitning otasi yoki amakisi, qishloqning old kishilari bilan qizning eshigini taqillatishgan. Qizning otasi, kelgan odamlarning maqsadini bilsa ham xush kelibsizlar, suhbat qurgani keldinglarmi? - deya so'raydi. Yigit tomondan kelganlar qizing qo'lini so'rashga keldik, deydi. Agar ularga qizlarini berishni xohlamasa, aybga buyurmang, og'alar, mening sotadigan qizim yo'q, qismatingizni boshqa ostonadan izlab ko'ringlar, deb qaytarib yuboradi. Agar berish istagi bo'lsa, daraxt bir urishda yiqilmaydi, qayta kelinglar o'ylashib ko'raylik, deydi⁶³. Qizning otasining ra'yiga muvofiq yigit taraf yana bir yoki bir necha bor keladilar. *Kız evi, naz evi* (M.Y.,

⁶¹ Gömeç, S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış // Aile Yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 7-8.

⁶² Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 1434.

⁶³ Ataman, S.Y. Eski Türk Düğünleri, Kültür Bakanlığı. – Ankara, 1992. – s. 12-13.

207) (Qiz uyi – noz uyi) maqoli shu holatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Qiz tomoni rozi bo'lgach, qalin belgilangan va **söz kesimi**, ya'ni tomonlar ahdlashuvi (o'zbeklardagi non sindirish) marosimi qilingan. Bu marosim, ya'ni *küçük düğün*⁶⁴ (kichik to'y)da *nişan yüzükleri* (belgi uzuklari) taqilgan va *nişanlı /adaklı* (belgili) hisoblanishgan. Bu marosimlar hozirda ham udum tariqasida saqlanib qolgan. Shundan keyin tomonlar kelishuviga muvofiq nikoh uchun tayyorgarlik boshlab yuborilgan.

Nikoh – bu oila qurish uchun erkak va ayolning birlashishi. Turk jamoalarida nikoh an'analarining ilk izlari Xunlar davriga borib taqaladi. Bu an'analar Ko'kturklarda va boshqa turk jamoalarida davom etgan. Turk tilida *evlenme*, *evlenmek*, *evlenmek barklanmak*, *evlendirmek* so'zlari ko'p qo'llaniladi va ularning barchasi turmush qurish, uyli-joyli bo'lish ma'nosini beradi. *Ev bark* juft so'zi *uy* va *oilani* anglatadi. O'rxun bitiklarida "bark" so'zi ibodatxona ma'nosida qo'llangan. Uylangan o'g'il yoki turmushga chiqqan qiz ota uyini (ocağını) tashlab, yangi oila va uy barpo qilganlar. Nikoh – jamiyat ongi va ko'z o'ngida ikki kishining birlashishining rasmiylashtirilishi hisoblanadi. Turklarda nikoh yigit va qizning umumiy irodasi bilan oilalarning o'zaro roziligiga bog'liq deb qaralgan. Turklar tashqaridan qiz olib, tashqariga qiz berganlar. Turk jamiyatida nikoh muhim burch hisoblanib, turmush qurmaslik sharmandalik holat sanalgan⁶⁵. Tabiiyki uylanmay yurgan yigit ham, turmushga chiqmayotgan qiz ham bu holatdan bezovtalik tuygan. Ba'zan yigitlar ro'zg'orni tebratish sababidan uylanishni ortga surishgan. Shu holat uchun *Nikahta keramet var* (M.Y., 208) (Nikohda karomat bor), *Allah evlenle, ev alana yardım eder* (M.Y., 199) (Alloh uylangan va uy olganga o'zi madadkor bo'ladi) qabilidagi maqollar orqali ularni uylanishga tashviq qilganligiga guvoh bo'lamiz. Yana ushbu maqollardan oila ilohiy ekanligi, unga Allohning o'zi madadkor ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Düğün so'zi, ya'ni to'y, qadimgi turkiy tildagi *tugmoq*, *boylamoq* so'zlaridan yasalgan bo'lib, *bog'lam*, *tugun*, *turmush*

⁶⁴ Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 490.

⁶⁵ Mandaloğlu, M. Ko'rsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s.489.

*qurish ahdi*⁶⁶ degan ma'nolarni anglatadi. Turk madaniyatida ham hozirgi globallashtgan dunyodagi singari to'ylar oilalarning iqtisodiy ahvolidan kelib chiqqan holda turli-turman ko'rinishlarda o'tkazilmoqda. Lekin xalq madaniyatiga singib ketgan urf-odat va an'analar Turkiyaning turli joylarida ozmi ko'pmi saqlanib qolgan va kunimizda ham davom etmoqda. Turk to'ylaridagi umumiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, qisman to'xtalib o'tamiz. To'ylar ertak va dostonlardagi singari uch kun davom etgan. Odatda, to'y juma kuni yigitning uyida davul (nog'ora) va zurna (surnay) sadolari ostida turli noz-ne'matlar pishirib, qarindosh-urug' va yaqinlar to'planishi bilan boshlangan. Shu kuni kechga yaqin qizning uyiga bir qo'y yoki qo'chqor bo'yalgan holda bezatilib yuborilgan. To'yning ikkinchi kuni asosan qiz uyida qizni *xina kechasi* uchun tayyorlash bilan o'tgan. Xina kechasi turli xil *turku* (turkiy qo'shiqlar), moniyalar va marsiyalar aytilib qiz yig'latilgan, keyin ko'p yig'lamasin uchun *halay* (turk milliy raqsi) boshlangan va o'yin-kulgu bilan davom etgan. Qiz uyiga kelgan yigit tomonga eshiklar yopib qo'yilgan, ulardan sovg'a yoki pul olganlaridan keyin ichkariga kiritishgan. Shu vaqt mobaynida turkular aytilgan va boshqa o'ziga xos marosimlar o'tkazilgan. Uchinchi kun qizning uyidan kuyovning qarindoshlari kelinning beliga qizil belbog' bog'lab, yana bir qator udumlarni o'tkazib olib chiqadilar. Yigitning uyiga kelganida kelin uyga orqa bilan kiradi, buning ma'nosi ota uyidan qizil belbog' bilan chiqib, bu uydan kafan bilan chiqsin, ya'ni umrbod qolsin, deganidir. Yuqorida nomi keltirilgan urf-odat va marosimlar: *kız isteme* (qizning qo'lini so'rash), *söz kesme/nişan* (non sindirish) va *nikah / düğün* (nikoh / to'y) oila institutini tashkil qiluvchi omillar hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga xos an'ana va udumlarni talab qiladi.

Qadimgi turk jamiyatida turmush qurish uchun yigit va qizning roziligidan tashqari ota-onaning ham roziligi talab qilingan, shuning uchun erkak tomoni bo'lajak kelinning oilasiga talabgor bo'lib boradi. Sovchilik (*kız isteme*) marosimida jamiyatning ko'zga ko'ringan, obro'li kishilari hozir bo'lishi muhim hisoblangan. Bu odamlar ikki oila yoki ikki yoshning o'zaro kelisha olishlari muhim

⁶⁶ <https://www.etimolojiturkce.com/kelime/d%C3%BC%C4%9F%C3%BCn>

rol o'ynagan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida bu jarayondagi vositachilar bilan bog'liq turli atamalarni keltirib o'tgan. Bu so'zlar ichida "sawçı" (sovchi) qarindosh-urug' va qudalar o'rtasidagi elchi; "yorıqçı" (yo'riqchi) qarindoshlar, qudalar orasida kelib-ketuvchi odam; "arkuçı" – ikki kishi o'rtasidagi vositachi; sovchilik jarayonida qudalar orasida kelib-ketadigan odamni anglatadi⁶⁷. Sovchi yoki yigitning otasi bo'lajak kelinning otasidan yoki akasidan "Tangrining amri bilan" deya so'raydi. Qadimgi turk oilasida mutlaq hokimiyatga ega bo'lsa-da, otasi qizining roziligisiz erkak tomoniga hech qanday javob bermagan⁶⁸. Bu qadimgi turk madaniyatida oilada qiz bolaning xohish-istaklari inobatga olinganidan darak beradi.

Onadolu va O'rta Osiyoda nikoh asosan qalin kelishuvidan keyin qizning uyida o'qilgan. Nikoh o'qishdan oldin qalin va sarpo miqdorlari belgilab olingan. Nikoh paytida suv ichish va soqol kesish kabi islomiyatdan oldingi urf-odatlar ham bajarilgan. Ba'zi turk jamiyatlarida er-xotin turmushi birinchi farzand tug'ilgandan so'nggina nikoh jarayoni yakunlangan deb hisoblangan⁶⁹. Ko'kturk yodgorligida uylanish uchun qiz tomonga beriladigan pul yoki mol-mulk shaklidagi badal – qalin deb atalgan. Mahmud Koshg'ariy devonida ham ushbu so'z "*Kalinğ*" deb keladi⁷⁰. Qalinni to'lashga qurbi yetgan kishi qizni olib ketishga haqdor bo'lgan. Ya'ni erkak ayolni oladigan kuch-qudratga ega ekanligi qalin orqali isbotlangan. Shu sababli maqollarda *olmoq* fe'li asosan erkaklarga qarata murojaat, buyruq ohangida keltiriladi. *Alma soysuzun kızını, sürer gider anasının izini* (M.Y., 199) (Nasli buzuqning qizini olma, onasining izini (ishini) davom ettiradi) maqolida uylanish chog'idagi yigit, u orqali ota-onasi ogohlantiriladi. Kelin olishda oilasi o'ziga to'q, nasl-nasabli odamlar bo'lishiga diqqat qaratilgan *Al görmüşün kızını, tutsun dolana dolana; al görmemişin kızını, tutsun ilene ilene* (M.Y., 199) (Ol ko'rganning qizini, turmushni tebratsin

⁶⁷ Kaşgarlı Mahmud, Divani Lugati-t Türk // Türk Dil Kurumu Yayınları. – Ankara 1992. – C.III, s. 154, C.II, s.51, C.I, s.141,

⁶⁸ Mandaloğlu, M. Ko'rsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022, 489.s.

⁶⁹ Öztürk, M. İslamiyetten Önce Türklerde Aile ve Kutadgu Bilig'de Türk Ailesi, Prof. Dr. Abdulkadir Yuvalı Armağanı, Cilt 2, s. 899-913, Kardeşler Ofset. – Kayseri, 2015. – s. 902.

⁷⁰ Eröz, M., Güler, A. Türk Ailesi, Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları. – Akara, 1998. – s. 13.

aylana o'rgila, ol ko'rmaganning qizini turmushni tebratsin elana elana). Ko'rgan va ko'rmagan sifatdoshlari orqali o'ziga to'q va nochor kishi obrazlari ko'rsatilgan. Shuningdek, turk xalqida kelin sarposiga ham ahamiyat qaratilgan. Turk tilida *çeyiz* (sarpo) so'zi xalq madaniyatida oilaviy munosabatlar, oila konsepti tarkibidan joy olgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Sarpo tushunchasi maqollarda ham uchrashi turk madaniyatida qadimdan borligidan dalolat beradi: *Kız beşikte çeyiz sandıkta* (A.Ö., 362) (Qiz beshikda, sarposi sandiqda). Shuningdek, maqolda keltirilgan *beşik* (beshik) so'ziga ham to'xtalib o'tsak. Beshik turk tilining izohli lug'atida "taxta yoki temirdan yasalgan, chaqaloqni tebratib uxlatishga mo'ljallangan yotoq"⁷¹ ta'rifi keltiriladi. Majoziy ma'noda esa, biror narsaning dunyoga kelib rivojlangan joyini anglatadi. Beşi – tebratmoq fe'li va -k ot yasovchi qo'shimchadan yasalgan so'zdir⁷². Beshik nafaqat turk madaniyati, balki turkiy madaniyatning eng qadimgi meroslaridan biri hisoblanadi. U bilan bog'liq marosimlar, udumlar buning dalilidir. Beshik so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar esa mazkur tushunchaning xalqlarning lisoniy manzarasidan ham chuqur joy olganligidan darak beradi. *Beşiğini sallamak* – beshigini tebratmoq iborasi turk tilida biror kishini kichikligidan tanimoq, juda uzoq paytdan beri tanimoq yoki ulg'ayishida xizmat qilmoq ma'nolarini beradi. *Beşikten mezara kadar* – beshikdan to qabrgacha iborasi esa butun umri mobaynida, hayoti davomida ma'nolarini anglatadi. *Beşik kertiği* chaqaloqlarni beshikdalik payti unashtirib qo'yilgan kishilar uchun qo'llanilsa, *beşik kertme* birikmasi esa chaqaloqlarni beshikdalik payti unashtirib qo'yishni bildiradi. Beshik va u bilan bog'liq urf-odatlar turkiy xalqlar orasida o'ziga xoslik kasb etadi. Turk madaniyatida sekin-astalik bilan beshik o'z o'rnini tebranma yotoqchalarga bo'shatib bermoqda. Yo'qolib borayotgan beshik an'analari va udumlarini Professor Fatma Yildirmish o'zining maqolasida⁷³ atroflicha yoritib bergan.

⁷¹ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 317.

⁷² Koshenova, G. Kazakistan ve Türkiye'deki Ahşap Beşiklerin Tarihi Sanatsal Özellikleri, KMÜ Sosyal ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi 16 (Özel Sayı II): 2014. – s. 155.

⁷³ Yıldırımış, F. Trabzon'da Kaybolan Bir Kültür Ögesi: Geleneksel Ahşap Beşik // Mavi Atlas, 5(2)/2017.

Turk maqollarida oila mavzusi tahlil qilinar ekan, bu madaniyatning asosini qishloq, shahar chetidagi oila hayoti tashkil qilgan. Birinchidan, maqollarning paydo bo'lish davri va zamonaviy oila hayoti bir-biriga mos kelmasa, ikkinchidan, qishloq joylardagi oila hayoti, turmush tarzi maqollar yaratilgan davrnikidan katta farq qilmaydi. Shunday tadqiqotlardan biri, Turkiyada oila madaniyati⁷⁴ deb nomlanadi. Unga ko'ra turk madaniyatida oilaviy munosabatlar ikki yo'sinda o'rganish maqsadga muvofiq. Gorizontol, ya'ni er va xotin orasidagi munosabatlar, bunda ularning tenglik tamoyiliga tomon harakati, oilada ayol statusining shaharlashuv jarayonida, sanoatlashuv natijasida moddiy-ma'naviy erkinlashuvi nazarda tutilsa, vertikal yo'nalishda nasllar o'rtasidagi munosabatlar tadqiq va tahlil qilinadi: masalan, ota-ona va farzandlar, ularning ham farzandlari singari. Ota-ona va farzand o'rtasidagi bir-biriga muhtojlik vaqt mobaynida o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi, ya'ni avval farzand ota-onaga muhtoj, tobe bo'lsa, keyin farzand voyaga yetganidan keyin rollar o'zgaradi. Oilaning moddiy ta'minoti madaniyatda ham o'z aksini ko'rsatgan. Oila a'zolarining bir-birining ehtiyojlarini qarshilashi ijobiy qadriyat sifatida qaralgan. Bunday hamjihatlik, ota-onasiga hurmat-e'tibor sharoitida ulg'aygan o'g'il ota-onasini tashlab ketmaydi, alohida uy solib chiqib ketsa ham, ma'naviy va moddiy yordamini ota-onasidan ayamaydi. Turk madaniyatida o'g'il farzand ota-onaning keksalik chog'idagi tayanchi hisoblangan va shuning uchun ham o'g'il farzandga katta e'tibor berilgan. O'g'il ulg'aygach otasiga moddiy dastak bo'lishi kutiladi. Bu jihatdan ona eridan ko'ra o'g'lidan ko'proq moddiy dastak kutadi, bu uning iqtisodiy jihatdan qaramliligini ko'rsatadi⁷⁵, chunki ayol asosan uyda qolgan va uning daromad manbayi bo'lmagan, ta'minoti faqat eri tomonidan amalga oshirilgan.

Oila konseptining leksik sathda qanday so'zlar yordamida verballashuvi – hissiyot yoki fikrlarning so'zlar yordamida ifodala-

⁷⁴ Kağıtçıbaşı, Ç. Türkiye'de aile kültürü, çağdaş kültürümüz // Olgular – Sorunlar kitabından, 1991.

⁷⁵ Kağıtçıbaşı, Ç. Ko'rsatilgan asar, 1991, 52.s.

nishini⁷⁶ ko'rib chiqamiz, ya'ni oila so'zi turk tilida yana qanday so'zlar, o'xshatishlar orqali ifodalanishini o'rganamiz.

Oila er-xotin markazda, ularning atrofida yaqinlari joy oluvchi jamiyatning eng kichik birligi, qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan jamoadir. Boshqa tomondan nikoh, turmush qurish orqali paydo bo'lgan yangi oila faqatgina erkak va ayolni bir-biriga bog'lab qolmasdan, har ikki tomonning oilalari o'rtasida yangi va o'ziga xos aloqa o'rnatish orqali ijtimoiy birdamlik, samimiy munosabatlar va tinchlikka xizmat qiladi. Musulmon jamiyatlarida oila va davlat o'zaro birga izohlanadi, ya'ni har bir oila tuzilish jihatidan kichik davlatdir, davlat esa o'sha millatning katta oilasidir⁷⁷. Qadimgi turklarda davlat tuzilmasining asosini kuchli qo'shin va oila tashkil qilgan. Xunlardan boshlab turklar oila tuzilmasini mustahkam muhofaza qilishga ahamiyat qaratganlar. Xun davlatida oila kuchini yo'qotishi urushda mag'lubiyatga uchrash bilan teng ko'rilganligini⁷⁸ yozadi Dr. Mandalog'lu. Biroq oilaga ta'rif berish borasida sotsiolog va antropolog olimlar qarashlarida mutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Chunki oilaning shakli va uning mexanizmi turli jamiyatlarda o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Hatto bir jamiyat ichida hududlarga nisbatan ham farqlilikni ko'rish mumkin bo'ladi. Oila instituti va tushunchasi sotsiolog olimlar tomonidan bir qator kategoriya va sinflarga ajratilib tadqiq qilingan bo'lib, ular: *yadro oila* (er-xotin va farzand(lar)), *katta oila* (er-xotin, farzandlar, erkakning ota-onasi), *avtoritar oila* (oila yadrosining tartib-intizomiga asoslangan oila), *mexanizmini yo'qotgan oila* (er-xotin o'z vazifa va mas'uliyatlarini bajarilmaydigan yoki ajrashgan, buzilgan, er yoki xotin vafot etishi natijasida yuzaga chiqqan oila) kabilardir⁷⁹. Turklarda katta oilalar kichrayib, er-xotin va ularning bir yoki ikki farzandidan iborat yadro oila turi ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Lekin hozirgi zamonda ham Turkiyaning ayrim hududlarida bir tom ostida o'n

⁷⁶ Verbalize, Oxford Advanced Learner's Dictionary // Eighth edition, Oxford University press, – England, 2012. – p. 1173

⁷⁷ Köse, S. Aile va Akrabalık (İslam'da)

<https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile-ve-akrabalik-islamda>

⁷⁸ Mandalog'lu, M. Ko'rsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s.483.

⁷⁹ Altuntek, S. Aile va Akrabalık

<https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile-ve-akrabalik>

ikki nafargacha farzandli oilalarni (asosan, kurd oilalarda) uchratish mumkin⁸⁰.

Biror bir xalqni, millatni yaxshi anglash uning ijtimoiy tuzilmasini yaxshi o'rganib chiqishni taqozo etadi. Turk millatining ijtimoiy holatini o'rganish uchun eng ishonchli usul turk yozma manbalariga murojaat qilamiz. Ushbu manbalarining boshida, albatta, Ko'kturk yodgorliklari keladi, chunki Ko'kturk davlat tashkiloti va ijtimoiy tuzilmasi o'zidan keyingilar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'kturk yodgorliklarida turklarning ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi quyidagi atamalarni uchratamiz: *oğuş* – oila, *urug* – oilalar birlashmasi, *bod* – urug', qabila, *bodun* – qabilalar ittifoqi, *il* – mustaqil jamiyat, davlat⁸¹. Qadimgi turklarda davlat boshqaruvchisi bo'lgan Xoqonlar xalqqa murojaat qilganida o'ziga yaqin insonlardan boshlab, "...oğlanım, oğuşum..."⁸² tarzida nutq irod qilganlar. *Oğuş* so'zi ko'kturkcha lug'atida oila; "Devoni lug'otit turk"da *oymak* – qarindosh, xesh⁸³ ma'nolarida keladi.

Hozirgi kunga kelib, turk tilida oila atamasi arab tilidan o'zlashgan *aile* so'zi bilan ifodalanadi. Turk tilining izohli lug'atida *aile* so'zining oltita ma'nosi keltiriladi⁸⁴. Birinchisi, turmush qurish yoki qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, er, xotin, bolalar, aka-uka (opa-singil)lar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan jamiyat ichidagi eng kichik birlik: *Birbirlerine nasıl turkun, yangın bir aile olduklarını sayıp döktü.* –L.Tekin (Bir-birlariga qachalik mehribon, inoq oila ekanliklarini og'zini to'ldirib gapirdi). Ikkinchi ma'nosi esa, bir nasl yoki qarindoshlik rishtalari bo'lgan kishilarning hammasi: *Kendilerinin hangi asil aileye mensup olduklarını bilmiyorum.* –N.Hikmet (U kishining qaysi aslzoda oiladan ekanliklarini bilmayman) nazarda tutadi. Uchinchi ma'nosi, birgalikda istiqomat qiladigan qarindoshlar va yaqinlarning barchasi bo'lsa, to'rtinchisi turmush o'rtoq, xotin

⁸⁰ Evason, N. Family. 2019. <https://culturalatlas.sbs.com.au/turkish-culture/turkish-culture-family#turkish-culture-family>

⁸¹ Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s.3.; Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 483.

⁸² <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>

⁸³ <https://www.turkcenindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>

⁸⁴ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 57.

degan ma'noni beradi. Beshinchi ma'nosi bir g'oya ostida birlashgan va birga ishlaydigan kishilar jamoasi. Oltinchisi umumiy xususiyatdagi til, hayvon yoki o'simlik guruhlari, familyasi. Shuningdek, oila ichi munosabatlar va oilaga oid tushunchalarni ifodalovchi bir qator birliklar ham aile so'zi yordamida yasalganligini ko'rishimiz mumkin. *Ailece* va *ailecek* so'zlari "barcha oila a'zolari bilan birga" degan ma'noda qo'llaniladi. Masalan, "*Evimizi, evimizde ailece birlikte yapılan çok şeyi özlüyorum*". – A. Ağaoğlu (Uyimizni, uyimizda birgalikda oilaviy qiladigan ko'p ishlarni qo'msayapman). Aile hayati deyilganda esa, oila qonun-qoidasi, tartibi doirasida o'tadigan hayot, umr, oila bo'lib yashash tushuniladi: "*Bütün mahalle halkı aile hayatını kontrol ederdi*". – F.R. Atay (Butun mahalla aholisi oila hayotini nazorat qilib turardi). *Aile ocağı* esa, majoziy ma'noda qo'llanilib, oila a'zolari-ning o'zaro inoqlik, mehr-muhabbat ichida yashab-ulg'ayadigan muhitni anlatadi: "*Neşeli, memnun bir aile ocağı vücuda getireceğiz*". – H.C.Yalçın (Quvnoq, mamnun oilaviy muhit yaratamiz).

Yuqorida bayon qilganimizdek, oila – turmush qurish va qon-qardoshlik rishtalari orqali bog'langan qarindoshlar guruhidir. Turklar butun dunyoga tarqalib ketganligiga qaramay, oila tuzilmasiga katta ahamiyat bergan va buning isboti esa turk tilida boshqa xalqlarga nisbatan ko'p qarindosh-urug'chilik atamalarini borligidir⁸⁵. Turmush qurish orqali oilani tashkil qilgan yoki kengaytirgan kishilar quyidagilardir: *gelin, güvey, içgüvey, damat, karı, koca, kayınpeder, kaynana, kayınbirader, görümce, kayın, baldız, enişte, yenge, elti, bacanak, dünür, kuma, dul*. Qon-qardosh bo'lgan qarindosh nomlari: *baba, anne, çocuk – kız, oğul, ağabey, erkek kardeş, abla, kız kardeş, amca (emmi), hala, dayı, teyze, kuzen, yeğen, dede (babababa, annebaba), nine (babaanne, anneanne), torun, üvey anne, üvey baba, üvey çocuk*.

Turk tilida oila tushunchasi haqida gap ketganida **ocak, yuva** so'zlari ham qo'llaniladi. Ocak so'zining etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, birinchi galda "otash, olov" demakdir. Keyinchalik bu olovning ya'ni o'choqning issiqligi, tafti uyga va

⁸⁵ Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış // Aile yazıları / 7, Birinci baskı – Ankara, Aralık 2015. – s.3.

oilaga o'tgan, shu tariqa yangi ma'nolar kasb etgan⁸⁶. O'choq turk madaniyatida uy burchagidagi ovqat pishirish va uyni isitish uchun bir vosita bo'libgina qolmasdan, butun uyni, oilani o'zida namoyon qiladi. Turmush qurish esa "so'nmas olov yoqish" demakdir. Uyga kelgan kelin "uyni yoritadigan olov"ga o'xshatilgan. Olovning so'nishi oilaning yo'q bo'lib ketishini anglatgan. Turklar uylar mo'risiz, pechlar tutunsiz bo'lmasligiga katta ahamiyat qaratgan. Shuning uchun turmush qurishni ham o'choq yoqishga qiyoslagan. Kelin bo'lajak erining uyiga kelganida, o'choq bilan bog'liq bir qator marosimlar o'tkazilgan. Kelin yangi uyidagi olov ustiga moy(yog') tashlagan. Bu marosim uyga baraka va omad olib keladi va olov kasalliklardan himoya qiladi, deb ishonishgan. Turmush qurish 'o'choqqa olov yoqish" sifatida qaralgan. *Güvey* (kuyov) uylangan ayolini, bo'lajak xotinini otasining o'chog'iga olib bormagan, o'zi ham xotinining o'chog'iga bormagan. Qadimgi turklarda ichkuyovlik bo'lmaganidek, kuyov uyida kelinlik ham bo'lmagan. Yangi turmush qurganlar yangi uy – oila qurishgan, kenja o'g'il otasining uyida qolishda davom etgan. Kichik o'g'il ota o'chog'ini yoqqangligi uchun "ot tigin" deb atalgan⁸⁷. *Ocak* so'zining turk tili izohli lug'atida o'n bir ma'nosi keltiriladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi ma'nolari aynan o'choq, pechka va gaz/elektr plitasini anglatga, to'rtinchi ma'nosi ishxona, tashkilotlarda choy, qahva tayyorlanadigan joy, beshinchi ma'nosi kon, oltinchisi o'ra, yettinchisi bir g'oya ostida birlashganlar yig'iladigan, ishlaydigan joy, sakkizinchi yanvar oyi, to'qqizinchi tarixda ishlatilgan birlik bo'lib, yanicharlar tashkilotidagi qarorgohlarning har biri *ocak* deb yuritilgan. O'ninchi ma'nosi aynan uy, oila, nasl ma'nosida ishlatiladi: "*Henüz temelleri atılmayan kendi ocağım kurulmadan yıkılmıştı*". – A.Gündüz (Hali tamal toshi qo'yilmagan o'z uyim qurilmasdan yiqilgan edi). O'n birinchi ma'nosi *tabib oilasi* degan ma'nosida qo'llaniladi. *Ocak* so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar ham oila bilan bog'liq ma'nolarni bildiradi. Ushbu iboralar odatda salbiy ma'no tashiydi.

⁸⁶ Mamegasanova A.A., Farkli toplumların dil dünya görüşü bağlamında 'ev', 'aile', 'ocak' konseptleri // Kültürdilbilim: temel kavramlar ve sorunlar. – Ankara, 2014. – s.138.

⁸⁷ Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 492.

Xususan, *ocağı batmak* iborasi oilasi parchalanmoq yoki nasli tugamoq ma'nosini bildiradi. *Ocağı kör kalmak* iborasi nasli tugamoq, naslini davom ettiruvchi farzandi bo'lmaslik ma'nosini beradi. *Ocağı sönmek* iborasi oila parchalanmoq, yo'q bo'lmoq, bola-chaqasi yo'q bo'lmoq degani: "*Aşk tuzakları birçok ocakların sönmesine sebep olmuştur*". – F.R.Atay (Ishq tuzoqlari ko'plab oilalarning parchalanishiga sabab bo'ldi). *Ocağı tütme*k iborasi ijobiy xususiyatga ega bo'lib, nasli davom etmoq, hayoti davom etmoq ma'nolarida qo'llaniladi. *Ocağına incir dikmek* yoki *ocağına darı ekmek* iborolari biror kishining oilasi buzmoq ma'nosida qo'llaniladi: "*İhmal bütün ocaklara incir diker*". – Ö.Seyfettin⁸⁸ (Loqaydlik barcha oilalarni vayron qiladi). Anjir ekmoq yoki don ekmoq aslida ijobiy ish sanaladi, lekin ocağına ya'ni o'chog'iga anjir yoki don ekish salbiy ma'noda keladi.

Yuva so'zining ham turk tili izohli lug'atida sakkizta ma'nosi bo'lib, birinchi ma'nosi qush yoki boshqa hayvonlarning ini, uyasi va boshpanasi demakdir. Ikkinchi ma'nosi esa odatda oilalar istiqomat qiladigan uyni anglatadi: "*İnsanın kendi yuvasından daha sıcak ... ve samimi hiçbir yer olmazdı*". – S.F.Abasıyanık (Insonning o'z uyidan o'zga issiqroq... va samimiyroq hech bir joy yo'q edi). Qolgan ma'nolari bolalar bog'chasi, kimsasizlarga boshpana, ta'lim maskani, bir narsa uyum/ ko'p bo'lgan joy bo'lib, ularning oila yoki uyga aloqasi yo'q, lekin *yuva* so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar ham oila bilan bo'g'liq tushunchalarni anglatadi. Xususan, *yuva kurmak* "uyulanmoq, turmush qurmoq" ma'nosini beradi: "*Aşıksak, aşık olduğumuz gençle, yalnız onunla bir yuva kurmak istiyorsak, o kapı da her şeye karşın hala ve hep açıktı*". – A.Ağaoğlu (Oshiq bo'lsak, ko'ngil qo'ygan yigit bilan, faqat u bilan turmush qurishni xohlayotgan bo'lsak, u eshik har narsaga qaramasdan hamon va hamisha ochiq edi). *Yuva yapmak* iborasi ham uyulanmoq, turmushga chiqmoq ma'nolarini beradi: "*Halbuki genç kızla yuva yapmak, ölünceye kadar bahtiyar yaşamak için...*" – Ö.Seyfettin (Vaholanki bo'y qizga uyulanish bir umr baxtiyor yashash uchun...). *Yuvayı bozmak, dağıtmak, yıkmak* iborolari oilani buzmoq, parchalamoq ma'nolarida qo'llaniladi: *Yuvayı*

⁸⁸ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011, 1786.s

yapan da yıkan da dişi kuştur (M.Y., 210) (Uyani quradigan ham, buzadigan ham moda qush bo'ladı). *Yuvayı yürütmek* iborasi esa oilani tebratmoq ma'nosini anglatadi: "*Yuvayı kurma, yuvayı yürütme sorumluluğu yine benim üstümdeydi*". – C.Uçuk⁸⁹ (Uy qurish, oilani tebratish javobgarligi yana mening zimmamda edi).

Turk madaniyatida oila uchun uy, xonadon, o'tov nechog'lik muhim bo'lsa, bu maskanlarga kirish – ostona (**eshik**) ham shu darajada ahamiyatli hisoblanadi. Qadimda turklar o'zlari istiqomat qiladigan maskanni muqaddas deb bilganlar. Shu sababli jamiyat va davlat asosini tashkil qilgan oilaning kundalik hayotini kechiradigan joylar ham ular uchun aziz bo'lgan. Bu muqaddas makonga kirish uchun hamma avvalo eshikdan yoki ostonadan o'tishi lozim. Ostona ularning dunyosining yoki hayotining boshlang'ich joyi hisoblangan. Tarixda turklarning e'tiqodlariga ko'ra insonlarni, oilani va millatni nazorat qilib turadigan malaklar bor deb ishonishgan. Haq dinlarda bunday malaklar insonlarning o'ng va chap tomonida joy olganliklari singari qadimgi turklarning eshiklari yoki ostonalarining o'ng va chap tarafida poyloqchilik qilishiga ishonganlar⁹⁰. Shundan kelib chiqqan holda, o'sha muqaddas mavjudodlarni ranjitmaslik yoki bosib olmaslik uchun qadimda va hozirgi kunda turklar uylariga kirishda ostonani bosib olmaslikka harakat qiladilar.

Til, madaniyat va inson uchligini birgalikda o'rganish zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining, ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslikning asosini tashkil qiladi. Antroposentrik – inson markazli paradigma xalqlarning madaniyatiga kirib borishda tilshunoslar uchun yangi "eshik" vazifasini bajarmoqda. Bu eshikning asosiy "kaliti" esa konsept hisoblanadi.

Konsept insonni va tabiatni o'rganuvchi har bir fan sohasining asosiy terminlaridan biri hisoblanadi. Uni matematikadan tortib psixologiyagacha, sotsiologiyadan tilshunoslikkacha bo'lgan har bir fan sohasida uchratish mumkin. Biroq lingvomadaniyatshunoslik uchun har qanday emas, balki aynan madaniy konsept

⁸⁹ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011, 2619.s

⁹⁰ Gömeç, S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış, Aile Yazıları / 7, Birinci baskı, Ankara: Aralık 2015, 8.s.

asosiy o'rinda turishini unutmaslik lozim. Chunki xalqlarning madaniyati tildagi madaniy konseptlardagina namoyon bo'ladi.

Oila instituti asosan jamiyatshunoslikning o'rganish obyekti bo'lishdan chiqib, hozirgi kunda insonni o'rab turgan har qanday sohaning – tibbiyot, psixologiya, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lib ulgurdi. Chunki har qanday masalaning yechimi oilaga borib taqaladi. Qadimgi turklar kuchli davlat faqatgina kuchli va sog'lom oila bilan tuziladi, oilalar parchalansa, davlatning ham zalolatidan darakdir, deganlar. Shu sababli ham har bir soha oilaning o'zlari qiziqtirgan va yechimini izlayotgan tomoni tadqiq qilish bilan ovoralar. Lingvomadaniyatshunoslik fani ham bu borada oilaning xalqlar madaniyatida tutgan o'rnini freymalar, geshtalldlar, madaniy konseptlar orqali o'rganishga va muammoli vaziyatlarning yechimini topishga harakat qilmoqda. Eng qadimgi xalqlardan biri turkiy xalqlarning dunyo sahnasida yo'qolib ketmasdan, hamisha o'z so'ziga ega ekanligi, kuchli davlatchilik qudrati bilan bu sahnada mustahkam o'rin olganligining bosh omili oila ekanligini izlanish natijasida bilib olmoqdamiz. Xalq madaniyatining minglab yillar davomida to'plagan tajribasi natijasi hosilasi sifatida paydo bo'lgan maqollarda ham oilaning bir qator jihatlari ko'zga tashlanadi. Oila konsepti bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ular har tomonlama yoritilgan.

Turk maqollaridagi oilaning qadriyat sifatlarini belgilovchi beshik, sarpo, qalin, uylanish, tumushga chiqish, sovchilik kabi birliklar aniqlandi va tahlilga tortildi. Ushbu tushunchalarning barchasi oila konseptining kichik, ammo muhim parchalari ekanligi ma'lum bo'ldi.

Turk madaniyatida oila qadimda og'ush deb atalgan bo'lib, keyinchalik arab tilidan kirib kelgan *aille* so'zi orqali ifodalangan. Turk madaniyatida oila konsepti singari kishilar yashaydigan bino va uning tarkibiy qismi bo'lgan uyni anglatga, ba'zi maqollarda uyning ostonasi, hatto, uning issiqligi va taomlarini tayyorlashda qo'llaniladigan o'choq timsolida ifodalanadi. Oila deyilganda nafaqat uy, balki xonadon ahli ham nazarda tutilishi aniqlandi. Shuningdek, in-uya kabi majoziy so'zlar ham oilani bildirib kelishi lug'atlar vositada aniqlandi.

TURK MAQOLLARIDA *ERKAK* OBRAZINING TALQINI

Turk maqollarida erkak obrazining qadriyatga oid komponentlari

Qadriyatlar millatning madaniyati va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi natijasida vujudga kelgan moddiy va ma'naviy merosning ifodasidir. "Qadriyat" falsafiy tushuncha sifatida uzil-kesil qaror topgunga qadar turli tarixiy davrlarda u "boylik", "farovonlik", "baxt", "baxtiyorlik" tushunchalari orqali ifodalaganlar⁹¹. Turk madaniyatida oila eng katta qadriyat hisoblanadi. Oila turk xalqining kuch-qudrat markazini tashkil qiladi va turk davlatining eng kichik namunasi hisoblanadi⁹². Kuchli davlatlar va qudratli qo'shinlar ortida kuchli va mustahkam oila turadi. Buni millat madaniyatining durdonasi hisoblangan maqollar, matallar, hikmatli so'zlar orqali yaqqol ko'rish mumkin. Maqollarda er kishining xislatlari obrazli va baholovchi (qadriyatga oid) tarzda konseptuallashadi. Konseptuallashuv biror fikr, tushunchaning inson ongidagi shakllanishi, obrazlar holida paydo bo'lishidir⁹³. Maqollarda erkak obrazi oila ichida qanday qadrlanishi va qaysi obrazlarda namoyon bo'lishi mazkur bo'limda ko'rib chiqiladi.

Oila ota-ona va farzandlardan tashkil topgan jamiyatning eng kichik, ayni vaqtda eng muhim birligi hisoblanadi. Turk xalqi lisoniy manzarasida **oila** er, xotin va boladan tashkil topgan *çekirdek aile* (yadro oila) va barcha qarindoshlarni ifodalovchi *geniş aile* (katta oila) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Har ikkala turdagi oilani erkak va ayol modellari orqali izohlash mavzu tafsilotlarini yorqinroq tarzda ko'rish imkonini ta'minlaydi. Tadqiqotimizda turk madaniyatidagi yadro oila – er-xotin (ota-ona) va farzandlar ishtirok etgan maqollar tahlilga tortilgan.

⁹¹ Қамбаров А.А., Қадриятлар тадқиқининг концептуал асослари ва ривожланиш босқичлари // Ilm sarchashmalari, 4.2021. – Urganch, 2021. – 36 б.

⁹² Mandaloglu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi 4, sy. 8 (Temmuz 2022): 481-98. <https://doi.org/10.53718/gttad.1067665>.

⁹³ Conceptualize, Oxford advanced learner's dictionary, 8th edition, Oxford University press, England – 2012, p. 309

Madaniyatning antroposentrik metaforada aks etishi turli-tuman tarz va ko'rinishlarda, shakllarda namoyon bo'ladi. Insonning kayfiyati, maqsadi, jismoniy va ruhiy holati, intilishlari, orzu-maqсадlari kabi ichki, tabiiy-jo'g'rofiy, iqtisodiy, diniy yoki mifologik muhit esa tashqi mushtarak omillar sifatida uning ongida metaforik baholarning vujudga kelishini ta'minlaydi⁹⁴. Buni xalq og'zaki ijodi namunalarida, xususan, maqollarda yaqqol ko'rish mumkin.

Maqollar har bir xalq madaniyatida muhim o'rin tutadi. Maqollarga oid jamlanma asarlar o'rganilsa, tug'ilishdan to o'lingacha hayotning har bir sohasi haqida aytilgan ko'plab maqollarga duch kelamiz. Turk tilida ham oilaga oid maqollar juda ko'pchilik (mingga yaqin)ni tashkil qiladi va hayotiy tajribalar mahsuli bo'lgan maqollarni bugungi kun kishilariga yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan "donishmand maktabi" deb atash mumkin. Maqollarga shu kungacha qadar ko'p va xo'p ta'riflar berilgan. Masalan, "qanotli so'z", "nasihat", "javohir so'z", "ibratli so'z", "oltin so'z", "tilning bo'stoni", "xalq maktabi", "xalq hikmati", "ruh tabibi", "aqlning ko'zi" kabi juda ixcham iboralar bilan ataladi⁹⁵. Umuman, xalq og'zaki ijodi va bu adabiyotni tashkil etuvchi janrlar ham shakliy, ham ichki tuzilish jihatidan butun bir xalqning his-tuyg'ularini, fikr-mulohazalarini, hayotiy qarashlarini ifodalaydi. Ushbu janrlar yaxlit fikrlay oladigan, baholay oladigan va voqealarni yo'naltiruvchi tushunchaga ega bo'lgan donolikning mahsuli⁹⁶ hisoblanadi. Bunday asarlar jamiyatning dunyoqarashi, didini ifodalash, jamiyatning psixologiyasi, xarakteri va asosiy ruhiy tuzilmalarini o'rganish, xulosalar chiqarish jihatidan nihoyatda qimmatlidir⁹⁷. Ifoda qudrati va nutqdagi jozibasi bilan maqollar o'sib ulg'ayib kelayotgan avlodning shaxsini kamol toptirishda, shaxs bo'lib yetishishida oila, ona, ota, ayol kabi tushunchalarning o'rni va rolini didaktik usulda taqdim qiladi. Maqollar ba'zan yoshi ulug' insonning yoshlarga pand-nasihatini, ogohlan-

⁹⁴ Насруллаева Г.С. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти // Филол. фан. б. фалс. фан. (PhD) д-ри дисс. – Фарғона, 2019. – 96 б.

⁹⁵ Çobanoğlu, Ö. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: AKM Yayınları, 2004. – 3.s.

⁹⁶ Öztürk, A. Türk Anonim Edebiyatı. – İstanbul: Bayrak Yayıncılık, 1986. – 9.s.

⁹⁷ Akbalık, E. Ko'rsatilgan asar. – Nisan 2013. – 81.s

tirishi mazmunida ifodalansa, ba'zan erkak kishining boshqa jinsdoshiga yo'l-yo'riq ko'rsatishini, ta'qiqlar haqida xabarini beradi, ba'zan esa ayol kishining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda uning tilidan er, oila va farzandlar to'g'risida bayon qilinadi.

Turk xalqi maqollariga nazar tashlar ekanmiz, erkak kishiga oila qurish oldidan ham, oila qurganidan keyin ham moddiyat ta'minotchisi sifatida qarash borgilini his qilasiz. *Bekarın boynunu bit yer, tutup biriktirdiğini it yer, Bekarın parasını it yer, yakasını bit* (M.Y., 201) (Bo'ydoqning pulini it yeydi, yoqasini bit) maqollari uylanish chog'idagi yigitga uylanish tashviq qilinishi bilan bir qatorda, uning topgan puliga ishora qilinmoqda, ya'ni uni har kimga emas aynan oilasi uchun sarflashi kerakligiga rag'bat bor. *Derdin yoksa söylen, borcun yoksa evlen* (M.Y., 201) (Darding bo'lmasa, noli(shikoyat qil), qarzing bo'lmasa, uylan) maqolida ham bunga guvoh bo'lamiz, moddiylik bu yerda *qarz* so'zi orqali ifodalangan.

Aç aç ile yatınca arada dilenci doğar (A.Ö., 109) (och och bilan yotsa, tilanchi tug'iladi) maqoli turmush arafasidagi yigitlarga qarata xitob qiladi. Har ikki tomonning ham kambag'al bo'lishi kelgusida bolalari uchun ham og'ir bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi, shu sababli oilasini moddiy jihatidan ta'minlay oladigan davrda uylanishga targ'ib qilinadi. Er kishining oilani ta'minlay olmaslik holati qattiq qoralanadi.

Er ekmeği, meydan ekmeği (M.Y., 202) (Erning noni maydon noni) yoki *Er ekmeği minnetsiz* (M.Y., 202) (Erning noni minnatsiz bo'ladi) maqollarida erkak non obrazi orqali moddiylikni ifodalab kelmoqda. Oilada ayol eri keltirgan narsalarni qarzdorlik his qilmasdan xotirjamlik bilan iste'mol qiladi. Biroq *Er cimri olursa, avrat yüzsüz olur* (M.Y., 202) (er xasis bo'lsa, xotin yuzsiz bo'ladi) oilada er ayoliga kerakli ta'minotni qilib bermasa yoki ziqnalik qilsa, ayol ham boshqa yo'llar va xato ishlarga tashabbus qilishi mumkin. Mazkur maqollar er *meydan ekmeği, minnetsiz* so'zlari orqali saxiylik va ochiqqo'llik ifodalab kelayotgan bo'lsa, *cimri* so'zi orqali buning aksini ifodalamoqda.

Er emekli olursa, kadın yemekli olur (M.Y., 202) (Er mehnatkash bo'lsa, ayol taomli bo'ladi) ro'zg'or yuritishda er o'z vazifa va burchlarini o'z vaqtida ado qilsa, ayol kishi ham oila ichidagi

tartib-qoidalariga amal qiladi, taomlarini o'z vaqtida va mazali tayyorlaydi. Mazkur maqolda majburiyat emekli so'zi orqali ifodalanmoqda.

Erkeğin elinde çubuk, kadının elinde çocuk (M.Y., 203) (Erkakning qo'lida tayoq, xotinning qo'lida bola) erkak kishi o'z ishi va majburiyatini yaxshi bilishi va ularni ado qilishi lozim. Turkiy xalqlar asosan ko'chanchi hayot kechirgan va chorvachilik bilan shug'ullangan. Ushbu maqolda tayoq so'zi orqali erkak chorvasini boqsin, tirikchilik uchun harakat qilsin deyilmoqda.

Erkeğin sermayesi kesesi, kadının sermayesi güzelliğidir (M.Y., 203) (Erkakning boyligi xamyoni, ayolning boyligi go'zalligidir) erkakning kuch-qudrati jamiyatda asosan uning moddiy ahvoli bilan baholanadi. Ushbu maqoldan ham erkak kishiga moddiy borliq – hamyoni, ya'ni daromadi uning ta'minotchi ekanligi anglashiladi.

Erkek eşiğinden, kadın eşiğinden/döşeğinden belli olur (M.Y., 203) (Erkak eshagidan, xotin ostonasi\to'shagidan qandayligi ma'lum bo'ladi) Har bir ulov(eshak, ot) e'tibor, nazorat va qarov talab qiladi, agar yaxshi boqilsa egasiga uzoq va samarali mehnat qilib beradi. Ulovning holati ozg'in yoki semiz ekanligi egasi, ya'ni erkak kishining unga qarovini ko'rsatadi. Buni o'zbek tilidagi *Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur* maqoli bilan ham izohlashimiz mumkin. Erkak kishining ulovi soz bo'lsa, tirikchiligi, mehnati samarali bo'ladi. Er kishining ta'minoti, oila a'zolariga ma'suliyatini *İyi kocanın karısı hamamda belli olur* (M.Y., 205) (Yaxshi erning xotini hammomda bilinadi) maqolidan ham anglash mumkin. Oilasini yaxshi ta'minlovchi, g'amxo'r erning ayoli to'lachadan kelgan, bo'liq; aksincha bo'lsa, ayol ozg'in va zaif bo'ladi.

Oilada er ta'minotining asosiy mahsulotidan biri go'sht hisoblanadi. Bu mahsulot hattoki maqollarda ham o'z aksini topganini ko'rish mumkin. *Ben istemez miyim kaynatam kasap ola kaynanam hamamcı ola* (M.Y., 201) (men qaynotam qassob, qaynonam hammomchi bo'lishini xohlamaymanmi?) yoki *Kaynatam devletli olsun, kaynanam sahavetli* (M.Y., 207) (Qaynotam davlatmand, qaynonam saxovatli bo'lsin) har bir kelin turmushga chiqqan xonadonidagilar bilan yaxshi munosabatda

bo'lishni, nafaqat o'z erlarining, balki qaynotalarining ham serdavlat bo'lishini, lozim paytda ulardan dastak olishni xohlaydi. *Kocam it olsun, getirdiği et olsun* (M.Y., 208) (Erim it bo'lsin, keltirgani go'sht bo'lsin) maqolida esa ba'zi ayollar o'zlari va oilasining ta'minotini qiladigan erkakning ayb-nuqsoniga e'tibor bermasligiga ishora qiladi. Shuningdek, ayollar erlarining boy-badavlat bo'lishini xohlaydilar *Kadın kocayı var sever, koca kadını sağ sever* (M.Y., 205) (Ayol erini bor payti suyadi, er ayolini sog' payti sevar) yoki *Koca sağlığa, karı varlığa bakar* (M.Y., 208) (er sog'liqqa, ayol boylikka qaraydi). Hatto, yo'qchilik, taqchilik davri bo'lganida ayolning qanday ekanligini bilish mumkin. *Kadına/Karına iyi deme yoksulluk görmeyince* (M.Y., 206) (Yo'qchilik ko'rmay turib ayolingni yaxshi dema) deydi turk xalqi. Puli, mablag'i bo'lmagan erkak hech ishga yaramaydigan matoh singari qaraladi: *Karısız evi, parasız erkeği, vur ateşe yansın* (M.Y., 206) (Xotinsiz uyni, pulsiz erkakni olovga tashla yonib ketsin). Erkak kishidan kutiladigan va talab qilinadigan asosiy narsa ta'minot ekan.

Erine göre bağla başını, tencerene göre kaynat/ pişir aşını (M.Y., 203) (eringga qarab boshingni bog'la, qozoningga yarasha qaynat/pishir oshingni) yoki *Kadın kocasına göre baş bağlar* (M.Y., 205) (Ayol eriga qarab boshini bog'laydi) ayol erining daromadiga yarasha ust-boshi oladi. Ayolning kiyinishi va uy-ro'zg'or tutishi eriga bog'liq bo'ladi.

Erkek fedakar, kadın vefakar gerek (M.Y., 203) (Erkak fidokor, ayol vafoli bo'lishi kerak) yoki *Erkek vefakar, kadın cefakar olmalı* (M.Y., 203) (erkak vafoli, ayol jafokor bo'lishi kerak) uyi va ayoliga sadoqatli erkak qancha og'ir sharoit bo'lmasin, oilasini ta'minlashga urinishi, ayni vaqtda ayol kishi ham unga vafoli bo'lishi talab qilinadi.

Evi erkek yapar, yuvayı kadın (M.Y., 204) (Uyni erkak quradi, oilani ayol) uyning tartibi, nazorati, tozaligi ayol kishiga bog'liq va ularning ehtiyojlarining hammasi erkak kishining zimmasidadir.

Erkeğin rızkı kadının ruhsatına bağlıdır (M.Y., 203) (Erkakning rizqi ayolning ruxsatiga bog'liq) ayol kishi uyda qancha tejamkor bo'lsa erkak oilaning tirikchiligini qilishga ortiqcha qiynalmaydi. Bir tomondan ta'minotning tasarrufi ham muhim hisoblanadi, bu

esa bevosita ayolga bog'liqdir. *Ruhsat* so'zi turkcha izohli lug'atda *ruxsat, izn* ma'nolarida keladi. Maqolda esa *tasarruf, tejamkorlik* ma'nolarini anglatadi.

Ocaktır aşı pişiren, erdir avradı şişiren (M.Y., 208) (Ovqatni o'choq pishiradi, xotinni er shishiradi) ayolning kamolotga yetishishida, sog'lom yashashida erning hissasi beqiyos. Maqolda kelgan *ocaktır, erdir* so'zlari asosiy kalit so'zlar hisoblanadi.

Eşeğin kötü ise sat, avradın kötü ise giydir (M.Y., 203) (Eshaging yomon bo'lsa sot, xotining yomon bo'lsa kiyintir) ulov sizga kerakli xizmatni qilmasa yoki siz uchun manfaat keltirmasa uni sotib, o'rniga boshqasini olishingiz mumkin. Lekin oila muqaddas hisoblanganligi bois xotin yomon bo'lsa, yo'lga solishning yo'li uning moddiy ta'minoti yaxshi sifatida qaralgan.

Anam babam kesem, elimi soksam yesem (A.Ö., 146) (Ota-onam hamyonim, olsam-u yesam) erkak kishi ta'minotchiligi faqat ayoli uchun emas, balki farzandlari uchun hamdir. Farzandlar ham otalarini o'zlarining moddiy ehtiyojlarini ta'minlovchi "vosita" sifatida qaraydi. *Çocuğu okutan babanın akçası, ananın bohçası* (M.Y., 50) (Farzandni o'qitadigan narsa otaning aqchasi, onaning bo'xchasidir) farzandning moddiy ta'minoti uchun ota mas'ul hisoblanadi, uning parvarishi esa ona zimmasidadir.

Atalar çıkarayım der tahta, döner dolaşır gelir bahta (M.Y., 49) (Otalar chiqarsam der taxtga, aylanib o'rgilib kelar tolega) otalar farzandlarini moddiy jihatdan qancha ta'minlab, kam-ko'stsiz qilaman desalar ham farzandlar qismatidagini yashaydilar.

Baba oğluna bir bağ vermiş, oğlu babasına bir salkım üzüm vermemiş (M.Y., 50) (ota o'g'liga bir bog' qoldiribdi, o'g'li otasiga bir bosh uzum ham bermabdi) otalar umr bo'yi farzandlari uchun fidoiylik qiladilar, ular uchun o'zlarini qurbon qiladilar, lekin farzandlar otalari uchun kichik fidokorlik qila olmaydilar, qilgan mehnatlariga munosib evaz qaytara olmaydilar. *Bir baba dokuz oğlan besler, dokuz oğlan bir babaya bakamaz* (A.Ö., 193) (Bir ota to'qqiz o'g'ilni boqadi, to'qqiz o'g'il bir otaga qaray olmaydi) yuqoridagi maqolning bevosita davomi o'laroq bir ota barcha farzandlari uchun harakat, xarajat va umrini sarflaydi, ammo barcha farzandlar bir otalariga qaray olmadilar.

İyi evlat tutar atanın malını, kötü evlat satar atanın malını (M.Y., 135) (Yaxshi farzand ota molini tejaydi, yomon farzand ota malini sotadi) yaxshi farzand ota-onasini hurmat qiladi, yo'qchilik, yetishmovchilik damlari ularga dastak bo'ladi, ularni tushunadi, noqobil farzand esa faqat o'zining manfaatlarini o'ylaydi, ota-onasining mol-mulkini asrash o'rniga ular sotib yuboradi. *Oğlanın karası para kesesi, kızın karası can tasası* (M.Y., 136) (O'g'ilning yomoni xamyonga, qizning yomoni jonga) noqobil qiz va o'g'il qora so'zi orqali ifodalangan bo'lib, qizning yomon ishlari ota-onaning joniga (qalbiga) ozor yetkazadi. O'g'ilning qilmishlaridan ham albatta ota-ona ozorlanadi, lekin o'g'il bolalardagi aksariyat muammolar moddiyat bilan bo'lgani bois otaning mol-dunyosiga zarar yetkazadi.

Oğlanı doğuran ana sevinmesin de, ekmeğini yiyen sevinsin (M.Y., 136) (O'g'ilni dunyoga keltirgan emas, uning nonini yegan suyunsin) o'g'il tug'ilishi har bir xalqda o'ziga xos xursandchilik sabablaridan biri hisoblanadi, lekin turk xalqida o'g'il farzandning dunyoga kelishi xursandchilikni to'liq aks ettirmaydi. O'g'ilning ulg'ayib ota-onasiga g'amg'orlik qilishi, ularning ta'minotini qilishi, xizmatida bo'lishi to'kis xursandchilik belgisi hisoblanadi.

Ya okuyup hoca, ya zengin kıza koca olmalı (M.Y., 209) (yo o'qib mulla, yo boy qizga er bo'lish kerak) badavlat xonadonga kuyov bo'lgan kishilar o'zlarining moddiy imkoniyatlarini kengaytirib oladilar.

Meros – insoniyat tarixi singari qadimiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Odam (a.s.) dan beri *inson-meros-o'lim* munosabatlari hamisha faol bo'lib kelgan. Inson yaratilganidan buyon yashab qolish uchun mol-mulkka, tabiatdagi o'z hissasiga muntazam qiziqib keladi. Odam uchun eng muqaddas va qiymatli narsa uning joni bo'lsa, ahamiyati jihatidan mol-mulk undan keyingi o'rinda turadi. Shuning uchun hatto o'zi bu dunyodan o'tib ketsa ham mol-mulki bilan aloqasini saqlab qolishni, uni yaqinlariga qoldirishni xohlaydi⁹⁸. *Meros* so'zining o'z arab tilidagi irs, veraset so'zlaridan yasalgan bo'lib, yuborilgan, orqaga qoldirilgan narsa degan ma'noni beradi. Biror kishining o'limi oldidan qarindoshiga

⁹⁸ <https://www.turkcebilgi.com/miras#post>

oʻtadigan barcha mol-mulki, haqlari, qarzlari va huquqiy holati meros hisoblanadi. Bundan tashqari irsiy jihatdan qolgan xususiyat, biror nashning oʻzidan keyingi naslga qoldirgan narsa maʼnolarida ham qoʻllaniladi⁹⁹.

Turk lingvomadaniy tafakkurida oila konseptosferasi, uning tarkibidagi ota-ona konseptlarini yoritishda meros tushunchasi ham alohida ahamiyatga ega. Maqollarda ham mazkur tushuncha bilan bogʻliq qarashlar koʻzga tashlanadi. Merosning lugʻatda kelgan birinchi maʼnosi biror kishidan yaqini yoki farzandlariga qolgan mol-mulk turk xalq maqollarida aynan *miras* (meros), *kar* (foйда), *mal* (mol-mulk), *bağ* (bogʻ) soʻzlari orqali ifodalangan. Quyidagi maqollarda otadan qoladigan narsa odamiylik emas, aynan meros ekanligi, otadan qolgan mol-mulkning qadr-qiymati yoʻqligi, qolgan boylik haqiqiy boylik emas, inson oʻzi ishlab topishi lozim ekanligi, otadan qolgan mulk shamga qiyoslanib tez tugashi taʼkidlangan: *Babadan adamlık değil, miras kalır* (M.Y., 49) (Otadan odamiylik emas, meros qoladi), *Babanın kârı evlada miras* (M.Y., 49) (Otaning foydasi farzandga meros), *Babadan kalan malın kıymeti bilinmez* (M.Y., 49) (Otadan qolgan molning qiymati boʻlmaydi), *Ata malı mal olmaz, kendin kazanmak gerek* (M.Y., 49) (Ota moli mol boʻlmas, oʻzing ishlab topishing lozim) *Baba malı tez tükenir, evlat gerek kazana* (A.Ö., 173) (Ota moli tez tugaydi, ishlab topish uchun farzand kerak), *Baba mirası mum gibidir, çabuk söner* (M.Y., 49) (Ota merosi sham kabidir, tez soʻnadi), *Babası oğluna bir bağ vermiş, oğlu babasına bir salkım üzüm vermemiş* (A.Ö., 174) (Ota oʻgʻliga bir bogʻ qoldiribdi, oʻgʻli otasiga bir bosh uzum bermabdi). Maqollarning aksariyatida farzandiga qoldirilgan narsa hamisha ham mol-mulk boʻlmagan, otaning olgan qarzlari ham meros sifatida qolgan: *Baba borcu evlada düşer* (M.Y., 49) (Ota qarzini toʻlash farzand zimmasiga tushadi). Ayrim maqollarda farzandlar otadan qolgan meros bilan magʻrurlanmaslik kerakligi, hammasi oʻtkinchi ekanligini pand-nasihat tariqasida ifodalangan *Anan güzel idi, hani yeri, baban zengin idi, hani evi* (A.Ö., 147) (Onang goʻzal edi qani oʻrni, otan boy edi, qani uyi), *Ana baba ile iftihar olunmaz* (M.Y., 48) (Ota-ona bilan maqtanil-

⁹⁹ Türkçe Sözlük. TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – 1688.s

maydi). Bundan tashqari, lug'atdagi ikkinchi va uchincha ma'nolarida qayd etilganidek, ota-onadan farzandiga nafaqat mol-mulk, balki ularning baxti, o'chog'i, san'ati, do'sti ham meros qoladi *Ana bahti kızına, baba ocağı oğula kalır* (M.Y., 48) (Ona baxti qiziga, ota o'chog'i o'g'ilga qoladi), *Babanın/atanın sanatı oğla mirastır* (A.Ö., 174) (Otaning san'ati o'g'ilga meros), *Ata dostu oğula mirastır* (M.Y., 49) (Ota do'sti o'g'ilga meros). Shuningdek, ota-ona qilgan noto'g'ri, xato ishlar farzandlari hayotida ham o'z aksini ko'rsatishi ham maqollarda ifodalangan: *Baba koruk yer, oğlunun dişi kamaşır* (M.Y., 49) (Ota xom meva yeydi, o'g'lining tishi qamashadi). Demak, maqollardagi ma'nolardan kelib chiqadigan bo'lsak, ota-ona farzandi moddiy borliqdan tashqari, ma'naviy boylik ham qoldirishini bilib olamiz. Biroq ota-onadan farzandga salbiy xususiyatlar ham meros qolishi mumkinligi keltirib o'tiladi.

Turkiy xaqlarda uchraydigan umumiy jihatlardan biri erning oilada hukmron bo'lishidir. Turk xalq maqollarida ham bu holatga bevosta va majoziy obrazlar orqali kuzatish mumkin. Maqollarda er kuch timsolida ba'zan qaror oluvchi kuch, ayrimlarida idaraviy, yana ayrimlarida zulmkor kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bir değirmene iki taş ister, bir haneye bir baş ister (M.Y., 196) (Tegirmonga ikki tosh, xonadonga bitta bosh kerak) tegirmonning faoliyati tartibli va maromida bo'lishi uchun ikki tosh qanchalik muhim bo'lsa, oilaning tartib-intizomi uchun bir boshga ya'ni boshqaruvchiga ehtiyoji bor. Oila so'zi mazkur maqolda *hane* so'zi va er, boshliq yoki boshqaruvchi *baş* so'zi orqali ifodalangan.

Herkes evinin beyidir (M.Y., 197) (Hamma o'z uyining begidir) maqolidagi hamma so'zi erkakni ifodalab kelmoqda va u o'z uyida hukmini o'tkazadi, so'ziga quloq beriladi ma'nolarini anglatmoqda. Bey o'z navbatida hokimiyat, boshqaruvni bildiradi.

Erkek gözü dört olur, kendinizi toplayın (M.Y., 203) (Erkakning to'rt ko'zi bor, o'zingizni yig'ib oling) maqolining ikki ma'nosi bo'lib, birinchisi, ayol kishi uyini va o'zini eri uchun saramjon qilib o'tirishi lozim. Ikkinchisi esa, ayol ust-boshi va yurish turishiga ahamiyat berishi kerak, chunki begona erkaklarning ko'zi unda bo'lishi mumkin.

Elin işte, gözün eşte olsun (M.Y., 202) (Qo'ling ishda, ko'zing ayolingda bo'lsin) maqoli ham erning hamisha oilasini nazoratda

tutishi lozimligi, erkak ishi bilan qanchalik mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar ayolini e'tiborsiz qoldirmasligi kerakligini uqtiradi.

Avrat attır, gemini boş tutma (M.Y., 200) (Ayol otga o'xshaydi, jilovini bo'sh qo'yma), *Ersiz avrat, yularsız at* (ersiz ayol, jilovsiz ot) va *Atasız uşak/evlat yularsız eşek (gibidir)* (M.Y., 133) (otasiz farzand jilovsiz eshakka o'xshaydi) maqollari ayol kishi va farzandni nazoratsiz qoldirmaslikka chaqiradi. Ushbu maqollarda nazorat jilov so'zi (gem, yular)ga shartli sinonim bo'lib kelmoqda. Har ikkala ulov hayvonlari uchun jilov ahamiyatli bo'lsa, ayol va farzand uchun ham qarov, nazorat shu darajada ahamiyatlidir.

Avratla atı emanet etme (M.Y., 200) (Ayol bilan otni omonat qoldirma) turk xalqi otga nafaqat ulov, balki er kishining nomusi, ori sifatida qaraladi. Shu bois er kishining har ikkala nomusini ham boshqalarning qo'liga omonat topshirmaslikka chaqiriq bor.

Musulmon olamida rashk qilish ijobiy xislat hisoblanadi. Bu himoya va nazoratning bir ko'rinishidir. Maqollarda ham erkaklarga rashk qilish targ'ib qilingan. Buni quyidagi maqollarda ko'rishimiz mumkin: *Dişisini kıskanmayan domuzdur* (M.Y., 202) (Ayolini qizg'onmagan to'ng'izdir) va *Horoz bile dişisini kıskanır* (M.Y., 205) (Hatto xo'roz ham modasini qizg'onadi). Bu o'rinda har ikkala maqollar keltirilgan hayvonlar orqali halol va harom tushunchalari anglashiladi. Rashk qilish halol, qizg'onmaslik haromdir. *Avradı eri saklar, peyniri deri* (M.Y., 200) (Ayolni eri, pishloqni teri saqlaydi) ayolning muhofazasi erining zimmasidagi asosiy vazifadir.

Erkek korkusu, Allah korkusu (M.Y., 203) (Erдан qo'rqish, Xudodan qo'rqish) eridan qo'rmaydigan, uning gaplariga quloq solmaydigan oilada tartib-intizom bo'lmaydi. Allohdan qo'rqqan inson gunoh ishga qo'l urmagan singari, eridan qo'rqqan ayol oila qoidalariga amal qiladi, erini hurmat qiladi.

Avrat, at, bağ sahibini hep genç ister (M.Y., 200) (Ayol, ot, bog' egasining doimo yosh bo'lishini xohlaydi) turmush chog'iga yetgan qiz turmush quradigan erkakning yosh va kuchli bo'lishini xohlaydi. Bog' gurkirashi, gullab yashnashi uchun baquvvat bilaklarga, ot esa yaxshi qarov uchun navqiron yigitga ehtiyoj sezadi. Bu yerdagi kuch-quvvat qarash, himoyalash va parvarishga yo'nalgan ijobiy kuchdir.

Dumansız baca olmaz, kahırsız koca olmaz (M.Y., 202) (Tutunsiz mo'ri, g'azabsiz er bo'lmaydi) *kahır* so'zi turk tilining izohli lug'ati¹⁰⁰da ikki ma'noda keladi, birinchi ma'nosi yo'q qilish, ezish, abgor qilish, barbod qilish; ikkinchi ma'nosi esa chuqur qayg'u va azob tarzida keltirilgan. Erkak kishining himoya, nazorat kuchidan tashqari zulm, qahr, g'azab kuchi ham borligi maqollarda o'z aksini topadi. Erkakning salbiy kuchi *Evde horoz, sokakta tavuk olma* (M.Y., 204) (Uyda xo'roz, ko'chada tovuq bo'lma), *Eşini ağlatan gülmemiş* (M.Y., 203) (Ayolini yig'latgan kulmaydi), *Alma uzun saçının ahını, gökten indirir şahini* (M.Y., 199) (Uzun sochlining qarg'ishini olma, (uning duosi) osmondagi lochinni qulatadi) maqollarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Erkek aslan dışından/ dışisine bakar kuvvet alır (M.Y., 203) (Erkak sher urg'ochi sherdan quvvat oladi) maqolida sher erkakdagi kuch-quvvat, baquvvatlik, botirlik kabi tushunchalarni anglatadi. Lekin uning manbasi sifatida ayol kishi ko'rsatilmoqda.

Asili alması zor, saklaması kolaydır (M.Y., 199) (Aslzodani olish qiyin, asrash oson) yoki *Garipten kız alması kolaydır, saklaması çetindir; zenginden kız alması çetindir, saklaması kolaydır* (M.Y., 204) (G'aribdan qiz olish oson, asrash mushkul; boydan qiz olish qiyin, asrash oson) maqollarida uylanish chog'idagi erkaklarga ham tavsiya, ham ogohlantirish tariqasida aytilgan maqollar hisoblanadi. Yana shunday maqollardan biri *Darılttığın dağın odununu yakma, boşadığın karının topuğuna bakma* (M.Y., 201) (Xafa qilgan tog'ning o'tinini yoqma, ajrashgan xotiningning tovoniga boqma) oradagi kelishmovchilik va muammolar tufayli ajrashgandan keyin bu ayolga boshqa qaytma, aks holda eski holatlar yana takrorlanishidan ogohlantiradi. Boshqa tomondan, odatda, ayol kishilar tomonidan aytiladigan *Ayı idi mayı idi kocam idi ya; çalı idi çarpı idi evim idi ya* (M.Y., 200) (Ayi-q-mayiq bo'lsa ham erim edi, abgor-xarob bo'lsa ham uyim edi) maqol pushaymonlikni ifodalaydi. Boshqalar ta'siri ostida eri bilan ajrashib, uyini tark etgan ayol oilasining qadrini kech tushunib yetadi. "ayiq" timsolida, ishyoqmas, loqayd, qo'pol er nazarda tutiladi. Shunday xislatlari yoki nuqsonlari bo'lishiga qaramay erning bori

¹⁰⁰ Türkçe Sözlük, Ankara 2011, s.1267

yaxshi edi, degan pushaymonlik bor maqol zamirida. Chunki turk madaniyatida ersiz ayolga nisbatan salbiy munosabat bor. Masalan, *Baskısız yongayı sel alır, kocasız kariyı el alır* (M.Y., 200) (Bosilmagan bedani sel oladi, ersiz ayolni el oladi) maqolida o'rib olingan beda vaqtida yig'ishtirib olinmasa, pedapoyada, ya'ni ochiq joyda qolib ketsa, maydon qayta sug'orilganda bedalarni suv olib ketadi, xuddi shu kabi ayol kishi ham himoyasiz, ta'minotchi-siz qolib ketsa unga odamlar "ega" chiqishga urinadi, deyilmoqda. Maqolda sel beda uchun xavfli tabiiy ofatlarni nazarda tutib aytilgan bo'lsa, el so'zi ham ayol uchun, ayniqsa, ersiz ayol uchun unga ziyon yetkazuvchi "begona, xavfli insonlar" ma'nosida qo'llanilgan. Sel kuchli suv oqimi odatda metoforik ma'noda vayronkorlik, asovlikni bildiradi. Yana bir turk maqolida erkak kishi aynan selga o'xshatiladi *Erkek sel, kadın/avrat göl* (M.Y., 203) (Erkak sel, xotin ko'l). Erkak kishining xarakteridagi qiziqqonlik, tezlik uning oilaviy munosabatlarda ba'zan "selday hamma yoqni vayron qilishi"ni, ayol kishi esa bunday vaziyatlarda vazminlik bilan harakat qilishi lozimligini ko'l – turg'un va sokin suv timsolida ifodalaydi.

Oila qurish asnosida har ikki tarafda ham salbiy xislatlardan boylik va ko'ngilxushlikka moyillik e'tiborga olinadi. Turk madaniyatida bunday insonlar qoralanadi. *Boz ata, avrada, oğlana kulluk edenin yüzü ağarmaz* (M.Y., 201) (Yaydoq otga, ayolga, yigitga qullik qilganning yuzi yorishmaydi) maqolida ot – boylik, ayol va yigit ko'ngilxushlikni bildirib kelmoqda va ham erkak, ham ayol kishi boylik va ko'ngilxushlikka o'ch bo'lsa, xarob bo'lishi (*yüzü ağarmaz*) ta'kidlanadi.

Oilada er-xotin bir-birini asrab-avaylashi, o'zaro hurmat ko'rsatishi, yaxshi munosabatda bo'lishi lozimligi maqollarda ham o'z aksini topgan. Yaxshi va yomon sifatlari orqali ularga baho beriladi: *İyi koca karısını gül yaprak; kötü koca karısını kül toprak yaparmış* (M.Y., 205) (Yaxshi er xotinini gul-yaproq, yomon er kul-tuproq qilar ekan) yoki *Kadını yeşil yaprak eden de kocası, kara toprak eden de kocası* (M.Y., 205) (Xotinni yashil yaproq qiluvchi ham, qora tuproq qiluvchi ham eridir). Ushbu maqollarda yaxshi erning sifati ayoliga yaxshi munosabat (*gül yaprak; yeşil yaprak*) qilgani, yomon erning sifati esa ayolini xarob (*kül toprak; kara toprak*) qilgani bilan ifodalangan. Erkak ayrim turk maqollarida

yomon yoki salbiy obraz orqali talqin qilingan. *Er var karının derdini çeker, karı var erinin derdini çeker* (M.Y., 202) (Er bor ayol dardida, ayol bor erining dardida) yoki *Koca iyi bir şey olsa idi adını koncağül koyarlardı* (M.Y., 208) (Er yaxshi narsa bo'lganida ismini gulxuncha qo'ygan bo'lardi) maqollari ayollar nazdida erning salbiy obrazi chizilgan. Birinchi maqolda erkaklarning ayollarga moyilligini, bundan esa xotinining iztirob chekishini, ularning dardga tushishiga sababchi ekanligidan shikoyat qiladi. Ikkinchi maqolda koca so'zi va koncağül so'zlari o'zaro zitlashtirilib, er so'zining o'ziyoq salbiy ma'no berishi ta'kidlanadi. Boshqa bir ota so'zi esa, erning qo'liga tayoq tutqazuvchi, uning "yomon bo'lishiga sababchi" ayol kishining o'zi deydi: *Kadın sopayı kocasına eliyle verir* (M.Y., 205) (Ayol tayoqni eriga o'z qo'li bilan beradi). *Sopa* – kaltak so'zi maqolda urish, kaltaklash, jahl, g'azab ma'nolarinin ifodalasa, eliyle verir – qo'li bilan beradi birikmasi o'z ixtiyori bilan, o'zi bilgan holda, atayin ma'nolari ifodalab keladi.

Turkiy xalqlarda er oilaning qo'rg'oni sifatida qaraladi. Qo'rgo'n so'zining baland devorli qal'a, devor bilan o'ralgan hovli-joy va uning ichidagi, atrofi, odatda, bog', ekinzorlardan iborat bo'lgan binolar va ulkan maqbara ma'nolaridan kelib chiqqan holda, ushbu ma'noni aks ettiruvchi turk maqollarini saralab oldik. Ulug'vor so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida savlatdor ko'rinishli, salobatli, muhtasham, ulug' kabi ma'nolar bilan izohlangan¹⁰¹. Bundan tashqari *kenglik*, *muqaddaslik* ma'nolarida kelgan maqollarni ham ushbu bo'limga oldik, chunki maqbara ziyoratgoh, ya'ni muqaddaslik timsoli hisoblansa, ekinzor va bog'rog'lar keng joyni talab qiladi.

Shuningdek, turk maqollarida erga (ota yoki o'g'il emas, aynan erga) ayol nuqtayi nazaridan ulug'lik-balandlik sifatida qarash kuzatiladi. *"A kız ağan ne çirkin!" "Babamın evinde o da yok idi."* (M.Y., 199) ("E dugona, og'ang(ering) namuncha xunik!" "Otamni uyida shu ham yo'q edi") yoki *Ağa başlı kardeşim olacağına, ağır başlı kocam olsun* (M.Y., 199) (Og'a boshli ukam bo'lganidan, og'ir bosiq erim bo'lsin) maqollarida ayol uchun erning ustunligi, qadri yaqqol ifodalangan.

¹⁰¹ <http://savodxon.uz/izoh>

Farzandlarga pand-nasihat tariqasida yana bir qator maqollarga duch keldik. Biroq endilikda keltirmoqchi bo'lgan maqollarda ota-ona, unga qilinadigan xizmat ulug'lanibgina qolmay, ilohiylashtiriladi. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda ham "Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «Uff», dema, ularga zajr qilma va ularga karamli so'z ayt!"¹⁰² oyati ularga qanday munosabatda bo'lish lozimligi bayon qilingan. Farzandlarning ota-onaga xizmati Tangriga qilingan ibodatlar sirasida qabul qilinadi *Anaya babaya hizmet, Tanriya ibadet* (M.Y., 49) (Ota-onaga xizmat, Tangriga ibodat), *Ata yolu dogru yoldur* (M.Y., 49) (Ota yo'li haq yo'lidir) otalar tanlagan yo'ldan yurgan adashmaydi, ular tanlagan yo'l, yashash tarzi to'g'ridir, haqdir. Quyida beriladigan maqollarda ota-onaga qarshi chiqish, qarg'ishini olish qoralangan va bunday holatga tushishdan qaytarilgan. *Atanın önünden geçeni Allah sevmez* (M.Y., 49) (Otaning oldidan o'tganni Alloh suymas) boshqa xalq yoki madaniyat nuqtayi nazaridan qaralganda oddiy va odatiy qaraladigan bu holat, turk xalqi madaniy shuurida odobsizlik va hurmatsizlik sifatida baholanadi. Bu holat shunchaki tanqid qilinib qolmasdan, Alloh suymaydigan ishlar sirasiga kiritiladi. Ya'ni qat'iy tarzda bu ishdan qaytariladi. *Ana baba bedduasını alan onmaz* (M.Y., 48) (Ota-ona qarg'ishini olgan o'ngmas) maqolida ham qattiq va qat'iy qaytariq bor: ota-onaga qarshi chiqmaslik. Maqollar tarkibidagi badduo va osiy so'zlariga e'tibor qaratsak, mazkur maqollar turkiy xalqlar islomni qabul qilganidan keyin paydo bo'lgan, degan xulosaga borishimiz mumkin. Zotan, oilaga katta ahamiyat bergan turk xalqi, islom dini ta'sirida oilaviy rishtalarga yana-da kuchli diqqat qaratganiga guvoh bo'lamiz.

Bir koca yedi oğula bedeldir (M.Y., 201) (Er yetti o'g'ildan afzaldir) ayol kishi uchun farzandlari aziz, lekin eri ulardan ham azizroq. Er o'g'il farzandlardan yuqoriga qo'yilmoqda.

Er olsun da evi olmasın (M.Y., 202) (Uyi bo'lmasa ham er bo'lsin) erkak kishi moddiy jihatdan yetishmovchiligi bo'lsa ham,

¹⁰² Qur'oni Karim, Isro surasi, 23-oyat

agar o'zida shijoat, mardlik kabi xislatlari bo'lsa, ayoli uchun qadrli hisoblanadi. Bundan oldingi bo'limda erkak kishining moddiyati birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa, bu yerda ma'naviy jihatiga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek xalqida erkak kishi "ko'chaning odami" degan naql bor. Bu holat turk xalq madaniyatida ham tabiiy ravishda ko'zga tashlanadi, zero har ikki millat bir turkiy qavmga mansub hisoblanadi. Biz yana qo'rg'on so'zining izohlariga murojaat qilamiz. Unda dala joyda va umuman shahardan tashqarida atrofi devor bilan o'ralgan hovli-joy ta'rifi ham keltirilgan edi. Aynan mana shu ta'rifdan kelib chiqqan holda to'plagan maqollarimizni tahlil qilishga urinamiz.

Er getirir, kadın yetirir (M.Y., 202) (Er keltiradi, xotin yetkazadi) maqolida ham erning ta'minotni olib keluvchi ekanligiga ishora qilingan va *getirmek* (keltirmoq, olib kelmoq) fe'li orqali ifodalangan. Biror narsani tashqaridan keltirish, olib kelish ham erning tashqariga oidligini ko'rsatib turibdi.

Xuddi shu fe'l hamda *varlık* (pul, mol-mulk, boylik) otlari orqali erkakning tashqaridan ta'minlovchi ekanligiga *Getir varlığı, göstereyim karılığı* (M.Y., 205) (Keltir boringni, ko'rsatayin xotinlikni) maqolini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur maqolda ham *getir* (olib kel, keltir) fe'li tashqaridan ichkariga yo'nalishni ifodalamoqda.

Gerdeğe girmeyen boş olur (M.Y., 205) (Chimildiqqa kimagan bo'ydoq hisoblanadi) fors tilidan kirib kelgan gerdek so'zi "qirol chodiri, o'tov, kelin xonasi" ma'nolarida qo'llanilgan, endilikda ushbu so'z turk tilining izohli lug'atida kelin-kuyov to'y kechasi yolg'iz qolishi va birinchi bor birgalikda bo'lishi¹⁰³ tarzida kelgan. Ushbu maqolda oila qurish bilan bog'liq barcha rasmiy va norasmiy urf-odat va ishlar tugagandan so'ng, gerdek ya'ni chimildiqqa kirmagan kishi hali bo'ydoq hisoblanadi. Bu yerda ham erkakning tashqaridan ichkariga harakatiga guvoh bo'lamiz.

Er gelir ev taşar, er gider ev şaşar (M.Y., 202) (Er kelsa uy to'lib-toshadi, er ketsa uy nima qilarini bilmay shoshib qoladi) maqolida uy so'zi orqali oila a'zolari, asasan ayol nazarda tutiladi.

¹⁰³ Türkçe Sözlük, 11.baskı, Ankara, TDK, 2011, s.932.

Ustunsiz uy uy bo'lmagani singari, erkaksiz oila, ayol ham qadr-qiyamat topmaydi. Ushbu maqoldagi kelmoq va ketmoq fe'llari orqali erkakning harakat traektoriyasi tashqaridan ichkariga va aksincha ichkaridan tashqariga ekanligi yana bir bor o'z isbotini topmoqda. Shuningdek, bu maqolning *Kocam gitti evim şaştı, kocam geldi evim taştı* (M.Y., 208) (Erim ketdi uyim shoshdi, erim keldi uyim toshdi) shakli ham bor.

Maqollarning aksariyatida jozibadorlikni orttirish, bilvosita yo'l bilan tushuntirish maqsadida hayvonot olamiga ham murojaat qilingan. *Erkek kuş gezer havayi, dişi kuş yapar yuvayı* (M.Y., 203) (Nar qush havoni aylanib yuradi, moda qush uya quradi) maqoli ham shunday maqollardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolda ham erkak kishi oilaning tashqi ishlari bilan shug'ullanishi, ichki ishlar bilan asosan ayol kishi aloqador bo'lishi aytiladi. Bu maqolda *havo* so'zi tashqari, tashqi olam so'zlari bilan shartli sinonim bo'lib kelgan.

Har bir xalqning o'zi e'tiqod qiladigan dini uning madaniyatida ham o'z aksini ko'rsatadi. Maqollar esa xalq madaniyatining ko'zgusi hisoblanadi. Turkiy xalqlar islom dinini qabul qilganlaridan keyin paydo bo'lgan maqollarda dinga oid so'zlardan keng foydalanilgan. *Kocasını cennete de cehenneme de sokan karısıdır* (M.Y., 208) (Erini jannatga ham, do'zaxga ham kirituvchi uning xotinidir) maqolida Jannat va Jahannam (do'zax) so'zlari keltirilgan. Bu yerda ayol kishi erining nafaqat bu dunyoda balki narigi dunyosida ham nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini, erkakning Jannat hayotiga erishishi yoki, aksincha, do'zaxga tashlanishi ham ayol kishiga bog'liq ekanligi aytilmoqda. Bu ikki antonim so'zlar ayni vaqtda bu dunyodagi yaxshi va yomon hayot tushunchalari bilan sinonimlik hosil qiladi. Ushbu ikki hayotga daxldor qiluvchi, olib kiruvchi shaxs ayol kishidir. Bu yerda diqqat qaratishimiz kerak bo'lgan xusus *olib kiradigan* (sokan) so'zidir, ya'ni bu yerda ham erkak tashqaridan ichkariga harakatlantirilmoqda.

Anasız çocuk evde çürür, babasız çocuk çarşıda (M.Y., 132) (Onasiz bola uyda, otasiz bola bozorda kun ko'rmaydi) farzand onadan judo bo'lsa, uyga kelgan begona ayol, ya'ni o'gay ona tazyiqiga uchraydi, otasidan ajralgan bola esa tashqi hayot

qiyinchiliklariga, nohaqliklariga yo'liqadi. Ushbu maqolda ham ona ichkarini, ota esa tashqarini (çarşı) ifodalamoqda.

Turk tilida *kuyov* so'zi *damat* va *güvey* deb ataladi. *Güvey* qadimgi turkiyda *küd* – qaramoq, boqmoq, ko'z quloq bo'lmoq ma'nosini, *damat* esa fors va o'rta fors tilida to'y egasi ma'nosini anglatadi *Kızın kimi severe güveyin odur, oğlun kimi severe gelinin odur* (M.Y., 207) (qizing kimni suysa, kuyoving o'sha, o'g'ling kimni suysa, keling o'sha). Oila, uy ichidagi a'zo(qiz)ni olib ketuvchi kishi hisoblanadi. Turk tilida *ich güveyi*¹⁰⁴ (ich kuyov) qarindoshlik atamasi biror oilaning qiziga uylanib, qizning oilasi-ning uyida yashovchi kishini anglatadi. Turk tilida kuyov uchun ikki xil atama qo'llaniladi – kuyov va ich kuyov. Ushbu xalq madaniyatida er kishi, kuyov tashqarilik ma'nosini ifodalashini shu yergacha bo'lgan maqollarda kuzatdik. Bu tushunchaga zidlik holati ichkariga yo'nalganlik xalq madaniyatida salbiy holat sifatida baholanadi. Masalan *İçgüveysi iç ağrısı* (M.Y., 205) (Ichkuyovi ich og'rig'i) noqulaylik, hastalik sifatida yoki *İçgüveyliğinde ya kediden miskin, ya kılıçtan keskin olmalı* (M.Y., 205) (Ichkuyovlikda mushukdan ham bechora yoki qilichdan ham o'tkir bo'lish kerak) ichkuyovlikni qabul qiladigan erkak juda beg'am, ojiz, notovon bo'lishni bo'yniga olishi kerak. Yoki oilada o'z o'rniga egaligini ko'rsatish uchun qizning oilasiga kuchli ta'sir o'tkazishi talab qilinadi. Ikkinchi holat aksariyat holatlarda kuzatilmaydi, chunki bunday salohiyatga ega inson ich kuyovlikni o'ziga ravo ko'rmaydi.

Tarozining ikki pallası bo'lgani kabi oilaning mustahkam, kam-ko'stsiz bo'lishi erkak kishiga ham bog'liq bo'ladi. Ayolni o'z "yo'rig'iga solish" va tarbiyalash erning vazifasi hisoblanadi, zero *Gül dalından odun, beslemeden kadın olmaz* (A.Ö., 294) (Atirgul butasidan o'tin, tarbiya qilmasdan xotin bo'lmas.). Ayolning go'zalligi, tarovati erining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi: *Kadını yeşil yaprak eden de kocası, kara toprak eden de kocası* (M.Y., 206) (Xotinni yashnatadigan ham, qora tuproq qiladigan ham erdir). Eri yaxshi bo'lsa, yana ham ko'rkamlashib yana-da chiroyli (*yeşil yaprak*) bo'ladi, yomon bo'lsa, bor go'zalligini yo'qotib, ko'rimsiz bir ayol (*kara toprak*)ga aylanib

¹⁰⁴ Türkçe Sözlük. – Ankara, 2011. – s.1145

qoladi. Er ayoli uchun qo'rg'on bo'lmog'i kerak. Uni har qanday yomonliklardan asray bilishi lozimligi *Avradı eri saklar, peyniri deri* (M.Y., 200) (Ayolni eri saqlar, pishloqni teri) maqoli vositasida keltirib o'tilgan.

Oshsiz uy bo'lishi mumkin, urushsiz uy bo'lmaydi deganlaridek, har bir xonadonda er-xotin o'rtasida o'zaro janjallar, "gap qochishlar" bo'lib turadi. Oilani saqlab qolish uchun esa kimdir yon bosishi kerak. Bu muhim vazifa ham ayol zimmasiga tushadi: *Gece yağar gündüz açar, yıl düzgünü; erkek söyler kadın susar, ev düzgünü* (M.Y., 204) (Kechasi yog'ib kunduz ochilib ketadi, tabiat qonuni; er gapirar, xotin jim bo'lar oila qonuni), ya'ni oila tinchligi va davomiyligi uchun ayol kishining eriga qarshi kelmasligiga bog'liqligi uqtiriladi. Kelishmovchiliklar va janjallar asosan mishmishlarga va odamlarning to'g'ri-noto'g'ri maslahatiga quloq solishdan kelib chiqadi *El ağzına bakan, karısını tez boşar* (A.Ö., 259) (El og'ziga qaragan xotini bilan tez ajrashadi). Buyuk alloma Ahmad Donish bu borada shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Agar kelin-kuyov birovlarining gaplariga, fisqu-fasodlariga kirar ekan, ularning shirin turmushlari buziladi, oralariga sovuqlik tushadi". Oilaviy muammolar oilada hal etilishi va uydagi gap tashqariga chiqmasligi kerak. Shundagina, oila baxtiyor yashaydi.

Ba'zi oilalarda og'a-inilar orasida kelishmovchiliklar kuzatiladi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, ular bir-biridan yuz o'giradilar, shunday hollarda eri haqmi, nohaqmi, u bilan birga xotini qoladi *Kardeş kardeşi atmış, yar başında tutmuş* (M.Y., 29) (Aka ukani uloqtiribdi, yori boshida ko'taribdi). Erkaklarning hatto tug'ishganlariga ishonmaydigan sirlari ham ayollariga aytiladi *Kardeşten karın yakın* (A.Ö., 345) (Og'a-inidan xotining yaqin). Lekin hamma sirlar ham ularga aytilavermasligi kerakligini *Kadını sırdaş eden esrara tellal aramaz* (M.Y., 206) (Xotinni sirdosh qilgan siriga dallol qidirmasin) maqoli vositasida ta'kidlanadi.

Kadının şamdanı altın olsa, mumunu dikecek erkektir (M.Y., 206) (Xotinning shamdoni tilla bo'lsa, shamdonga sham qo'yguvchi erkakdir) maqoli orqali ayol kishining topgani erkak kishining topgani bilan qo'shilsagina barakali bo'lishi, turmushning asosiy yuki erkakning zimmasida ekanligi ta'kidlanmoqda.

Ota – meros qoldiruvchi: *Ata dostu oğula mirastir* (M.Y., 49) (Ota do'sti o'g'ilga meros), *Baba borcu evlada düşer* (M.Y., 49) (Ota qarzini o'g'il to'laydi), *Ata malı mal olmaz, kendin kazanmak gerek* (M.Y., 49) (Ota moli mulk bo'lmaydi, o'zing ishlab topishing kerak), *Baba malı tez tükenir, evlat gerek kazana* (M.Y., 49) (Ota moli tez tugaydi, farzand o'zi ishlab topishi kerak), *Baba mirası mum gibidir, çabuk söner* (M.Y., 49) (Ota merosi shamga o'xshab tez ketadi), *Atanın sanatı oğula mirastir* (M.Y., 49) (Ota mahorati o'g'ilga meros), *Babadan adamlık değil, miras kalır* (M.Y., 49) (Otadan odamiylik emas, meros qoladi), *Babadan kalan malın kıymeti bilinmez* (M.Y., 50) (Otadan qolgan molning qadri bo'lmaydi), *Babanın karı evlada miras* (M.Y., 50) (Otaning daromadi o'g'ilga meros). Turk maqollarida ota uyning rahbari bo'lib qolmasdan, mol-mulk egasi ham hisoblanadi. Merosni qabul qilib oluvchi ham asosan o'g'il farzanddir. Otadan faqat mol-mulk yoki boylik emas, balki hunar, o'zining do'sti, yaxshiliklari, qolaversa, qarzlar hamda yomon nomi ham meros bo'lib qoladi.

Ota – o'g'il uchun namuna: *Babadan gören sofrı salar, anadan gören minder serer* (M.Y., 49) (Otadan ko'rgan dasturxon ochadi, onadan ko'rgan ko'rpacha to'shaydi), *Oğlan babadan öğrenir sofrı kurmayı, kız anadan öğrenir bıçkı biçmeyi* (M.Y., 136) (O'g'il otadan dasturxon yozishni, qiz onadan tikish tikishni o'rganadi), *Baba ekşi elma yer, oğlunun dişi kamaşır* (M.Y., 50) (Ota nordon olmay yesa, o'g'lining tishi qamashadi). Maqollardan ko'rinib turganidek, ota har jihatdan o'g'il uchun namuna va o'rnak hisoblanadi. Oila ichidagi tutumdan tortib, jamiyatdagi o'zini tutishgacha, ya'ni har jabhada farzandiga rahnamo vazifasini bajaradi.

Er – ayolning baxtini belgilovchi shaxs: *“A kız ağın ne çirki!” “Babamın evinde o da yoktu”* (M.Y., 199) (Dugonajon, og'ang buncha ko'rimsiz! Otamning usyida shu ham yo'q edi), *Ağa başlı kardeşim olacağına, ağır başlı kocam olsun* (M.Y., 199) (Og'alarday ukam bo'lgunicha, vazmingina erim bo'lgani yaxshi edi), *Ana kızına taht kurar, kız bahtı kocada arar* (M.Y., 199) (Ona qiziga taxt quradi, qiz baxtini erining uyidan izlaydi), *Diş ile lezzet, koca ile izzet* (M.Y., 201) (Lazzat tizdan, izzat erdan), *Erkeği olmayın evi güneş almaz* (M.Y., 203) (Eri yo'q uyga quyosh nuri ham tushmaydi). Ayollarning oilada va umuman jamiyatdagi mavqeyi,

uning hayotdan mamnun ekanligi turk maqollarida uning eri orqali ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi. Erning xonadoni ota uyidan ustun qo'yiladi. Jamiyatda esa aynan eri orqali hurmat-izzat topadi. Ersiz xonadon jamiyat nazdida chetlangan, e'tiborsiz qoldirilgan xonadon sifatida qaraladi.

Bo'ydoq – erkak tajribasiz, gapi inobatga olinmaydigan shaxs: *Bekarın ahmağı toyda kız beğenir* (M.Y., 200) (Bo'ydoqning nodoni to'yda oshiq bo'ladi), *Bekar gözü ile kız alınmaz* (M.Y., 200) (Bo'ydoq ko'zi bilan uylanilmaydi), *Bekara avrat boşaması kolaydır* (M.Y., 200) (Bo'ydoqga xotin qo'yish oson), *Ergen gözüyle kız alma, gece gözüyle kız alma* (M.Y., 202) (O'smir ko'zi bilan qiz, tun ko'zi bilan bo'z olma). Turk madaniyatida oila hanuz oila qurmagan erkak yoxud oila qurishni kechiktirayotgan erkakga nisbatan salbiy baholashni kuzatish mumkin. Uning so'zi inobatga olinmaydi, chunki u oila deb atalgan tajriba maktabiga ega emas. Shuning uchun ham uylangan erkaklarga bo'ydoqlardan maslahat olish tavsiya qilinmaydi.

Er – oilaning ta'minotchisi: *Er getire, hak getire* (M.Y., 202) (Erning keltigani, haqning keltigani), *Er getirir, kadın yetirir* (M.Y., 202) (Er olib keladi, xotin yetkazadi), *Erkek getirmeyi, kadın yetirmeyi bilmeli* (M.Y., 203) (Er luqma ketlirishni, xotin taqsimlashni bilishi kerak), *Evi erkek yapar, yuvayı kadın* (M.Y., 204) (Uyni er quradi, oilani – xotin), *Getir varlığı, göstereyim karılığı* (M.Y., 205) (Ta'minotni olib kelgin, bekalikni ko'rsatay). Er kishi oila ta'minotchisi hisoblanadi va bu uning oiladagi mavqeyini baland qilib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Oilada ayol kishining vazifalaridan biri uning pazandalik mahorati bo'lsa, erning vazifasi esa shu yemaklar uchun masalliklarni ta'minlash hisoblanadi.

Er mehnatkash bo'lishi kerak: *Er emekli olursa, kadın yemekli olur* (M.Y., 202) (Er mehnatash bo'lsa, xotin pazanda bo'ladi), *Erim er olsun da evi olmasın* (M.Y., 203) (Erim er bo'lsin uyi bo'lmasa ham), *Erkeğin elinde çubuk, kadının elinde çocuk* (M.Y., 203) (Erkakning qo'lida tayoq, xotinning qo'lida chaqaloq), *Erkeğin sermayesi kesesi, kadının sermayesi güzelliğidir* (M.Y., 203) (Erning sarmoyasi hamyoni, xotinning sarmoyasi – chiroyi). Turk maqollarida oilada erkak mehnatsevar bo'lishi

lozimligi uqtiriladi. Oilaning farovonligi erkakning mehnati va xotinning oqilona taqsimoti evaziga amalga oshiriladi.

Er saxiy bo'lishi kerak: *Er cimri olursa, avrat yüzsüz olur* (M.Y., 202) (Er xasis bo'lsa, xotin yuzsiz bo'ladi), *Er ekmeği meydan ekmeği, baba/evlat ekmeği zindan ekmeği* (M.Y., 202) (Er noni maydon noni, ota/farzand noni zindon noni). Turk madaniyatida oilada er saxovatli bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Aks holda oilada muvozanat buzilishi va oqibatda xotin yuzsiz, ya'ni andishasiz bo'lishidan ogohlantiradi.

Qo'shxotinli erning hayoti azob-uqubatli bo'ladi: *Kadının biri ala, ikisi bela* (M.Y., 206) (Xotinning biri a'lo, ikkitasi balo), *İki karılı bitten, iki analı sütten ölür* (M.Y., 205) (Ikki xotini bor bitdan, ikki onasi bor sutdan o'ladi). Turk maqollarida qo'shxotinlik masalasiga ham to'xtalib o'tilgan. Maqollar soni ko'pchilikni tashkil etmasa ham ushbu masala tarixdan beri borligini va uning oqibati erkak uchun ijobiy emasligini ta'kidlab keladi.

Yaxshi er: *Er var karının derdini çeker, karı var erinin derdini çeker* (M.Y., 202) (Shunday erlar bor xotininig dardini o'ylaydi, shunday ayollar bor erining jabrini tortadi), *Eşini ağlatan gülmemiş* (M.Y., 203) (Xotinini yig'latgan kulmas ekan), *İyi adam eşeğinden, iyi karı döşeğinden belli olur* (M.Y., 205) (Yaxshi er eshagidan, yaxshi xotin to'shagidan bilinadi), *İyi koca karısını gül yaprak; kötü koca kül toprak eder* (M.Y., 205) (Yaxshi er xotinini gul-yaproq qiladi, yomon er xotinini kul-tuproq qiladi), *İyi kocanın karısı hamamda belli olur* (M.Y., 205) (Yaxshi erning xotini hammomda bilinadi). Turk oilasida erkakdan kutiladigan yana bir xususiyat yaxshi er bo'lishdir. Maqollarda yaxshi er ta'riflari xotining tashvishlarini o'ylaydigan, xotinini yig'latmaydigan, unga g'amxo'rlik qiladigan, kaltaklamaydigan tarzlarida keladi. Turk xalqida uzoq yillardan buyon hammom madaniyati bor. Unda ayollar asosan ijtimoiy muloqot amalga oshirish, kelin tanlash masalasida to'planganlar. Hammomda tanalaridagi jarohat izlaridan erlarining kaltaklaganliklari oshkor bo'lib qolgan, shundan kelib chiqib ushbu maqol paydo bo'lgan.

Turk maqollarida erkakning metaforik obrazi

Erkaklar va ayollar turli tillardan foydalanishlari sotsiologiyada yillar davomida o'rganilayotgan asosiy masalalardan biridir. Ayol ishlatadigan til erkak ishlatadigan tildan farq qilishidan tashqari, Lakoff jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan til ham turlicha ekanligini ta'kidlaydi. Til jins vakillarining fikrlarini qadrsizlantirishi yoki jamiyatdagi o'rnini pasaytirishi mumkin. U jinsga asoslangan ijtimoiy stereotiplar majmuini yaratadi. "Erkaklar shafqatsiz" yoki "Ayollar matematikani tushunmaydilar" kabi. Jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan tilni o'rganish ana shu stereotiplarni ochishga yordam beradi¹⁰⁵. Aristotel davridan beri faqat adabiy tilning bir qismi sifatida ko'rilgan va ritorikadagi ritorikadan biri bo'lgan metafora san'ati kundalik tilning ajralmas qismi bo'lib, madaniy xulq-atvorni ochib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Metaforik so'z – bu o'xshash tushunchani ifodalash uchun ishlatiladigan bir yoki bir nechta so'zlarning odatiy, an'anaviy ma'nosidan tashqari, tushuncha uchun ishlatiladigan lingvistik elementlardir. Bu bir semantik maydonni boshqa semantik maydon bilan aniqlashdir. Metaforalar nafaqat fikrni tasvirlash va insonning xohish-istaklari, his-tuyg'ulari va fikrlarini yoritish uchun emas, balki ijtimoiy xulq-atvor modellari va munosabatlarini ham ochib beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yoki tilning madaniyatni aks ettirish kuchi yangi nuqtayi nazar emas. Ushbu g'oya va uning asosidagi jarayonlarni chuqur o'rganishni birinchi bo'lib Lakoff va Jonson o'zlarining "Biz bilan yonma-yon yashayotgan metafora"¹⁰⁶ asarida amalga oshirgan. Ular ilgari surgan "Konseptual metafora nazariyasi" bilan metafora nafaqat til bezaklari, balki tafakkur tizimi va madaniyatining ifodasi ekanligini ham taklif qildilar.

Lakoff va Jonsonning kontseptual metaforalari ikki qismdan iborat: manba kontseptual soha va maqsadli kontseptual soha.

¹⁰⁵ Alagözlü, N. Dil ve Cins: Türkçe Atasözlerinde ve Deyimlerinde Kadın Üzerine Eğretilmeler ve Toplum-Bilişsel Yapı // International Journal of Central Asian Studies, Volume 13. – 2009. – 38.s.

¹⁰⁶ Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980.

Ushbu ikkita kontseptual soha uchun ikkita asosiy vazifa mavjud: metafora ifodalari uchun “manba domen” (source domen) va biz tushunishga harakat qilayotgan “nishon domen” (target domen). Xarita deb ataladigan tasvir maqsad va manba maydonlarini tashkil etuvchi elementlar o’rtasidagi tizimli aloqalar seriyasidir. Maqsadli hududning ko’plab elementlari manba hududidan keladi. O’xshashning barcha xilma-xil tomonlari bu taqsimotda o’xshash va o’xshatish o’rtasidagi munosabatda taqdim etiladi va uni har tomonlama tavsiflaydi. Ushbu taqsimotni miyadagi kontseptual metaforalarga misol sifatida keltirish mumkin, Lakoff va Jonson ishidagi “vaqt” tushunchasi. Vaqt tushunchasini “pul” tushunchasi yordamida tushuntirish yoki tushunish mumkin¹⁰⁷. Masalan, u sarflanadigan, qimmatli narsa. Yana “hayot” tushunchasi sayohat tushunchasi bilan izohlanadi. “Hayot - bu sayohat”. “Uning boshlanishi va oxiri bor”, “Bu jarayon”, “Uning maqsadi bor”, “Bu harakat” kabi.

Metafora va idrok o’rtasidagi taxminiy munosabat metafora va mafkura (dunyoga qarash) munosabatini ham ko’rsatadi va nutqning g’oyaviy tuzilishini tizimli ravishda o’qishni ta’minlaydi. Metafora til dunyoqarashini aks ettirishda katta rol o’ynaydi. Ta’riflanayotgan yoki tavsiflanadigan tushuncha bilan bog’liq bo’lgan boshqa tushunchalar turkumining ijobiy yoki salbiy ma’nolarni yuzaga keltirishi tasvirlanayotgan tushunchaga munosabat va qarashlarni ochib beradi.

Endi turk maqollarida kelgan oilada er, erkak obrazlarining metaforik reprezentatsiyasini ko’rib chiqamiz. Biror narsa, so’z yoki hodisani muayyan tarzda tasvirlash, ifodalab berish reprezentatsiyalashuv deb ataladi¹⁰⁸. Quyida keladigan fasllarda turk maqollarida erkak obrazining metofarik ifodalari qay tarzda keltirilganligini ko’zdan kechiramiz va tahlilga tortamiz.

Birinchi galda turmush qurishdan oldingi holat yuzasidan turk xalqi madaniyatida, tafakkurida erkak kishi, agar uylanishni kechiktirayotgan yoki uylanish masalasida qat’iy qaror qabul qila olmayotgan bo’lsa, **“xarob, kulgili, bemakon, notavon”** holatda

¹⁰⁷ Lakoff G., Johnson M. Ko’rsatilgan asar. – Chicago, 1980. – p.9

¹⁰⁸ Representation, Oxford Advanced Learner’s Dictionary, Eighth edition. – England: Oxford University press, 2012. – p.1296

gavdalanadi: *Bekarın boynunu bit yer, tutup biriktirdiğini it yer* (M.Y., 200), *Bekarın parasını it yer, yakasını bit* (M.Y., 201) (Bo'ydoqning pulini it yeydi, yoqasini bit); *Bekârlık maskaralıktır* (M.Y., 201) (Bo'ydoqlik masxara bo'lishdir); *Bekarın mekanı sorulmaz* (M.Y., 200) (Bo'ydoqning manzili so'ralmaydi); *Bekarın ahmağı toyda/düğünde kız beğenir* (M.Y., 200) (Axmoq bo'ydoq to'yda qiz tanlaydi) yoki *Bekâr gözü kör gözü* (M.Y., 200) (Bo'ydoq ko'z, ko'r ko'zi). Bo'ydoqlik *it, bit, masxara bo'lish, manzili yo'q, axmoq* so'zlari yordamida ifodalangan. *Bekarlık sultanlıktık* (M.Y., 201) (Bo'ydoqlik sultonlikdir) maqolidan boshqa barcha bo'ydoqlik haqidagi maqollar bu davrning salbiy holat ekanligiga va yigitlarni o'z vaqtida uylanishga tashviq qiladi. Hatto, nikoh-ning ilohiy ekanligiga urg'u beradi: *Nikahta keramet var* (M.Y., 208) (Nikohda karomat bor); *Allah evlenenle ev yapana yardım eder* (M.Y., 199) (Uylanganga va uy olganga Alloh o'zi yordam beradi). Karomat so'zi arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, komillikka erishgan va valiyulloh insonlarning g'ayrioddiy ishlari, noodatiy voqea-hodisa degan ma'noni anglatadi. Ya'ni uylanish gayrioddiy, muqaddas (Alloh yordami) bo'lgan hodisa sifatida qoraladi.

Erkak kishining xarakteridan kelib chiqqan holda uning tezda qizishib ketishi, ko'pirb toshishi va bu holatda oila ichida ayol ko'l misoli sokin turishi lozimligi *Erkek sel, kadın göl* (M.Y., 203) (Erkak sel, xotin ko'l) maqoli orqali uqtiriladi. Ayol kishi biroz bardoshli bo'lsa, turmush mustahkamligi ta'minlanadi. Har ikki taraf ham yon bosmaydigan bo'lsa *Bir evde iki horoz olunca sabah güç olur* (M.Y., 200) (Bir uyda ikki xo'roz bo'lsa tong otishi qiyin bo'ladi) oilada tinchlik bo'lmaydi, farovon turmush haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas.

Turk madaniyatida erkak "**oluvchi**" hisoblanadi: *Alma soysuzun kızını, sürer gider anasının izini* (M.Y., 199) (Olma nasl-nasab-sizning qizini, davom etar onasining izini); *Al görmüşün kızını, tutsun dolana dolana; al görmemişin kızını, tutsun ilene ilene* (M.Y., 199) (Ol ko'rganning qizini, ro'zg'orni aylanib-o'rgilib tebratsin, ol ko'rmaganning qizini, ro'zg'orni elanib-yalinib tebratsin); *Aldığın kadının ya gümüşü olmalı ya da kömürü* (M.Y., 199) (Olgan ayolingning yo kumushi bo'lsin, yo ko'miri); *Asilzadeyi almak zordur, geçinmek kolaydır* (M.Y., 199) (Aslzodani olish qiyin,

yashash oson). Guvohi bo'lganingizdek, keltirilgan barcha maqollarda erkak kishiga nisbatan "olmoq" fe'lidan foydalanilgan.

Shuningdek, turk maqollarida erkak kishining **"diqqatli, hisob-kitobli, kelajak haqida qayg'uradigan, ehtiyotkor"** bo'lishi talab qilinadi: *At alırsan yazın al, deve alırsan güzün al, avrat alırsan gezin al* (M.Y., 200) (Ot olsang yozda ol, tuya olsang kuzda ol, ayol olsang, kezib-ko'rib ol); *At alırsan taydan, kız alırsan soydan al* (M.Y., 200) (Ot olsang, toy ol, qiz olsang, nasl-nasablisini ol); *Eşeğin bozunu alma, hırsızın kızını alma* (M.Y., 203) (Eshakning bo'zini olma, o'g'rining qizini olma); *Anasına bak kızını al, kenarına/kıyısına/tarağma bak bezini al* (M.Y., 199) (Onasini ko'rib qizini ol, cheti/xoshiyasini ko'rib, matosini ol); *Alma avradın dulunu, yanında getirir kulunu* (M.Y., 199) (Olma tul xotinni, yonida olib kelar qulini); *Avratla atı emanet etme* (M.Y., 200) (Ayol kishi va otni omonat qoldirma). Turmush o'rtoq tanlash chog'idagi yigit diqqat-e'tiborli, o'zining nasl davomchilari haqida qayg'urishi, buning uchun esa qizning nasl-nasabi muhim ekanligi, beva ayoldan ehtiyot bo'lishi lozimligi uqtiriladi. *Gezinmek* fe'li aylanib chiqmoq ma'nosini beradi, ya'ni biror mahsulotni olish jarayonida bozorni aylanib yaxshisini, sifatlisini tanlashni anglatadi. Maqolda ham qiz tanlashda shu usuldan foydalanish nazarda tutilgan. *Soy* so'zi esa asl, toza nasabni, *hırsız* esa o'g'ri ya'ni nasl-nasabsiz, nasli buzuv insonni bildiradi. Qiz bola onasidan o'zlashtirganlarini o'z hayotida qo'llagani bois, onalarini kuzatish tavsiya qilinadi. *Dul kadın* – tul xotin eri vafot etgan yoki eridan ajrashgan ayolga nisbatan turk madaniyatida salbiy qarash bor. Maqolda asosan eridan ajrashgan tul xotindan ehtiyot bo'lishga chaqiriq bor. Shuningdek, ayol va otni begona kishiga omonat qoldirmaslik lozimligi uqtiriladi, bu borada ham ehtiyotkorlikni qo'ldan bermaslik masalasida qat'iy talab qo'yiladi.

Turk madaniyatida ot va ayol yigit baxtining asosiy belgisi hisoblanadi. Qadimda urushlar, yurishlar, boshqa hududlarga ko'chib o'tishlar asosan ot ustida amalga oshirilgan. Otning chayirligi, chidamliligi, uchqurligi egasini har qanday qiyin vaziyatlardan olib chiqib ketgan. Ayol kishi ham erkakning umr yo'lida unga har jihatdan madadkor bo'lishi, qo'llab-quvvatlashi, tushunishi kerak bo'ladi. Bunday ot va ayol har bir turk erkagining orzusi va

maqsadiga erishtiruvchi bosh omillari hisoblanagan: *At ile avrat yigidin bahtına* (M.Y., 200) (Ot bilan ayol yigitning baxtini bildiradi); *Atta, avratta uğur vardır* (M.Y., 200) (Otda va ayolda tole bor). Shuning uchun har ikkalasini tanlashda e'tiborli bo'lish talab qilinadi: *At alırsan başlıdan, kız alırsan çarlıdan* (M.Y., 200) (Ot olsang boshi kattasidan, qiz olsang eplisidan). Maqollarda ayol ot bilan bir o'rinda qo'llangan bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bularning har ikkalasi omad va baxt timsollari hisoblanadi.

Turk maqollari erkak kishini "**rashkchi, nazoratchi**" sifatida nayomon qiladi: *Dişisini kıskanmayan domuzdur* (M.Y., 202) (Ayolini qizg'onmagan to'ng'izdir); *Horoz bile dişisini kıskanır* (M.Y., 205) (Xo'roz ham tovuqni qizg'onadi); *Elin işte, gözün eşte olsun* (M.Y., 202) (Qo'ling ishda, ko'zing xotiningda bo'lsin); *Avrat attır, gemini boş tutma* (M.Y., 200) (Ayol otdir, jilovini bo'sh qo'yma). Ushbu maqollarda erkak kishining rashk qilishi tabiiy holat hisoblanishi, zero qizg'onmaslik hayvonlar orasida ham to'ng'izga xosligi ta'kidlanadi. Maqollardagi to'ng'iz va xo'roz obrazlari diniy jihatdan ham alohida ma'no kasb etgan. Turkiy xalqlar uchun diniy jihatdan to'ng'iz juftini qizg'onmaydigan, bolalarini yeb qo'yadigan, go'shti shar'an man qilingan hayvon hisoblanadi. Xo'roz esa go'shti halol, odatda, bir uyada bir xo'roz va bir nechta tovuq bo'lishiga qaramay, o'z uyadosh tovuqlarni begona xo'rozlardan qizg'ongani uchun ham ijobiy namuna sifatida keltirilgan. *gözün birini üzerinde olmak* – iborasi so'zma-so'z tarjimasi "ko'zi biror kishining ustida bo'lmoq" bo'lib, biror kishini kuzatib turmoq, nazorat qilib turmoq ma'nolarini anglatadi. Maqoldagi *gözün eşte olsun* jumlası ham "ayolingni e'tiborsiz qoldirma, uni nazorat ostida tut" ma'nosida kelgan. Gem – jilov so'zi ham o'z navbatida nazoratni bildirmoqda.

Turk madaniyatida ko'pxotinlik holati keng miqyosda uchramasa ham maqollarda erkaklarning bunga moyilli ekanligini "**erkak qalbi enginor**" metaforasi orqali ifodalaydi. *Erkeğin kalbi enginar yaprağıdır, her katında bir kadın yatar* (M.Y., 203) (Erkak qalbi enginor, har qatlamida bir ayol yotadi). Enginor ko'rinishi yurakni eslatadigan, barglari qat-qat bo'lgan o'simlikdir. Biroq turk madaniyatida qo'shxotinlik salbiy qarshılanadi: *İki karılı bitten, iki analı sütten ölür* (M.Y., 205) (Ikki xotinli bitdan, ikki

onali sutda o'лади); *Dü zen olan evde düzen olmaz* (M.Y., 202) (Ikki xotin bor uyda tartib bo'lmaydi) va odatda bundan qaytariladi.

Er oilada "**kenglik, saxiylik, beminnatlik**"ni ifodalaydi va shunday xislatlar bo'lishi talab qilinadi. *Er ekmeği, meydan ekmeği* (M.Y., 202) (Erning noni, maydon noni); *Baba/Evlat/Oğul ekmeği zindan ekmeği, koca/er ekmeği meydan ekmeği* (M.Y., 200) (Ota/farzand/ o'g'il noni zindon noni, er noni maydon noni); *Er ekmeği minnetsiz* (M.Y., 202) (Erning noni beminnat bo'ladı); *Er cimri olursa, avrat yüz süz olur* (M.Y., 202) (Er xasis bo'lsa, xotin yuzsiz bo'ladı). Maydon, beminnat va xasis so'zlari orqali oilada er kishining qanday ekanligi va qanda bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Erning mehnati, uning oila ta'minoti hattoki ota va farzandnikidan ustun ko'rilgan.

Er kishi oilada boshqaruvchi, himoyachi bo'lishi bilan birga turk madaniyati nuqtayi nazaridan oilaning egasi, uning ruxsati va izni bilan bir narsa tashqariga beriladi. Xuddi shu tarzda oiladagi qizlar ham ota tomonidan, uning izni bilan beriladi. Shu jihati bilan erkak oilada "**ega, beruvchi**" sifatida namoyon bo'ladı: *Babasının mezarını bilmediğin adama kız verme* (M.Y., 200) (Otasining mozorini bilmagan odamingga qiz berma); *Çobana verme kızı, ya koyun güttürür ya kuzu* (M.Y., 201) (Cho'ponga qiz berma, yo qo'y boqtiradi, yo qo'zi); *Genci gence ver de rizklarını Allah versin* (M.Y., 204) (Yoshni yoshga ber rizqini Alloh bersin). 'Otasining mozorini bilmagan odaming' ta'biri yaxshi tanimagan, bilmagan inson yoki oila ma'nosini bildirib kelmoqda. Bunda nasl-nasab ota qabri metaforasi bilan ifodalangan. Cho'pon esa ikkinchi tomonning oilaviy jihatdan tengligi, mosligi jihatidan tanlangan obraz hisoblanadi. Har uchala maqolda ham bermoq fe'li odatda otalarga tavsiya va ogohlantirish tariqasida kelgan.

Oilada o'g'il farzand obrazining konseptuallashuvi

Turk xalqining oila hayotida farzandning o'rni katta. Oilada farzandning borligi oila uchun nafaqat ma'naviy boylik, balki naslning davomiyligi va oilaning mustahkam bo'lishi uchun ham muhim asos hisoblanadi. Turk tilida farzand so'zi *çocuk* (*kız çocuk, erkek çocuk*) va *evlat* so'zlari bilan ifodalanadi. Mazkur bo'limda

farzandning dunyoga kelishi, tarbiyasi, kamol topishi va bunda ota-onaning ta'siri kabi masalalar farzand bilan bog'liq turk xalq maqollari yordamida ochib beriladi.

Turklar ham boshqa turkiy xalqlar singari bolajon xalq hisoblanadi. Uyni daraxtga, farzandni esa mevaga qiyoslaydi: *Çocuk evin meyvesidir* (M.Y., 134) (Farzand uyning mevasidir). Meva daraxtning qanday(mevali yoki mevasi) ekanligi ko'rsatib beruvchi asosiy ramz hisoblansa, farzand ham uyning ya'ni oilaning bosh belgisi hisoblanmoqda. Uyning g'ala-g'ovur, xuddi bozor singari shovqinli bo'lishi tabiiy holat, hatto shunday bo'lishi niyat qilinadi: *Çocuklu ev pazar, çocuksuz ev mezar* (M.Y., 134) (Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor) zero, bolasiz uy jimjitlik hukmron mozorga o'xshatiladi. Farzandi bo'lishini xohlagan ota-onaning tashvishini ham bo'yniga olishi kerakligi *Çocuk isteyen belâsını da istemek gerek* (M.Y., 134) (Bolali bo'lishni istagan balosini ham istashi kerak) maqoli vositasida ifodalangan. Shuningdek, farzand katta qilib ming jafo chekishni, farzandsiz bo'lib bir dard chekishdan afzal deb biladi *Evlâdın varsa bin derdin var, evlâdın yoksa bir derdin var* (M.Y., 135) (Farzanding bo'lsa ming darding bor, farzanding yo'q bo'lsa bir darding bor), chunki farzand tarbiyalash, voyaga yetkazish o'ta mashaqqatli ish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda farzandi yesin deb o'zi yemaydi yoxud tosh kemiradi - *Çocuk büyütmek taş kemirmek* (M.Y., 133) (Bola ulg'aytirish – tosh kemirish). Ko'pfarzandlilik azal-azaldan turkiy xalqlarga xos bo'lib kelgan. Lekin farzandlarning ko'pligi ham ota-onani mushkul ahvolga solib qo'yishi hech kimga sir emas. Bu holat maqollarda ham o'z aksini topgan *Çok çocuk anayı şaşkın, babayı düşkün eder* (M.Y., 134) (Ko'p bola onani sarson, otani o'ychan qiladi).

Oilaning mustahkamligi, uning davomiyligini saqlash sog'lom, aqli raso onaga bog'liq bo'ladi. Onaning sog'lomligi esa bolaning sog'lomligi demakdir: *Anadan olur dana, hamurdan olur maya* (M.Y., 49) (Buzoq onadan, achitqi (xamirturush) xamirdan).

Farzand dunyoga kelganida, ayniqsa, o'g'il farzand dunyoga kelganida ayollar darajasi bir pog'ona oshadi. Bu bilan bog'liq mulohaza va tahlillarimizni farzand bilan bog'liq faslda batafsil yoritishga harakat qilamiz. Bu yerda faqatgina o'g'il farzandning

ham uy-oilaning ichidan tashqariga yo'nalganligiga doir maqolga to'xtalib o'tamiz. *Doğurdum oğlum oldu, evlendi komşum oldu* (M.Y., 134) (Tug'dim o'g'lim bo'ldi, uylandi qo'shnim bo'ldi) maqolida turk xalqi madaniyatidagi yana bir xislatni kuzatishimiz mumkin. Erkak uylanganidan keyin ota-onasi dargohidan alohida chiqib, boshqa bir oilaga asos soladi. Hattoki ayrim maqollarida ota-ona bilan birgalikda qarimaslik kerak (*Baba ile ana ile yaşanılmaz* (M.Y., 200)) maqoli ham bor. Bu yerdagi diqqat qaratmoqchi bo'lgan jihatimiz "tashqari" yoki "tashqaridagi odam" faqatgina er yoki ota emas, o'g'il farzand (komşu) ham anglatmoqda. Bu xulosamizni quvvatlovchi yana bir maqol *Ekin ektim yel aldı, değirmen yaptım sel aldı, oğul yetiştirdim el aldı* (M.Y., 134) (Ekin ekdim yel oldi, tegirmoq qurdim sel oldi, o'g'il o'stirdim el (begona) oldi). Mazkur maqolda *yel, sel, el* so'zlari o'zaro qofiya hosil qilib kelgan bo'lib, bu yerdagi asosiy urg'u o'g'il farzandning uylanganidan keyingi holati, ya'ni begonalashuviga (el aldı) qaratilgan. Oilani markaz deb qaraydigan bo'lsak, o'g'il farzandning uylanganidan keyingi holatini markazdan uzolashuvga o'xshatsak bo'ladi. Faqat bu yerdagi uzoqlashuv boshqa bir markazni hosil qilish uchun amalga oshiriladi.

Jamiyat dunyoga kelgan farzandining jinsiga qarab ota-onaga muomalada bo'lgan. Ayniqsa, ayollarga qarash, munosabat, izzat-ikrom yoxud buning aksi, u dunyoga keltirgan qiz farzand orqali butunlay o'zgargan. O'g'il farzandga avlod davomchisi, oila tayanchi sifatida *Oğlandır oktur, her evde yoktur* (O'g'il o'qdir, har uyda yo'qdir) qaralgan va o'g'il farzand orqali oilada ayolning mavqeyi ham bir pog'ona yuksalgan *Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün* (O'g'il tug'gan maqtansin, qiz tug'gan o'zini-o'zi mushtlasin). O'g'il farzandni dunyoga keltirish har bir ayolga ham nasib qilmaydi yoki mard ayol dunyoga ketiradi degan qarash maqollarda o'z aksini topgan *Oğlanı her karı doğurmaz, er karı doğurur* (O'g'ilni har ayol tug'maydi, er ayol tug'adi). Qiz farzand esa birovning hasmi, ketguvchi mehmondek qaraladi *Kız evde olsa da elden sayılır* (Qiz uyda bo'lsa ham birovniki hisoblanadi). Qiz farzand dunyoga keltirgan ayolga nisbatan *Kız doğuran tez kocar* (Qiz tug'gan tez qariydi) maqoli ishlatiladi. O'g'il bolaga nisbatan qiz bolaning tarbiyasi mushkulligini *Kız yükü tuz yükü* (Qiz yuki –

tuz yuki) bilan qiyoslanadi. Qiz farzand maqollarda oila uchun *xarajat*, ota uchun *malomat*, ona uchun *ko'makchi* va kelin bo'lish oldidan *mehmon* sifatida qaralgan¹⁰⁹.

"Mag'zi danagidan shirin", *"bolaginamning bolasi"* iboralari o'zbek xalqining nabiraga nisbatan izzatini bildiradi. Turk xalqida ham *O'g'laninki o'g'ul bali, kizinki bahçe gülü* (O'g'lninki o'g'il asali, qizniki bog'cha guli) maqoli ham aynan mana shu masalaga qaratilgan.

Tukr xalqi farzandlarga qadimdan alohida e'tiborda bo'lgan va o'z naslining davomchisi sifatida qaragan. Dunyoga keladigan bola o'z rizqi bilan kelishiga ishonganlar. Buni ifodalashda esa "uloqcha tug'lsa, qirda o'ti unib chiqadi" ma'nosidagi maqoldan foydalan-ganlar: *Ağilda oğlak doğsa ovada otu biter* (Otarida uloq tug'lsa, yaylovda o'ti unadi). Uloqcha, echki obrazlari turk xalq maqollari-da ota-onaning farzandiga o'rnak bo'lishi kerakligi, unga tarbiya berishi lozimligini ta'kidlash ma'nosida tez-tez uchrab turadi: *Ağaca (taşa) çıkan keçinin dala bakan (ağaca çıkan) oğlağı olur* (Daraxtga chiqqan echkinning shoxga qaragan ulog'i bo'ladi); *Keçi nereye çıkarsa oğlağı da oraya çıkar* (Echki qayerga chiqsa, uloqchasi ham o'sha yerga chiqadi). O'zbek xalqida "bo'ladigan bola boshidan ma'lum" degan maqol, turk xalqida yana aynan uloqcha obrazi orqali o'z ifodasini topgan: *Olgaç oğlak bokundan belli* (Bo'ladigan uloq qiyidan ma'lum). Turk xalq madaniyatida ham tarbiya boshqa xalqlardagi kabi o'ziga xos katta ahamiyatga ega. Farzandaga yoshligidanoq to'g'ri tarbiya berish, unga qanday tarbiya berilsa, keljakda shunga yarasha javob qaytishi *Ağaç yaşken eğilir* (Daraxt novda payti egiladi), *Arpa eken buğday biçmez* (Arpa ekkan, bug'doy o'rmaydi) maqollaridan anglashilga-nidek, har doim ham yaxshi ota-onadan yaxshi farzandlar tug'ila-vermasligi va aksincha bo'lishi ham mumkinligi *Bir ağaçta gül de biter, diken de* (Bir daraxtda gul ham bitar, tikon ham) maqoli orqali bayon qilinadi.

Tarbiya berishda ba'zi ota-onalarning qattiqqo'l bo'lishlari, hatto, ba'zida kaltaklashlari mumkinligi maqollarda uchraydi: *Ayi*

¹⁰⁹ Altinboyev N.A., *Turkcha maqollarda qiz farzand to'g'risidagi qarashlar tadqiqi*. Madaniyatlararo muloqotda sharq tillarining ahamiyati. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman ma-teraillari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti. T: 2021, 640-645-bb.

sevdigi yavrusunu hırpalar (Ayiқ yaxshi ko'rgan bolasini uradi). *Harmanda dirgen (tırpan) yiye sıpа, yılına kadar acısını unutmaz* (Xirmonda tayoq yegan xo'tik, bir yoshga qadar og'rig'ini esdan chiqarmaydi). Bunda ayiq timsolida ota-ona, xo'tik timsolida esa farzand obrazi keltirilgan. Ba'zan esa farzandlar ota-onalarini mushkul ahvolga solib qo'yishlari mumkin, bu holat ham aynan xo'tik timsolida ifodalanadi: *Eşegi yoldan çıkaran sıpаnın oynaması* (Eshakni yo'ldan chiqaradigan uning xo'tigidir). Yuqorida nasl-nasab masalasida to'xtalganimizda, ota-onasiga o'xshagan farzandning dunyoga kelishi haqida aytgan edik. Lekin, afsuski, ba'zan yaxshi ota-onadan ham noqobil farzandlar dunyoga kelishi hayotda juda ko'plab uchraydigan hodisalardan biridir. Bu holat ham turk xalqi e'tiboridan chetda qolmagan: *Ala keçi her vakit püsküllü oğlak doğurmaz* (Ola echki har doim kokilli uloqcha tug'avermaydi), *Ak koyunun kara kuzusu da olur* (Oq qo'yning qora qo'zisi ham bo'ladi). Hatto, tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onasining gapiga kirmaydi yoxud ularga nisbatan behurmatlik qiladi: *Yaza çıkardık danayı, beğenmez oldu anayı* (Buzoqni yozga chiqardik, onani tan olmay qo'ydi). Zero, ota-ona farzandiga qanchalik mehr-shafqat ko'rsatmasin, farzandlar ota-onasiga nisbatan o'zlariga ko'rsatilganichalik mehr-muhabbat ko'rsata olmaydilar: *Koyunun melediğini kuzu melemmez* (Qo'y maraganidek qo'zi maramaydi). Garchi farzandlari qanchalik yomon bo'lsa-da, ota-ona uchun u baribir farzand bo'lib qolaveradi: *Ayı 'akım', kirpi 'yumuşakım' demiş* (Ayiқ oppog'im, tipratikon yumshog'im, der ekan). Afsuski, ota-onalar orasida ham ba'zan o'z manfaati uchun farzandini xavfga qo'yadiganlar, ulardan voz kechadiganlar ham uchrab turadi. Bu esa maqollarda hayvonlar orasida qo'rsligi bilan mashhur bo'lgan *ayiq* va hayvonlar orasida behurmat bo'lgan *maymun* timsollari orqali ifodalani: *Ayıyı (maymunu) fırına (ateşe) atmışlar, yavrusunu ayağının altına almış* (Ayiқni olovga otishgan ekan, bolasini oyog'i ostiga olibdi). Hayotimizda farzandlarning ota-onadan mahrum bo'lib, yetim qolgan vaqtida jamiyat tomonidan ularga bo'ladigan munosabat xalq nazaridan chetda qolmaganligini ko'rishimiz mumkin: *Alçak eşek binmeye kolay, öksüz çocuk dövmeye kolay* (Pastgina eshak minishga, yetim bola kaltaklashga qulay). Bu holat xuddi past bo'yli eshakni minish qay

darajada qulay bo'lsa, yetim bolani tahqirlash yoki ishlatish shunday oson, uning qarovchisi, qo'ruvchisi yo'q, deyilmoqda. Hatto, bunday bolalardan kelajakda ham ko'p narsa kutilmaydi: *Öksüz kuzu toklu olmaz* (Yetim qo'zi to'qli bo'lmaydi). Aksincha, ota-onasi bor farzandlar erkalanadi, suyiladi va qolganlar tomonidan ham e'zozlanadi: *Analı kuzu, kınalı kuzu* (Onali qo'zi, xinali qo'zi)¹¹⁰. Onasi bor farzand har tomonlama ona muhofazasida bo'lishiga ishora qilinadi.

Bolaning xarakteri asosan onadan o'tadi *Çocuğuna iyi-kötü huy anadan gelir* (Bolangga yaxshi-yomon xarakter onasidan o'tadi), *Soydur çeker, huydur geçer* (Nasl tortadi, xarakter o'tadi). Uning tarbiyasi ham asosan onaning tarbiyasi, axloqiga bog'liq *Meyve ağacından uzak düşmez* (Meva daraxtdan uzoqqa tushmaydi), *Armut dalının dibine düşer* (Nok shoxining tagiga tushadi). Ona farzandi uchun ko'zgu *Ağaca çıkan keçinin dala bakan oğlağı olur* (Daraxtga chiqqan echkinning unga qarab turgan uloqchasi bo'ladi) u nima qilsa, farzandi ham shuni qilishga urinadi. Har doim ham farzandning yomon xulqli bo'lishiga ota-onaya aybdor bo'lavermaydi. Oiladan tashqaridagi muhit ham bunga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Farzandidan ziyon-zahmat kelsa ham, ona uni yomon ko'rmaydi *Ağaca balta vurmuşlar, sapi bedenimden demiş* (Daraxtga bolta urishibdi, sopi tanamdan debdi). Qaysi ona farzandini yomon deydi axir: *Karga yavrusuna bakmış "benim ak evladım" demiş* (Qarg'a bolasiga qarab: "Mening oppoq bolam", - degan ekan). Farzand har qanday sharoitda ham onasi unga eng sodiq do'st ekanligini *Ana gibi yar, Bağdat gibi diyar olmaz* (Onaday do'st, Bog'dod kabi diyor topilmas) va tashvish kelganda ona kabi hech kim ichdan kuyinmasligini *Ağlasa anam ağlar başkası yalan ağlar* (Yig'lasa onam yig'laydi, qolganlar yolg'ondan yig'laydi) his qilib yashashi lozim.

Oilada o'g'il farzand tarbiyasini asosan otadan oladi. U mehr ko'rsatsa, bola ham mehribon bo'ladi: *Sen seversen oğlunu, o da sever oğlunu* (Sen bolangni yaxshi ko'rsang, bolang ham bolasini yaxshi ko'radi), birorta noto'g'ri ish bilan o'rnak bo'lsa, o'g'li ham

¹¹⁰ Altinboyev N. Zoonimlar qatnashgan turk xalq maqollarida "oila" tushunchasi, Sharq xalqlari folklori – milliy qadriyatlar in'ikosi, Xalqaro ilmiy konferensiya, Toshkent, 2021, 320-21-bb.

shu ishni qilishga harakat qiladi: *Babasi ekşi elma yer, oğlunun dişi kamaşır* (Otasi nordon olma yebdi, o'g'lining tishi qamashibdi) yoki *Baba koruk yer, oğlunun dişi kamaşır* (Ota dovcha yeydi, o'g'lining tishi qamashadi). Ushbu maqolning *Dedesi koruk yemiş, oğlunun dişi kamaşmış* (Bobosi dovcha yegan ekan, o'g'lining tishi qamashibdi) shakli ham bor.

Ota ham oila davomiyligini ta'minlash, qadriyatlarni va an'analarni kelajak avlodga yetkazish, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish borasida, xususan, o'g'il bola tarbiyasida asosiy rolni o'ynaydi. Xalqimiz orasida "ota o'g'il" tabiri tez-tez uchrab turadi. Bu o'g'il farzandning otaga ko'rinish, xarakter jihatidan o'xshash bo'lishini ifodalash uchun ishlatiladi. "Devoni lug'otit turk"da ham shu kabi holatlarni aks ettiruvchi maqollarga duch kelamiz: *Atası ogli ataç togar* (O'g'il axloqan otasiga o'xshar). Ba'zan otalarning noto'g'ri xatti-harakati, qilmishi uchun bolalar javob berishiga to'g'ri keladi: *Ata acıg alımla yîse oğlının tîşî kamar* (Ota achchiq olma yesa, o'g'lining tishi qamashar), lekin ba'zan farzandlarning ham otalariga nisbatan nohaqlik qilishlari, ularning nasihatlariga quloq solmasliklari kundalik hayotimizda uchramaydigan holat emas. Farzand ulg'ayganidan so'ng, "men"i kuchayadi, o'zini otasining nasihatlariga muhtoj emasdek his qila boshlaydi. Bu holat "Devoni lug'otit turk"dagi *Ata tōnu ogulka yarasa atasın tilemes* (Otaning to'ni o'g'ilning kuniga yarasa, otasini tilamas (istamas), maqoli yordamida ifodalanadi¹¹¹. Tabiiyki, otaga nisbatan qilingan bunday munosabat qoralangan va yoshlar bundan qaytarilgan.

Turkiy xalqlarda oilada o'g'il farzandga alohida e'tibor bilan qaraladi, tug'ilajak farzandning o'g'il bo'lishi uchun duo qilinadi. O'gil farzandga nisbatan birinchi galda, nasl davomchisi, oila va vatan qo'riqchisi, oilaning kelajakdagi ta'minotchisi, boquvchisi sifatida qaraladi. O'g'il otaning oiladagi vazifalarini kichikligidan ko'rib, o'rganib ulg'ayadi. *Tay atatsa at tınur ogul eredse ata tınur* (Toychoq ot bo'lganida – ot, o'g'il ulg'ayganida ota dam oladi) tabiri o'g'ilning voyaga yetganini, oila ko'magiga tayyor bo'lganli-

¹¹¹ Altinboyev N. "Devonu lug'ati-t-turk"da kelgan "oila" bilan bog'liq maqollar tahlili // Turkologiya, Xalqaro ilmiy jurnal, 3-son. – Toshkent, 2021. – 98-b.

gini bildiradi. Bu esa o'g'ilning ota qo'lidagi ishini olib, uning dam olishini ta'minlovchi o'ziga xos odat – an'ana hisoblanadi.

Hech bir ota farzandiga yomonlik sog'inmaydi: *Baba oğlunun fenaliğini istemez* (Ota o'g'liga yomonlik tilamaydi) aksincha, uning kamolini istaydi: *Atalar çıkarayım der tahta, döner dolaşır gelir bahta* (Otalar taxtga chiqaraman deydi, baxtga erishadi). Doimo ota nasihatini quloqqa osish kerakligi: *Baba nasihatı tutmayan pişman olur* (Ota nasihatini olmagan pushaymon bo'ladi) va uni e'zozlashi lozimligi *Baba himmet, oğul hizmet* (Ota himmat, farzand xizmat) maqollari vositasida uqtiriladi. Otaning hurmat e'tibori bolaga qolmasligi *Babadan mal kalır, kemal kalmaz* (Otadan mol qoladi, kamol qolmaydi) va bu narsa farzandning oqilligiga, saxovatiga hamda odilligiga bog'liq ekanligi, otasidan qolgan davlatni ko'paytirish yoxud yo'q qilish ham *Akıllı oğlan neyler ata malını, akılsız oğlan neyler ata malını* (Oqil farzand nima qilsin ota molini, axmoq farzand nimalar qilmaydi ota molini), ota nomini ulug'lash yoki badnom qilishi ham *İyi evlat babayı vezir, kötü evlat babayı rezil eder* (Yaxshi farzand otani vazir, yomon farzand otani razil qiladi) faqatgina bolaning o'ziga bog'liqligi maqollarda o'z aksini topgan. O'g'ilning yaxshi tarbiya ko'rganligini bir nechta sifatlarda ko'rish mumkin bo'ladi: otasining do'stlariga hurmat ko'rsatish *Ata dostu oğula mirastır* (Ota do'sti o'g'ilga merosdir), otasidan oldinga o'tib yurmaslik *Atanın önünden geçeni Allah sevmez* (Otaning oldini kesib o'tganni Alloh ham suymas) va otasining qarzini o'z qarzi deb bilish *Baba borcu evlâda düşer* (Ota qarzi farzand bo'yniga tushadi). Aksincha, tarbiyasiz, ota-onasini e'zozlamaydigan farzandlar ham yo'q emasligi *Babası oğluna bir bağ bırakmış, oğul babaya bir salkım üzüm vermemiş* (Otasi o'g'liga bir bog' qoldiribdi, o'g'li otasiga bir shingil uzum bermabdi), farzandlar qanchalik ko'p bo'lmasin, bir otasini parvarishlay olmasligi *Bir baba dokuz evladı besler, dokuz evlat bir babayı besleyemez* (Bir ota to'qqiz farzandni boqadi, to'qqiz farzand bir otani boqol-maydi) maqollari orqali o'z ifodasini topgan, lekin ota-onani norozi qilish, ularning qarg'ishini olish *Ana baba bedduasını alan onmaz* (Ota-onani norozi qilgan o'nglanmaydi) yaxshilikka olib kelmaydi. *Anasını babasını dinlemeyen evlât, kocasını saymayan avrat, üvendere ile*

yürüyen atı kapında tutma hiç, durma sat (Ota onasiga quloq solmaydigan farzand, erini hurmat qilmaydigan xotin, qamchi zarbi bilan yuradigan otni uyingda tutma, sot) maqoli vositasida turk xalqi tarbiyasizlikni qattiq tanqid ostiga oladi va *Buyurmadan tutan evlât, çağırmadan kalkan avrat, orada olur devlet* (Aytmasdan tutadigan farzand, chaqirmasdan shay bo'ladigan xotin haqiqiy davlat bo'ladi) maqoli bilan esa tarbiyali farzandni ulug'laydi. Umuman olganda turk xalq maqollarida, *“yaxshi farzand kishi kelajagi uchun muhim ekanligi va aksincha, yomon, xayri yo'q farzandning kishiga bu dunyoni tor qilishi”*¹¹² ifodalanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, farzandlar ota-onasiga tortadilar *Oğlan babaya kız anaya çeker* (O'g'il otaga, qiz onaga tortadi) va ularning tarbiyasi farzandlarining hayot yo'lini belgilab berishda katta rol o'ynaydi *Oğlan atadan öğrenir sofr açmayı, kız anadan öğrenir biçki biçmeyi* (O'g'il otadan dasturxon ochishni, qiz onadan tikish tikishni o'rganadi), *Oğlan, babadan görür at oynatmayı; kız anadan görür sofr donatmasını* (O'g'il otadan ot o'ynatishni, qiz onadan dasturxon bezashni o'rganadi), ya'ni o'g'il bola otasini, qiz bola onasini o'ziga namuna sifatida ko'radi va har bir xatti-harakatini ularga qiyosan amalga oshiradi.

Turk xalqida ayol kishining mavqeyi farzand bilan o'lchanadi *Oğlanı kızı olmayan avrattan, eski hasır yeğdir* (O'g'il-qizi bo'lma-gan xotindan eski bo'yra Afzal), *Çocuksuz kadın meyvesiz ağaç gibidir* (Farzandsiz ayol mevasiz daraxt kabidir). O'g'il farzand dunyoga keltirgan ayolning mavqeyi bir barobar oshadi. Ayollar ham asosan qiz farzanddan ko'ra ko'proq o'g'il farzand dunyoga keltirishni xohlashgan *Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün* (O'g'il tug'gan maqtansin, qiz tug'gan tizzasini mushtlasin), chunki jamiyatda o'g'il farzandni har ayol ham tug'avermasligi, faqatgina “mard” ayollargina tug'ishi mumkin degan qarash bor *Oğlanı her karı doğurmaz, er karı doğurur* (O'g'ilni har xotin emas, er xotin tug'adi).

Oilada farzandlarning o'rni nechog'lik baland bo'lmasin, turmush o'rtog'ining o'rnini bosa olmaydi. Ko'proq beva ayollar *Otuz oğlun olacağına bir oturak kocan olsun* (O'ttizta o'g'ling

¹¹² Hirik, E. Türkiye Türkçesi Atasözlerinde Akrabalık Bildiren Kelimeler ve Duygu Değerleri // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. 6. Cilt. 3.Sayı. – s.1736

bo'lgandan, bitta sen bilan o'tiradigan ering bo'lsin ekan) maqoli orqali farzandlari unga qaray olmayotganidan yoxud kerakli mehrni berolmayotganidan emas, balki erning oilada va ayolning hayotida o'rni beqiyosligini uqtirmoqda. Turk xalqida erning noni beminnat ekanligini ta'kidlovchi quyidagi maqol ikki shaklga ega, ya'ni *Baba ekmeği zindan ekmeği, koca ekmeği meydan ekmeği* (Ota noni zindon noni, erning noni maydon noni) va *Oğul ekmeği zindan ekmeği, koca ekmeği meydan ekmeği* (O'g'il noni zindon noni, erning noni maydon noni). Birinchi maqolda ayollarning qizlik uyidagi voyaga yetgan holidagi, o'z uyiya o'zini begonadek his qilish holati bo'lsa, ikkinchi maqolda o'z o'g'li, farzandi mehnati evaziga kelyapti-yu, o'zini xijolatli his qilishi ifodalangan¹¹³. Bu maqol o'zbek tilidagi "Erimning topganini o'ynab yeyman, bolamning topganini o'ylab yeyman" maqoliga teng keladi.

Oqil-nodon farzand: *Aç aman bilmez, çocuk zaman bilmez* (Och qanoat bilmaydi, bola paytini bilmaydi), *Akıllı adamın akılsız oğlu olur* (Oqil odamning nodon o'g'li bo'ladi), *Akıllı oğlan neyler ata malını, akılsız oğlan neyler ata malını* (Oqil bola nima qiladi ota molini, nodon bola nimalar qilmaydi ota molini), *Çocuk ekmeği dolapta bitiyor/yetişiyor sanır* (Bola non shkafda o'sadi deb o'ylaydi).

Yaxshi- yomon farzand: *Baba oğluna bir bağ vermiş, oğlu babasına bir salkı üzüm vermemiş* (Ota o'g'liga bog' beribdi, o'g'li otasiga bir bosh uzum bermabdi), *Bir baba dokuz oğlanı besler, dokuz oğlan bir babaya bakamaz* (Bir ota to'qqiz bolani boqadi, to'qqiz bola bir otani boqa olmaydi), *Babasına hayrı olmayanın kime hayrı olur* (Otasiga yaxshiligi yo'q farzandning, kimga yaxshiligi bo'lsin), *Devletsiz oğlun olmadıktan, devletliye kul olmak yeğdir* (Davlatsiz (xayrsiz)o'g'ling bo'lgandan, davlatli(xayrli) odamga qul bo'lgan yaxshi), *Hayırsız evlat baba ocağına incir diker* (Xayrsiz bola ota o'chog'iga anjir ekadi), *İyi evlat babayı vezir eder, kötü evlat rezil eder* (Yaxshi farzand otani vazir, yomon farzand razil qilar), *İyi evlat tutar atanın malını, kötü evlat satar atanın malını* (Yaxshi farzand ushlab qolar ota molini, yomon farzand

¹¹³ Алтинбоев Н. Эр-хотин муносабатларини ифодаловчи туркча мақолларда "оила" концепти, *Sharqshunoslik*, ТДШУ Илмий журнали, 1 сон, Т., 2022, 77-б.

sotar ota molini), *İyi oğul bilir ana halini, kötü evlat satar baba malını* (Yaxshi o'g'il bilar ona holini, yomon o'g'il sotar ota molini).

Nasl-nasabiga tortgan fazrand: *Anaları neki danaları ne oldun* (Onasi kim-u bolasi (buzog'i) kim bo'lardi), *Öyle atadan böyle oğul* (Shunday otadan bundan o'g'il), *Kız halasına, oğlan dayısına* (Qiz ammasiga, o'g'il tog'asiga), *Kurdun oğlu kurt olur* (Bo'rining bolasi bo'ri bo'ladi), *Kurdun oğlu kuzu olmaz* (Bo'rining bolasi qo'zi bo'lmaydi),

Ota-onasi bor-yetim farzand: *Analı kuzu, kınalı kuzu* (Onali qo'zi, yopinchig'i bor qo'zi), *Anası olmayanın babası olmaz* (Onasi yo'qning otasi bo'lmaydi), *Anasız çocuk evde çürür, babasız çocuk çarşıda* (Onasiz bola uyda chiriydi, otasiz bola bozorda), *Anasız kuzu melemmez* (Onasiz qo'zi malamaydi), *Atasız uşak/evlat yularsız eşek* (Otasiz bola jilovsiz eshak), *Çam dalı ağıl olmaz, el oğlu oğul olmaz* (Archadan og'il bo'lmas, begonadan – o'g'il).

Ota-onasidan ildam, ularni ortda qoldiradigan farzand: *Anası ağaca çıkarsa, kızı budak budak gezer* (Onasi daraxtga chiqsa, qizi shoxma-shox yuradi), *Anasının çıktığı dala kızı salıncak kurar* (Onasi chiqqan shoxga, qizi halinchak yasaydi), *Tay babasını geçer* (Toy otasidan o'tadi),

Ota-onasidan ko'rganini takrorlaydigan farzand: *Çoban olan koyun gütmek, oğul babanın huyun gütmek gerekir* (Cho'pon odam qo'y boqishi, o'g'il degan ota xislatini o'zlashtirishi kerak), *Çocuğa, 'Ne işliyorsun?' demişler, 'Büyüğün yapatığını işliyorum' demiş* (Bolaga 'Nima bilan bandsan?' deb so'rashibdi, 'Katta qilganini qilayapman' debdi), *Keçi nereden atlarsa oğlağı da oradan atlar* (Echki qayerdan sakrasa, ulog'i ham o'sha yerdan sakraydi), *Keçi nereye çıksa oğlağı da oraya çıkar* (Echki qayerga chiqsa, ulog'i ham o'sha yerga chiqadi), *Oğlan babadan görür sofraya açar, kız anadan görür çeyiz serer* (O'g'il otadan ko'rib dasturxon yozadi, qiz onadan ko'rib, sarpo yoyadi), *Kız anasından görme-yince sofrayı kaldırmaz* (Qiz onasining dasturxon yig'ishtirishini ko'rmaguncha bu ishni qilmaydi), *Oğlan babadan öğrenir sofraya yazmayı, kız anadan öğrenir kapı gezmeyi* (O'g'il otadan dasturxon yozishni o'rganadi, qiz onadan eshikma eshik yurishni o'rganadi).

Murakkab, ota-onanikidan farqli xarakterli farzand: *Çingene, 'Çocuğumun hastalığı bir şey değil, huyunu değiştir' demiş*

(Lo'li, 'Bolaning kasalligi hech narsa emas, xarakterini o'zgartir-ing' debdi), *Bacak kadar boyu var türlü türlü huyu var* (Tizzaday bo'yi bor turli-tuman qiligi bor), *Evladı ben doğurdum amma gön-lünü ben doğurmadım* (Bolani men tug'dim, lekin ko'nglini emas), *Her alimden alim doğmaz* (Har olimdan olim tug'ilavermaydi).

Turk oilasida o'g'il farzandning qizga nisbatan ustun ko'rilishi va u orqali ota-onaga, ayniqsa, onaga oilada va jamiyatda munosa-batning o'zgarishi maqollarda o'z aksini topadi. Farzandga ota-onaning ko'zgusi sifatida qaralib, ular orqali oiladagi muhit, otaning jasorati, mardligi, mehribonligi; onaning ziyrakligi, mohirligi ularning xatt-harakatlari orqali baholanadi. Jamiyat ko'z o'ngida o'g'il otani, qiz onani namoyon qiladi. Ramziy ma'noda daraxt, arpa-bug'doy, nok, uloqcha obrazlari maqollarda farzand tushunchasini ochib berishga xizmat qilgan.

Turk xalqi lisoniy manzarasida bo'ydoqlik salbiy qarash ifodalovchi holat ekanligi maqollar tahlilida o'rta qiqdi. Er kishi yolg'iz yashamasligi kerakligi ham mafkuraviy, ham diniy tomon-dan to'g'ri emasligi bayon qilinadi. Diniy tomondan sunnat deb qaralsa, mafkuraviy tomondan kuchli davlat kuchli oilalardan tashkil topadi.

Turk xalqi uchun oila davlatning kichik ko'rinishi yoki namu-nasi ekanligi, nustahkam qo'shin, buyuk davlat ortida mustahkam, huzurli va totuv oila turishi maqollarda o'z tasdig'ini topdi.

Oilada erga itoat, hurmat ko'rsatish, unga qarshi chiqmaslik turk madaniyatida asosiy qadriyatlardan biri ekanligi aniqladi.

Er oila ta'minotchisi, olib keluvchisi sifatida tashqari tomonni ifodalashi uning ijobiy qadriyat ekanligini bildirib kelsa, ich kuyov bo'lishi oila ichiga yo'nalganli jihatidan salbiy qarash (ich og'rig'i) sifatida baholanadi.

Er yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'iy nazar oilada bo'lishi lozim bo'lgan shaxs sifatida gavidalanishi hamda ayol kishining jamiyatdagi o'rni u orqali belgilanishi maqollarda o'z tasdig'ini topdi.

Erkak oluvchi, nazoratchi, beruvchi talqinida to'ng'iz, xo'roz, it kabi zoonimlar, mevali daraxt, enginor o'simligi kabi fitonimlar va cho'pon, ota mozori kabi obrazlar orqali oila egasini, muqaddas va ulug'vor kishisi va nazoratchisi ekanligi aniqlandi.

Turk madaniyatida nuklear oila ichida er, ota va farzand tim-solida gavdalanadi. O'g'il farzand bo'lib dunyoga kelishning o'zi-yoq turk madaniyatida katta qadriyat hisoblanishi aniqlandi. U bilan ota-onaning jamiyatdagi mavqeyi, onaning oiladagi o'rni belgilanadi.

Fazrand turk oilasining mustahkamligi, asosi bo'lib xizmat qiladi. O'g'il va qiz farzandlar o'rtasida bir qator ayirmachiliklar ko'zga tashlandi. Maqollarda qiz farzand qadrsizlikda qadrlanish tomon ilgarilasa, o'g'il farzand qadrli shaxsdan 'qo'shni, begona' darajasiga tushib qolishi aniqlandi. Bu uning yangi oila qurishi bilan belgilanadi.

TURK MAQOLLARIDA AYOL OBRAZINING TALQINI

Oila konseptida *ayol* obrazining qadriyatga oid komponetlari

Turk tilidagi oila bilan bog'liq maqollar ichida ayol kishi obrazi ishtirok etgan maqollar salmog'i erkak kishi bilan bog'liq maqollarga nisbatan deyarli ikki barobar ko'p. Oilada ayol kishining o'rni-mavqeyi har davrda har xil ekanligiga guvoh bo'lamiz. Tug'ilganida, voyaga yetganida, turmushga chiqqanida, farzandli bo'lganida, farzandlari ulg'ayganida boshqa-boshqa darajada bo'lishi maqollarda o'z aksini topgan. Birinchi galda ayol – oilani barpo qiluvchi va oilaning davomiyligini ta'minlovchi shaxs sifatida qaraladi.

Ayol oilani qurishi bilan bir qatorda undan kutiladigan eng katta narsa va talab uning farzand dunyoga keltirishidir. Qiz bola kelin bo'lganidan keyin undan yangi oila farzand kuta boshlaydi *Gelin eşikte, oğlan beşikte* (Kelin ostonada, o'g'il beshikda). *Eşik* ya'ni ostonada yangi uyning kirish joyi kelinni qabul qilinganligini bildirsa, kelinning bunga javobi beshikdagi o'g'il farzanddir. Ostonadan kirish bilan oila a'zosi bo'lib qolmasiligini *Kadın eşik dibinde değil, eşik dibinde belli olur* (Ayol ostonada emas, beshik yonida ma'lum bo'ladi) maqoli orqali ham o'zini tasdiqlab turibdi. Turk xalqi maqollarida ayol kishidan kutiladigan farzand ham asosan o'g'il farzand hisoblanadi. Qiz bola yoki ayol kishiga talab bir bosqichli emas, har doim undan keyingi qism – yangi talab bilan davom etadi. *Kızı duvak, gelini beşik arkasında görmeli* (Qizni kelin yopinchig'i ortida, kelinni beshik ortida ko'rish kerak) yoki *Kızı kız iken övme, gelin iken öv, gelin iken övme, kucağı çocuklu iken öv* (Qizni qiz bolaligida maqtama, kelin bo'lganida maqta, kelin bo'lganida emas, quchog'ida bola bo'lgan vaqti maqta) maqollarida qiz boladan birdaniga ikki yoki uch darajali qilib talab qilinmoqda. Bularning barchasi eng oxirida farzandga borib taqalmoqda. Turk madaniyatida o'g'il farzand qiz farzandga nisbatan ustun, afzal ko'rilishi maqollarida ham namoyon bo'ladi. O'g'il farzand tug'adigan ayolning ham baquvvat bo'lishi kerakligi talab qilinadi *Avrat lazım kalçalı, oğlan doğursun aslan pençeli* (Xotin quvvatli bo'lsinki, arslon panjali o'g'il tug'sin). O'g'ilni har

qanday ayol ham dunyoga keltiravermaydi, mard ayollar dunyoga keltiradi *Oğlanı her kadın değil, er kadın doğurur* (O'g'ilni har ayol emas, er ayol dunyoga keltiradi) deydi turk xalq maqoli. *Kalçalı avrat, er kadın* turk erkagi talabidagi ayolni namoyon qiladi, chunki aynan mana shunday ayollar oila va nasl davomchisi bo'lgan o'g'il farzandni dunyoga keltiradi, degan tasavvurda ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'g'il farzand faqatgina erkak tomonidan emas, balki ayol kishi tomonidan ham kutilishi maqollarda o'z aksini topgan. *Kadın ister ki bey doğura* (Ayol bek tug'ishni xohlaydi) yoki *Oğlan doğuran övünsün kız doğuran dövünsün* (O'g'il tug'gan maqtansin, qiz tug'gan tizzasini mushtlasin) maqollari turk madaniyatida erkaklar bilan bir qatorda oilada o'z o'rnini mustahkamlash, mavqeyini oshirish uchun ham ayollar o'g'il farzand dunyoga keltirishni xohlashini kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, ayol kishi oiladagi mavqe yoki o'rnini topishi farzand dunyoga keltirishi bilan boshlanadi. Farzand dunyoga keltirishi uning hurmatining oshishiga sabab bo'ladi *Doğuran avrat Azraili yenmiş* (Tug'gan ayol Azroilni yengibdi), chunki farzandni dunyoga keltirish o'lim bilan kurashib yengib chiqishga tenglashtiriladi. *Beşiği sallayan el dünyaya hükmeder* (Beshikni tebratgan qo'l dunyoga hukm qiladi) maqoli ham farzand orqali oiladagi mavqening oshishini ko'rsatmoqda.

Turk xalqi lisoniy manzarasida oilaning yaratuvchisi yoki uning buzuvchisi ayol maqollarda asosan oppozitsiya orqali ifodalanligiga guvoh bo'ldik. Shuning bilan birga davomiyligini ta'minlovchi ham ayol ekanligini, undan asosan o'g'il farzand kutilishi, buni boshqalar singari o'zi ham xohlashini, shu orqali uning mavqeyi ortishini istashi maqollar tahlilida o'z isbotini topdi.

Maqollarga e'tibor qaratilsa, tuzish va buzish xususiyati oilada asosan ayol (erli xotin) tomonidan amalga oshirilishi kuzatiladi.

Ayol – muqaddaslik va kuch talqinida

Ayol kishiga nisbatan har bir jamiyat madaniyatida bo'lgani singari, turk xalqi madaniyatida ham hurmat va e'tibor bilan qaraladi. Musulmon xalqlari orasida, ayniqsa, onaga nisbatan "jannat onalar oyoqlari ostida" degan hadisga muvofiq munosabatda bo'ladilar. Bu muqaddaslik maqollarda ham o'z

aksini topgan. *Ana hakkı ödenmez* (Ona haqini ado etib bo'lmaydi) maqolida kelgan *hak* so'zi arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, bir nechta ma'nolarni o'zida mujassam qilgan. Maqoldagi ma'nosi esa *mehnat evaziga olinadigan evaz, to'lov* bo'lib, *hakkı ödenmemek* iborasi esa "biror kishining yaxshiliklari, mehnatlariga evaz sifatida nima qilsa ham oz bo'lmoq"¹¹⁴ ma'nosini beradi. *Anaya babaya hizmet, Tanrı'ya ibadet* (Ota-onaga xizmat, Tangriga ibodat) maqolida esa ota-onaga xizmat qanchalik ulug' ish ekanligiga targ'ib qilinmoqda. Bundan tashqari musulmonlar uchun Allohga ibodat qilish farz qilinganidek, ota-onaga xizmat qilish ham farz amallardan biri ekanligiga ishora qilinadi. Qur'oni Karimning bir necha suralarida ota-ona haqida oyatlar keladi. Masalan, Ankabut surasining 8-oyatida "Va insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik..."¹¹⁵ deyiladi. Shuningdek, Niso surasi 36-oyati¹¹⁶da ota-onaga, qarindosh-urug'ga, yetimlarga, yo'qsillarga, yaqin va uzoq qo'shniga yaxshilik qilishga; Luqmon surasining 14-oyati¹¹⁷da esa ota-onaga, ayniqsa, onaga yaxshilik qilish, ularga shukr qilishga buyuriladi. Islom dinidagi buyruqlar, qaytariqlar, tavsiyalar xalq madaniyatiga ham ta'sir qilganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Yuqorida keltirilgan maqol asosan ularga xizmat (yaxshilik) qilishga chaqiriq bo'lsa, *Ana baba bedduasını alan onmaz* (Ota-ona qarg'ishini olgan o'ngmaydi) yoki *Anaya asi gelen onmaz* (Onaga osiy bo'lgan o'ngmaydi) maqollari ularga qarshi chiqishdan qaytaradi. Ushbu maqollarda kelgan *beddua, asi* so'zlari ham dinning madaniyatga ta'siri sifatida baholash mumkin. *Beddua* forsha *bed* "yomon" va arabcha *dua* so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma so'z bo'lib, *birovning yomon holatga tushishini ko'ngildan istash, elanish, qarg'ish* ma'nolarini beradi. *Asi* so'zi ham arab tilidan o'zlashma so'z bo'lib, "bosh ko'taruvchi, qarshi chiquvchi, isyon qiluvchi" degan ma'nolarni anglatadi. *Onmak* so'zi esa turkiy so'z bo'lib, "yaxshi holatga

¹¹⁴ Türkçe Sözlük, TDK, 11.bsk. Ankara, 2011, 1027.s

¹¹⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Tavsiri hilol, 4-juz. – Toshkent, "Sharq" 2012. – 425-b.

¹¹⁶ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Tavsiri hilol, 1-juz. – Toshkent, "Sharq" 2012. – 537-b.

¹¹⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Tavsiri hilol, 4-juz. – Toshkent, "Sharq" 2012. – 505-b.

kelmoq, kamchiliklari bartaraf bo'lmoq, baxtiyor bo'lmoq, bemorlikdan qutulib shifo topmoq" ma'nolarida qo'llaniladi. Maqollarda ushbu ma'nolar ichida baxtiyor bo'lmoq ma'nosi mos tushadi, ya'ni ota-onasining qarg'ishini olgan, onasiga qarshi chiqqan inson baxtiyor bo'lmaydi. Turk maqollari ota-onaga yaxshilik qilishni tashviq qilish bilan birga, ularga qarshi chiqish va dilini og'ritishdan qaytarmoqda. Maqollarda nafaqat ona, umuman, ayol kishiga nisbatan yumshoqlik bilan muomala qilish lozimligi aytiladi. *Alma uzun saçının ahını, gökten indirir şahini* (Uzun sochlining qarg'ishini olma, (yo'qsa) osmondagi lochini qulatadi) maqolida *uzun saçlı* ayol kishini ifodalab kelmoqda, *ah* so'zi ham arabcha o'zlashma bo'lib, elanish, qarg'ish degani. Ayol kishining qarg'ishini olma, aks holda tutqich bermas lochin qushi ko'kdan urib tushirilgani singari, seni ham qulatadi, deyilmoqda. Bu maqol erkak kishi uchun ogohlantirish sifatida baholanishi mumkin. *Aslan bile kadına dokunmaz* (Sher ham ayolga teginmaydi) maqoli ham yuqoridagi maqolning mantiqiy davomi sifatida erkak kishiga qaratiladi. Hayvonlar ichida kuch timsoli hisoblangan sher ham ayolga tegmaydi, siz (erkaklar) ham "tegmang", ya'ni ozor yetkazmang, deya ularga ham tavsiya, ham ogohlantirish bermoqda. Bundan tashqari sher (aslan) hayvon bo'la turib, ayolga tegmaydi, inson bo'la turib (erkak) ozor bermasligi kerak degan tagma'nosi ham maqolda o'z aksini topgan. Turk madaniyatida ayol kishini urish, tahqirlash, kaltaklash kabi illatlar kuzatilmaydi. *Kızını dövmeleyen dizini döver* (Qizini urmagan tizzasini mushtlaydi) maqoli borku, deyishimiz mumkin, lekin bu yerda erkak kishi, ya'ni otasi emas, balki qizning onasi nazarda tutilgan. Maqollarda qiz tarbiyasi onadan so'raladi, onasiga qarab qizini qabilidagi ma'nolar bu hukmga kelishimizga asos bo'ladi. Otaning asosiy vazifasi oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlash hisoblanadi, ya'ni qizning tarbiyasi uchun asosan ona mas'ul hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, maqoldagi qizini urish holati onaga tegishli. Shunday qilib, bu madaniyatda ayol kishini tahqirlash, ozor berish qattiq qoralangan va erkaklar bundan qaytarilgan. Bu bir tomondan turklar ayol kishini muqaddaslashtirishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan kuch-qudrat manbayi sifatida qarashi bilan

ham bog'liq bo'lishi mumkin, chunki turk maqollarida ayolga nisbatan "ojiza, yordamga muhtoj zaifa" obrazidan ko'ra mard, jasur, jangari obrazda tasvirlanadi, balki, bu qadimdan turk ayoli erkak bilan yonma-yon janglarda ham ishtirok etgani yoki sarkarda eri vafot etgach uning o'rniga qo'shinni o'zi boshchilik qilganligi¹¹⁸ kabi bir qator omillarni keltirish mumkin. *Erkek aslan aslan da, dişi aslan aslan değil mi?* (Erkak sher sher bo'lsa, urg'ochi sher sher emasmi?) maqolida *sher* obrazida ifodanadi. Sher *kuch-qudrat, botirlikni* ifodalaydi. Bunda turk erkagi sher, bo'lsa, turk ayoli ham sherdir, ma'nosi maqolda o'z aksini topgan. Shuningdek, *Aslan dişisine bakar kuvvet alır* (Sher urg'ochisiga qarab quvvat oladi) maqolida ham ayol kuch quvvat manbayi sifatida gavdalanadi. Er oilada ayoldan har tomonlama dastak, quvvat oladi. Hatto oilaning moliyaviy ishlarida ham ayol kishining zimmasida katta ma'suliyat yotadi.

Erkeğin rızkı kadının ruhsatına bağlı (Erkakning rizqi xotinning ruxsatiga bog'liq) maqoli orqali ayol kishining tejamkorligi, oilaning moliyaviy ishlarini oqilonalik bilan olib borishi erkak kishining daromad, iqtisodiy taraqqiyoti uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi. Turk ayoli nafaqat oila ishlarida, balki, turmushning boshqa sohalari singari moliyaviy ishlarda ham hamisha urning yonidan joy olganligini tarixiy manbalardan bilishimiz mumkin. Xususan, Ibn Battutaning esdaliklarida quyidagilarni uchratish mumkin: "Bu davlatda men ko'rgan va meni hayratda qoldirgan narsalardan biri bu erkaklarining ayollarga ko'rsatadigan hurmat-e'tibori bo'ldi. Turk ayollari yuzlari ochiq yuradilar, erkaklardan qochmaydilar. Bozorda o'zlari xarid qiladilar. Ba'zan ularni erlari bilan birgalikda uchratasiz, shunda bu erkaklar bu ayollarning xizmatkori bo'lsa kerak deb o'ylaysiz. Turk ayoli iqtisodiy hayotda ham erkakning yo'ldoshidir. Turklarda ayol va oila shunchalik qadrliki, Onadoluning ba'zi joylarida erkaklar ayollariga "oilam" tabirini qo'llaydi. Bu esa o'z navbatida oila hayotida ayolning o'zni alohida ekanligini ko'rsatadi"¹¹⁹. Turk ayolining jamiyatda va oilada boshqa rol va

¹¹⁸ Gömeç, S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış // Aile Yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – 7-8.ss.

¹¹⁹ Gömeç, S. Ko'rsatilgan asar. – Aralık 2015. – 8.s.

vazifalari borligiga ham guvoh bo'ldik. Ayol kishining kuchli, jasoratli bo'lganligi tahsinga sazovor xislat sifatida qaraladi, lekin oilada hukm o'tkazishi, oilani er o'rniga boshqarishi turk madaniyatida qoralanadi: *Kadının hükmettiği evde mutluluk olmaz* (Ayol hukmron uyda baxt bo'lmaydi). Oilada ayolning o'zini erdan ustun qo'yishining asosiy sabablaridan biri ayol moliyaviy jihatdan eridan ustun bo'lishi hisoblanadi. Turk madaniyatida ikki tomondan keng miqyosda maqollarda o'z ifodasini topgan. Ayrim maqollarda ayol er uyiga o'zining sepi bilan kelsin, desa, boshqa qarashdagi maqollarda esa ularning mol-dunyosi boshga balo ekanligi aytiladi. Turk madaniyatida kelin er uyiga olib keladigan mol-mulk haqida so'z yurituvchi maqollarga to'xtalib o'tamiz. *Aldığın kadının ya gümüşü olmalı ya da kömürü* (Sen oladigan ayolning yo kumushi bo'lsin yoki ko'miri) maqolida ham kelinni erkak uyiga faqat o'zini emas, balki sarposi bilan kelishi lozimligi aytiladi. Maqollarga e'tibor qaratilsa, har birining zamirida o'ziga xos ma'no, xabar mujassam. Ushbu maqolga qaraladigan bo'lsa, kelin o'zi bilan ko'mir, ya'ni uyni isituvchi asosiy yoqilg'i manbasi va kumush – ro'zg'or tebratish uchun asosiy moddiy vosita bilan kelishi, aniqrog'i olib kelinishi tavsiya qilinmoqda. Bu jihatdan kelin keltiradigan mol-mulkka ijobiy qarash bor, lekin oilada ayolning puldor bo'lishi, uning olib kelgan mol-davlati erkak uchun hokimiyatni, idorani qo'ldan berishga olib kelishi maqollarda ifodalanadi. *Avradın malı, eşeğin nalı* (Xotinning mulki – eshakning taqasi) maqoli quyidagi ma'noni anglatadi: agar erkak ayolning mol-mulki uchun uylansa, oilada ayolning hukmi, gapi o'tadi. *Avrat (kadın) malı, kapı mandalı* (Ayolning moli – eshik to'qmog'i), *Karı malı hamam tokmağıdır* (Xotinning moli hammom to'qmog'i), *Kadının şamdanı altın olsa mumu dikecek erkektir* (Ayolning shamdoni oltin bo'lsa, shamini qo'yuvchi erkakdir) maqollari yuqoridagi fikrlarimizga isbotdir.

Ayol – do'st yoki dushman talqinida

Turk madaniyati va tarixining shoh asarlaridan biri hisoblanadigan "Dede Korkut" (Qo'rqit bobo) qissalarida ayollar to'rt toifaga ajratiladi. "Biri uyning tirgagidir, biri nasl quritadi, biri nasabingni ko'paytiradi, yana biri esa qanchalik urinsang ham ishga yaramaydi. Uyning tirgagi bo'lgan ayol, cho'ldan, yaylovdan

biror mehmon kelsa, yedirib-ichiradi, ochiq yuz bilan kutib olib, xushkayfiyat bilan kuzatib qo'yadi. U Oysha, Fotima naslidandir. Xon, uyingga shunday ayol nasib qilsin, uning bolalari ulg'aysin."¹²⁰ Turk madaniyatida ochiq yuzlilik, mehmondo'stlik, serfarzandlik kabi xislatlar ayol kishining asosiy mezon belgilari hisoblanadi. Ayol oilada unga ko'rsatiladigan munosabat natijasida yoki ko'ngliga xush kelish-kelmasligiga ko'ra do'stlik yoki dushmanlik qilishi mumkin. Farzand o'zidan bir parcha hisoblangani bois ona unga doim g'amxo'rlik qiladi va unga samimiy do'stlik kayfiyatida bo'ladi. Farzandining kamoli, yutug'ini, hatto, ba'zan mag'lubiyatini ham o'ziniki deya qabul qiladi. *Ağlarsa anam ağlar, başkası/kalanı yalan ağlar* (Yig'lasa onam yig'laydi, qolganlar yolg'on yig'laydi) maqolidan ham farzand qayg'usi uchun yurakdan qayg'uradigan, azoblanadigan ona ekanligini bilib olamiz. Boshqalar esa ko'ngil uchun hamdardlik bildiradi.

Turklarda vatanga nisbatan *anavatan* (ona vatan), davlatga nisbatan *devlet baba* (davlat ota) ta'birlari ishlatiladi, chunki oila turklar nazdida kichik davlat hisoblanadi. O'z vaqtida islom diyorlari markaziga aylangan, ilm-irfon o'chog'i bo'lgan Bag'dod onaga qiyoslanadi: *Ana gibi yar olmaz, Bağdat gibi diyar olmaz* (Ona kabi do'st bo'lmas, Bag'dod kabi diyor bo'lmas). Ona hamisha dunyodagi eng ulug' narsa bilan qiyoslanadi. O'z davrida Bag'dod shahrining ham har jihatdan tengi, o'xshashi bo'lmagan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu maqol mazkur shaharning eng gullagan davrida paydo bo'lgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Boshqa bir maqolda esa ona qalqonga o'xshatiladi: *Ana yiğidin kalkanıdır* (Ona yigitning qalqonidir). Qalqonning asosiy vazifasi insonni qilich, nayza kabi qurol-yaroqdan pana, himoya qilishdir. Ona ham har doim farzandini yomon ko'z va yomon so'zlardan himoya qilib yuradi. Bu yerda yana bir boshqa jihati ham bor. Sahobalar davrida bir sahoba jangga hamisha sovutsiz tushishi hammaga ma'lum ekan. Shunday janglarning birida u ustiga sovut kiyib, qo'lga qalqon olib kelibdi. Ajablangan sahobalar undan nega sovut kiyib olganini so'rashibdi. Haligi sahoba, shu paytgacha

¹²⁰ Gömeç, S. Ko'rsatilgan asar. – Ankara: Aralık 2015. – 7.s.;

meni onam duo qilib turar edilar, ularning duolari men uchun ham sovut, ham qalqon edi. Endi onam vafot etdi, deb javob bergan ekan. Maqol ushbu hikoyaga qanchalik aloqador ekanligi bizga qorong'u, lekin musulmon dunyosida ona duosining xosiyati borligi tan olinadi.

Onalarning tarbiya jarayonida qattiqqo'lligi hatto ba'zan jazo berishi bor haqiqat. Farzandini urishadi, tergaydi, kerak bo'lsa, uradi. *Ananın bastığı yavru/civciv ölmez* (Ona bosgan polapon o'lmaydi). Jo'ja yoki polaponni bosishdan maqsad uni o'ldirish emas, shunday ekan onaning tarbiya jarayonida bolasini urishi, kaltaklashi uni azoblash uchun emas, balki, to'g'ri yo'lga solish uchundir. Bu boshqa madaniyat uchun xos bo'lmasligi mumkin. Ba'zi Yevropa davlatlari, AQSH kabi davlatlarda bolani urish ta'qiqlanadi va buning uchun jazo ham tayinlangan. Norvegiyada bola tanasida kaltak izi aniqlansa, davlat bolani ota-onadan tortib oladi, lekin turk va turkiy madaniyatida tarbiya usullari ichida oxirgi chora sifatida bo'lsa ham bor. Hatto maqollarda ham kaltak aslida yaxshi narsa ekanligiga urg'u bor: *Sopa cennetten çıkmış* (Tayoq/kaltak jannatdan chiqqan).

Shu yergacha onaning farzandiga do'st-yorligi masalasidagi maqollarga to'xtalib o'tdik. Endilikda ayolning eriga nisbatan qolgan qarindoshlardan yaqinligiga aloqador maqollar tahliliga e'tibor qaratsak.

O'zbek xalqining "*Ikki yorti bir butun*" degan maqoli bor. Oiladagi er xorinni bir-birlarisiz yarim ekanliklarini bildirish uchun qo'llaniladigan xalq donishmandligining ajoyib namunasi. Turk madaniyatida ham ushbu maqol singari bir otalar so'zi mavjud: *Adamın karısı, canının yarısı* (Odamning xotini, jonining yarmi). Maqolda ta'kidlanganidek, erkak kishi ayolsiz "yarimta" odam degani. Uni tugallovchi uning ayoli hisoblanadi. Islomdan oldingi turk jamiyatlarida ayollar tabu emas edi. Shu boisdan ham u erkaklar bilan birga har bir siyosiy faoliyatida qatnashgan, dinda, siyosatda, e'tiqodda, ovda, urushda, ziyofatlarda hamisha erkak kishi bilan birga bo'lgan. Erkak va ayol o'rtasida hech qanday farq yo'q bo'lgan, ya'ni erkak ayoldan ustun degan qarash bo'lmagan va ayollar erkaklarni to'ldiruvchi deb hisoblanganligi sababli ayollarsiz hech qanday faoliyat amalga oshirilmagan.

Boshqa jamiyatlarda hatto ba'zilarida yashash huquqiga ega bo'lmagan ayollar (Johiliya davrida arablarda), turk jamiyatlarida yuqori qadrlangan¹²¹. Insonning hayoti davomida eng ko'p suyanadigan, dastak oladigan insoni uning xotini hisoblanadi. Farzandlar ham kun kelib "qo'shni"ga aylanadi: *Doğurdum oğlum oldu, evlendi komşum oldu* (Dunyoga keltirdim o'g'lim bo'ldi, uylandi qo'shnim bo'ldi) hatto farzandi ham uylanib uyiga begonalashadi.

Oilada kelishmovchiliklar, katta-kichik janjallar bo'lishi tabiiy holat sifatida qaraladi. Bu o'zbek madaniyatiga ham (balki butun dunyo madaniyatiga) begona bo'lmagan holat hisoblanadi: *Er-xotin urishi, doka-ro'mol qurishi*. Xuddi shunday holat, turk madaniyatida quyidagi maqol bilan ifodalanadi: *Bal arıdan, kavga karıdan çıkar* (Asal aridan, janjal xotindan chiqadi). Asal asalarilarning tinimsiz mehnati samarasi mahsuli bo'lsa, oiladagi janjallar ham aksariyat holatlarda ayol kishining 'mehnati samarasi' hisoblanadi. Ayrim maqollar esa, janjalni oilaning 'tuzi'ga o'xshatadi: *Kavga evliliğin tuzu tadıdır* (Janjal turmushning tuzi – mazasidir). Hatto ba'zi maqollarda ayol kishi shaytonga tenglashirilganiga ham guvoh bo'lish mumkin: *Erkeğin şeytanı kadın* (Erkakning shaytoni xotin). Ushbu maqolda ham islom dini ta'siri sezilib turibdi. Shayton, barchamizga ma'lumki, Odam ato va Momo havoning jannatdan quvilishiga sababchi bo'ladi. Bunda u Momo havoni yo'ldan urib, ta'qiqlangan mevani yeyishga undaydi. Shundan kelib chiqqan holda, turk madaniyatida ham shu tushuncha maqol orqali o'z ifodasini topgan. Ayol erkak kishini yo'ldan adashtiruvchi, musulmonlarning abadiy dushmani shaytonga o'xshatiladi.

Oila ichi dushmanlik kayfiyati qaynona-kelin munosabatlarida yaqqol ko'zga tashladi. Qaynona-kelin munosabatlarini ifodalovchi sanoqli maqollarda ijobiy holat kuzatilmasa, aksariyat maqollar ularning salbiy munosabatlarini namo-yon etadi. *Kaynana gelinin altın duvağı* (Qaynona kelinning oltin yopinchig'i) maqoli yaxshi qaynona kelin uchun juda qadrlı hisoblanadi. *Duvak* so'zining bir nechta ma'nosi bo'lib, ulardan kelinlarning yuzini yopib turadigan yopinchiq ma'nosi bosh ma'nodan kelgan. Keyingi ma'nosi ko'za,

¹²¹ Öztürk, M. İslamiyetten Önce Türklerde Aile ve Kutadgu Bilig'de Türk Ailesi // Prof. Dr. Abdulkadir Yuvalı Armağanı, Cilt 2. – s. 899-913, Kardeşler Ofset. – Kayseri, 2015. – 905.s.

tandir, mo'ri kabi narsalarning ustini yopib qo'yish uchun mo'ljallangan qopqoq demakdir. Nima uchun aynan qopqoq yoki yopinchiq? Chunki turk islom madaniyatida ayb, xato-kamchiliklarni berkitish, birovning aybini yuziga solmaslik ijobiy amal hisoblanadi. Yaxshi qaynona kelinning xato-kamchiliklarini boshqalardan berkitgani, uni himoya qilgani uchun ham kelinning oltin yopinchiq'i deya ulug'lanadi. Biroq ba'zi maqollar kelin nutqidan aytiladi. Ularda qaynona asosan salbiy qahramon obrazida gavdalanadi. *Kaynana dinsiz, gelin dilsiz* (Qaynona dinsiz, kelin tilsiz) yoki *Kaynana öcü, oğlu cici* (Qaynona qo'rqinchli, o'g'li yoqimli) maqollarida qaynona o'ta salbiy tarzda ifodalangan. Kelinlar uchun qaynona uzoqda yashasa yaxshi bo'lishi mumkin: *Kaynana geri, oğlu beri* (Qaynona nari, o'g'li beri) yoki *Kaynananın iyisi, kırk arşından kuyusu* (Qaynonaning yaxshisi, qirq arshin uzoqda qudug'i). Maqollarni tahlil qilar ekanmiz, turk madaniyatida qaynona-kelin muammolari qadim zamonlarda ham bo'lganiga amin bo'lamiz. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tishni joiz topdik. Hozirgi kunda Turkiyada qaynona-kelin bir uyda yashashi juda kam holatlarda uchraydi. Oilaning o'g'il farzandi bir dona bo'lsa ham, uylanganidan so'ng ota-onasidan alohida uyga ko'chib chiqadi. Balki ota-bobolari zamonidan beri davom etib kelgan muammoli vaziyat uchun bu bir yechim vazifasini o'tayotgandir. Buni tadqiq qilishni sotsiolog va sotsiolingvist maslakdoshlarimizga qoldiramiz.

Turk oilalalaridagi muammoli vaziyatlardan yana biri bu ovsinlar o'rtasidagi dushmanona kayfiyat. Oilaviy masalalar va oiladagi munosabatlar bilan bog'liq ko'plab savollar berib boriladigan saytda¹²² Ovsinlar nega chiqisha olmaydi? savolini o'rtaqa tashlagan. Yigirma besh nafar 25-44 yosh orasidagi xotin-qizlar javob bergan. Ulardan 40 foizi (10 kishi) ko'rolmaslik, qizg'onish, 20 %i (5 kishi) raqobat, 12 %i (3 kishi) elti kim? (ovsin nima degani?), qolganlari ayol kishini tushunish qiyin, xarakterlari qursin va boshqa javoblarni qoldirganlar. Ko'rinib turganidek, javoblarning katta foizini bir-birini ko'ra olmaslik, qizg'onish egallagan. Javoblarda shuningdek, ishtirokchilar bu holatni

¹²² kizlarsoruyor.com

izohlashga ham uringanlar. Qaynona-qaynotasini qizg'onishlarini, ularning ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun bir-birlarining aybini topishga urinishlarini yozganlar. Raqobat masalasida ham shu holat. Ovsinlar bir-birini raqib sifatida ko'rishlari, bunga esa ayrim holatlarda qaynonalar sababchi bo'lib qolishi aytiladi. Hukmingizga havola qilingan savolnoma zamonamizdagi holat. Buni qarangki, ovsinlar orasidagi kelishmovchilik turk madaniyatida qadimdan beri kuzatilar ekan. Bunga esa quyidagi maqollar isbot bo'la oladi: *Elti eltiye eş olmaz, arpa unundan aş olmaz* (Ovsin ovsinga do'st bo'lmaydi, arpa unidan osh bo'lmaydi), *Elti eltiden kaçar, görümceler bayrak açar* (Ovsin ovsindan qochar, qaynsingillar bayroq ochar), *Kuma gemisi yürümüŝ, elti gemisi yürümemiŝ* (Kundosh qayig'i suzibdi, ovsinlar qayig'i suzmabdi). Maqollar tahlilidan kelib chiqsak, ovsinlar orasidagi raqobat, ko'ra olmaslik xislatlari kundosh ayollarnikidan ham ko'proq ekan. Bu maqollarda ovsinlar orasidagi ushbu holat faqatgina qayinsingillarni xushnud qilganiga guvoh bo'lamiz (*görümceler bayrak açar*). Shu tufayli ham qaynisingil va kelinlar orasidagi munosabat ham havas qilgulik emas: *Görümce, yüzünü görmeyeyim ölünce* (Qayinsinglimni yuzini o'lguncha ko'rmayin). Hatto, uning yuzini umrbod ko'rmaslik uchun ham tayyor.

Ayol kishining erta yoshda turmush qurishi ma'qul sanaladi: *Kız evladı on ikisine bastı mı ya ere ya yere* (Qiz bola o'n ikkiga kirdimi, yo erda, yo yerda); *Kızın on beŝe geldikte kendin koca ara* (Qizing o'n beshga kirgan bo'lsa, kuyovni o'zing izla); *Kızını fırsat bulunca, oğlunu canın isteyince evlendir* (Qizingni fursat topishing bilan uzat, o'g'lingni xohishing bilan uylantir); *Kiŝi kızı olma, kiŝi avradı ol* (Birovning qizi bo'lma, birovning xotini bo'l);

Yaxshi va yomon xulqli xotin: *Asilzadeyi almak zordur, geçinmek kolaydır* (Yaxshi qizni olish qiyin, u bilan yashash oson); *Asili alması zor, saklaması kolaydır* (Asilni olish qiyin, asrash – oson); *Atın iyisini genç, kadının iyisini ihtiyar alır* (Otning yaxshisini yosh, xotinning yaxshisini qari oladi); *Avradı kötü olanın sakalı erken/tez ağarır* (Xotini yomon odamning soqoli tez oqaradi); *İyi adam eŝeğinden, iyi karı döŝeğinden belli olur* (Yaxshi er eshagidan, yaxshi xotin to'shagidan ma'lum bo'ladi); *İyi ipek*

kendini kirdirmaz, iyi kadın kendini dövdürmez (Yaxshi ipak arzonga sotilmaydi, yaxshi xotinni eri urmaydi); *Avrattan vefa, zehirden şifa* (Xotindan vafo (yaxshilik) kutish, zahardan shifo kutishdir); *Karıdan hayır gelmez* (Xotindan yaxshilik chiqmaydi).

O'g'il farzand xotinning oiladagi o'rnini belgilovchi omil: Kadın ister ki bey doğura (Ayol bek (o'g'il) tug'sam deydi), *Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün* (O'g'il tug'gan maqtansin, qiz tug'gan tizzasini mushtlasin); *Oğlanı her kan doğuramaz, er karı doğurur* (O'g'ilni har ayol emas, er ayol tug'adi); Oğlu olmayan avrattan eski hasır yeğdir (O'g'li yo'q xotindan eski bo'yra yaxshi);

Tul (beva) xotin : *Eski pamuk bez olmaz, dul avrat kız olmaz* (Eski paxta bo'z bo'lmaydi, tul xotin – qiz); *Dul kadının eteği uzundur* (Tul xotinning etagi uzun bo'ladi); *Dul karı, şeytan karı, aldatır alır bekarı* (Tul xotin – shayton xotin, bo'ydoqni aldab o'ziga og'dirib oladi); *Eri olmayanın yeri olmaz* (Eri yo'qning yeri yo'qdir).

Epli va epsiz xotin: *Avrat vardır arpadan aş eder, avrat vardır bulguru leş eder* (Shunday xotin borki, arpadan ham osh qilar, shunday xotin borki bulg'ur (guruch)ni bo'tqa qilar); Kadın eli kaşık sapından kararır (Xotinning qo'li qoshiq sopidan qorayadi).

Muammo chiqaruvchi xotin: *Bal arıdan, kavga karıdan çıkar* (Asal arıdan, janjal xotindan chiqadi); *Geçinmeye gönlü yok ki adını öğrensın* (Munozara bilan yashashga xohishi yo'q-ku, biron narsani o'rgansa); *Geçinmeyene dokuz koca, okumayana dokuz hoca az gelir* (Munozara bilan yashamaydiganga to'qqiz er, o'qishni xohlamaydiganga to'qqiz o'qituvchi oz ko'rinadi).

Chiroyli va xunik ayol: *Beyazın/ Akın adı/var, esmerin/karanın tadı var* (Oq tanlining nomi bor, qoramag'izning mehri bor); *Çirkin kan evin toplar, güzel karı düğün/ sokak gezer* (Xunik xotin uy yig'ishtiradi, chiroyli xotin to'y kezadi); *Er kemaliyle, avrat cemaliyle anılır* (Er kamoloti bilan, xotin jamoli bilan tilga olinadi); *Er kocarsa/kocadıkça koç olur, karı kocarsa/kocadıkça hiç olur* (Er qarisa qo'chqor bo'ladi(ulg'ayadi), xotin qarisa hech bo'ladi (xuniklashadi));

Xotin o'z vazifasini bajarishi talab qilinadi: *Elinin hamuriyla/Elindeki hamura bakmaz erkek işine karışır* (Qo'lidagi

xamir bilan erining ishiga aralashadi); *Eşini, işini, aşını bil* (Eringni, ishingni, oshingni bil).

Ozoda, pokiza: *Erkeğin iyisi eşeğinden, kadının iyisi eşiğinden bellidir* (Erkakning yaxshi ulovidan, xotinning yaxshisi ostonasidan bilinadi); *Kadını evinden, erkeği pirinden sorarlar* (Xotinni uyidan, erkakni piridan so'raydilar); *Kadının temizi sırtından, sütün temizi yoğurdundan bellidir* (Xotinning ozodasi ustidan, sutning tozasi qatiqdan ma'lum bo'ladi).

Turk madaniyatida ayol birinchi galda erta yoshda turmush qurishi bilan ardoqlanadi. Undan kutiladigan asosiy xususiyatlardan yana biri uning farzand dunyoga keltirishi, ayniqsa, o'g'il farzand oila uchun o'ziga xos tarzda alohidalik kasb etadi. Bularidan tashqari xulq-atvor masalasi va turmushdagi ro'zg'or tutimi – pazandalik, ozodalik ayollarda kutiladigan xususiyatlar sanaladi.

Oila konseptida ayol obrazining metaforalarda ifodalanishi

Turk tilida oila bilan bog'liq 700 ga yaqin maqol saralab olindi va ularning 400 ga yaqini, ya'ni 60 – 65%ini ayollar bilan bog'liq maqollar tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida mazkur xalq madaniyatida ayolga bo'lgan e'tibor namunasi sifatida baholanishi mumkin. Boshqa tomondan esa, maqollardagi ayollarga xos salbiy xislatlarning ko'p ekanligi ularni tarbiyalash, yaxshilikka chaqirish yoki odatda, erkaklarni ulardan ogoh bo'lishga chaqirish mazmunini ham ifodalashi mumkin. Turk xalq maqollarida ayol metaforik talqin orqali tabiatdagi juda ko'p narsa va hodisalarga o'xshatiladi.

Turk madaniyatida ayol kishiga nisbatan **“ishonib bo'lmaydigan borliq”** sifatida qaraladi: *At ile avrada güven olmaz* (Ot bilan xotinga ishonib bo'lmaydi); *Kadında vefa, borçluda sefa aranmaz* (Xotinda vafo, qarzdorda safo bo'lmas); *Ak akçe ile ak baldıra güven olmaz* (Oq aqcha bilan, oq tovonga ishonib bo'lmaydi); *Kadın deniz gibidir, güvenmek olmaz* (Ayol dengiz kabidir, ishonib bo'lmaydi). Ot, aslida, turk madaniyatida er kishining qanoti va yo'ldoshi sifatida qaraladi, lekin otning

tabiatida shunday holat borki, agar uni uzoq vaqt yolg'iz qoldirsangiz, uni asabiylashtirsangiz yoxud tanasida uning g'ashini keltiradigan joyiga tegib ketsangiz tepishi, hatto, tishlashi ham mumkin¹²³. Sotib olingan ot qanday ekanligini, uning o'ziga xos xarakterlarini ham uning ko'rinishidan bilib bo'lmaganidek, ayol kishining xarakterlarini u bilan birga yashamaguncha bilib bo'lmaydi, shu jihatdan ayol otga o'xshatilgan. Shuningdek, aqcha, ya'ni boylikka ham ishonch yo'q, u birdan ko'payib ketishi yoki aksincha butunlay tugab qolishi mumkin. Boshqa tomondan boylik baxt yoki baxtsizlik olib kelishi ham mumkin. Dengiz sokin turgan holatda birdan chayqalishi, to'fon ko'tarilishi mumkin. Uning tinch turganligiga ko'p ham ishinmaslik lozim. Shu jihatlar inobatga olinib, ham dengizchilik, ham chorvachilik bilan shug'ullangan turk xalqi maqollarda ayolni *ot*, *aqcha*, *dengiz* kabi obrazlar orqali ifodalaydi.

Ayrim maqollarda ayol **“zabt qilib bo'lmaydigan, biroq boshqarilishi kerak bo'lgan borliq”** sifatida namoyon bo'ladi: *Kadınla tavuk bağlanmaz* (Xotin bilan tovuqni boylab bo'lmaydi); *Avrat attır, gemini boş tutma* (Xotin ot kabidir, jilovini bo'sh qo'yma); *Ersiz avrat, yularsız at* (Ersiz ayol, jilovsiz ot); *Avrat nikahla, tarla tapuyla zaptolunur* (Ayol nikoh bilan, maydon(dala) hujjat bilan zabt qilinadi); *Avradı ar zapt eder, er zapt etmez* (Ayolni er zabt etolmaydi, eri zabt qiladi). Bu maqollarda ham *ot*, *tovuq*, *ekin maydoni*, *or-nomus* singari obrazlar yordamida ifodalangan. Maqollarda kelganidek ayol kishi eri tomonidan nazorat ostida tutilishi lozimligi, lekin buning ham o'z qonun-qoidasi borligi ta'kidlanadi.

Turk madaniyatida islom dini ta'sirida yangi obrazlar paydo bo'ldi va ayol kishiga nisbatan, Odam Atoning Jannatdan quvilishiga sababchi bo'lgan va insoniyatni makr-al dov bilan yo'ldan ozdiradigan Shayton obrazi ayolga qiyoslanadi. Uning bu xususiyatlari ayolda ham uchraganligi bois unga nisbatan **“shaytoniy xususiyatlari bor borliq”** sifatida qaraladi: *Kadın şeytana pabucunu ters giydirir* (Ayol shaytonga kovushini teskari kiygizadi); *Erkeğin şeytanı kadındır* (Erkakning shaytoni ayoldir);

¹²³ <https://guzelsoezler.com/at-ile-ilgili-atasozleri-aciklamasi-ve-anlami/>

Kadın şerri şeytan şerrine eşittir (Ayolning yomonliklari shaytonning yomonliklariga teng); *Kadının şerrinden Allah'a sığınmalı* (Ayolning yomonliklaridan Allohdan panoh so'rash kerak). Maqollarda ayol shaytonga, makkorligi jihatidan undan ham ustun turishiga, qilgan yomonliklari ham shaytonning yomonliklariga tenglashtiriladi va hatto uning yomonliklaridan Allohdan panoh so'rash kerakligi bilan uning yomonliklarining "qiymati" qanchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Makrga, yolg'onga moyilligi yoki uzoqni ko'ra olmaslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turk madaniyatida ayolga nibatana **"so'zi/fikri inobatga olinmaydigan, sir saqlay olmaydigan, qilgan ishi hech narsaga yaramaydigan mavjudot"** sifatida qarash borligini ularning maqollarida uchratishimiz mumkin: *Arı sırrı, karı sırrı* (Ari siri, ayol siri); *Kadına, çocuğa, sarhoşa sırrını açma* (Ayolga, bolaga, sarxushga siringni aytma); *Kadının söylediği kırk sözden sadece birine inan* (Ayol aytgan qirq so'zdan biriga ishon); *Kadınların işi tavukların eşinmesine benzer* (Ayolning ishi, tovuqlarning yer titishiga o'xshaydi); *Kadının kazdığı kuyudan su çıkmaz* (Ayol qaziga quduqdan suv chiqmaydi); *Kadının yüklediği yük şuraya varmaz* (Ayol ortgan yuk bir qadamga bormaydi). Ayol sir saqlash borasida ari, bola va sarxushga, qirq so'zidan bittasiga ishonilishi kerak bo'lgan "yolg'onchi"ga, qilgan ishining ahamiyati 'tovuqning yer titishi'ga, u qazgan quduqdan suv chiqmasligi va ortgan yuki uzoqqa bormasligi bilan no'noq, qo'lidan ish kelmaydigan narsaga tenglashtiriladi.

Chunki u turk madaniy tafakkurida **"jismoniy va aqliy jihatdan zaifa borliq"** hisoblanadi: *Kadınlar eğe kemiğinden yapılmıştır* (Ayollar qovurg'a suyagidan yasalgan); *Avrat kıtlık bilmez, çoban yokluk bilmez* (Ayol ocharchilik, cho'pon yo'qchilik bilmaydi). Qovurg'a suyagi nozik va sinishga moyil bo'lib, shu jihatda ayol qovurg'a suyagiga o'xshatiladi, ya'ni hamisha himoyaga muhtoj. Cho'pon yo'qchilik bilmaydi, chunki u hamisha uning ichida va bu holatni u anglamaydi. Shu tarzda ayol kishi ham ba'zi holatlarni tushunishga ojizlik qiladi.

Turk maqollarida ayol **"olov"** obrazida ham kelganligiga guvoh bo'lamiz: *Ateşle oynama elini yakar, kadınla oynama evini*

yakar (Olov bilan o'ynashma qo'lingni kuyidradi, xotin bilan o'ynashma uyingni kuydiradi); *Kadın var kardan soğuk, kadın var kordan sıcak* (Ayol bor qordan sovuq, ayol bor qo'radan issiq); *Kadını hamarat eden ateştir* (Ayolni mohir qilgan olovdir). Ushbu maqollarda ayol olov, qo'ra obrazlari orqali uning vayronkor xislati borligi, u bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish lozimligi uqtiriladi.

Shuningdek, ayol unga qilinadigan salbiy munosabat natijasida **“dushman”** qiyofasida ham gavdalanishi mumkin. Oiladagi nosog'lom muhit, o'zaro hurmatsizlik er va xotinni bir-biriga dushman darajasiga keltirib qo'yishi ham mumkin, shuning uchun dono xalq erkaklarga pand-nasihat sifatida *Kötü söyleme eşine, ağı katar aşına* (Ayolingga yomon gapirma, oshingga og'u qo'shadi) maqolini aytadi. Ovqatga og'u qo'shish odatda tarixdan ham ma'lumki, dushmanlarni yo'q qilishning bir usuli sifatida qo'llanilgan. Oilada ayol kishi oziq-ovqatga mas'ul bo'lganligi bois ovqatga og'u qo'shish ularning qo'lidagi ish. “Sofra sirlari” (Dasturxon sirlari) nomli turk filmidagi ayol, uy bekasi oziq-ovqatlar xususiyatlarini shu darajada yaxshi biladiki, dushmanlarini o'zi pishirgan “lazzatli” taomlar vositasida o'ldiradi. Turk xalq maqolida keltirilgan *og'u qo'shmoq* iborasi ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. O'z ma'nosi haqida biroz to'xtaldik, endi uning ko'chma ma'nosini bayon qilsak. Olimlar kayfiyatsiz, jahl bilan tayyorlangan har qanday taom zararli yegulikka aylanishini isbotlagani hammaga ma'lum. Hatto tajriba sifatida ikki idishga, suv ichiga guruch solib, biriga yaxshi so'zlar aytishadi, ikkinchi idishdagi guruchni esa qo'pol yomon so'zlar bilan haqoratlaydilar. Bu holat bir necha kun davom etadi. Yaxshi so'z aytilgan guruch oppoq, aynimasdan saqlanadi. Ikkinchi idishdagi, yomon so'zlar muttasil aytilgan guruch esa bir necha kun ichida qorayib, aynib ketganiga guvoh bo'lishadi. Tayyorlangan ovqat ham xuddi shu tariqa odam oshqozonida hazmi qiyinlashib, oshqozon faoliyatini izdan chiqarar ekan. Shuning uchun ham turk otalari farzandlariga, erkaklarga ayolingga yomon gapirma deb nasihat qiladi, chunki qabul qilingan yomon so'z boshqa narsalarga ham ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bolalar tarbiyasi, oilaviy munosabatlar,

xususan, erkakning ota-onasi va aka-uka, opa-singlisiga erining yomon gapi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida oila ichi nizolarni keltirib chiqaradi. Oilaviy munosabatlarda asosiy rol egasi – xotin turk madaniyatida *“kulib turib o'zini oshkor qilmaydigan dushman”*ga qiyoslanadi: *Avrat gibi düşman olmaz, güler bildirmez; köpek gibi dost olmaz, ulur bildirmez* (Xotinday dushman bo'lmaydi, kulib sezdirmaydi; it kabi do'st bo'lmaz, uvlaydi bildirmaydi). Boshqa bir maqolda esa, ayol kishidan vafo kutish zahardan shifo topishga o'xshatiladi: *Avrattan vefa, zehirden şifa*. Vafo so'ziga turk tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi. *Vefa* so'zi arab tilidan o'zlashma ot bo'lib, muhabbatda sabot, sevgisida sodiq bo'lish, muhabbatida qat'iylik degan ma'nolarni beradi. Bu yerda ayol muhabbatiga sodiqlik masalasidan ko'ra ko'proq ayollardagi o'zgaruvchan fe'ldan kelib chiqqan holda ulardagi qat'iyat, turg'unlik xislatlari nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Maqollardagi og'u, zahar, dushman so'zlari ayolning dushman obrazini yorqinroq ifodalab beradi.

Turk maqollarida ayol ba'zan ***“bunyodkor va vayronkor kuch”*** sifatida namoyon bo'ladi. Turk tilida turmush qurgan ayol *avrat, karı, eş, kadın* kabi birliklar orqali ifodalanadi. Maqollarda esa asosan *avrat, eş, kadın* so'zlari qo'llanilgan. *Yuvayı yapan dişi kuştur* (Uyani moda qush quradi) maqoli orqali oilani asosan ayol kishi bunyod qilishi ma'lum bo'ladi. Dişi kuş obrazli tarzda ayol kishini ifodalaydi. *Yuva* so'zi turk tilida qush uyasi, in bo'lishi bilan birga oila ma'nosini ham beradi. *Evi erkek yapar, yuvayı kadın* (Uyni erkak, oilani ayol quradi) maqoli so'zimizga tasdiq bo'ladi. *Ev – uy* so'zi ham inshoot, bino, poshpana ma'nolaridan tashqari oila ma'nosini ham beradi, lekin bu maqolda aynan bino ma'nosi ifodalab kelmoqda. *Evi ev eden kadın* (Uyni uy qiladigan xotin) maqolida har ikki ma'noni uchratishimiz mumkin. Oilaning oila sifatida davom etishi yoxud uyning tartib intizomli, ozoda bo'lishi aynan ayol kishiga bog'liqdir. *Ev* so'zi oila ma'nosida kelgan maqollar quyidagilardir: *Avrat var ev yapar, avrat var ev yıkar* yoki *Kadın var ev yapar, kadın var ev yıkar* (Uyni tuzuvchi ham ayol, buzuvchi ham ayol) *ev yapmak* – uy qurmoq mazkur maqollarda aynan oilani barpo etish ma'nosini ifodalab kelmoqda. Bino inshootish erkaklar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat ekanligi

inobatga olinsa, bu yerda ev yapmak aynan oilani qurish ma'nosida ekanligini anglash mumkin. Ona so'zi deyarli hamma madaniyatda ijobiy xususiyatlar bilan birga qo'llanadi. Oilani tuzuvchi bo'lishi bilan birga buzilishiga sababchi ham ona bo'lishi mumkinligi *Evi yapan da anne, yikan da anne* (Uyni tuzgan ham ona, buzgan ham ona) turk maqolida o'z aksini topgan. Oilani buzish mazmunidagi maqollar ichida faqat mana shu maqolda ona obrazining salbiy jihati keltiriladi. Turk xalqi lisoniy manzarasida ayol obrazi ilohiylashtirilgan va ulkan qudrat manbayi ekanligini quyidagi maqollardan bilib olamiz: *Avradın düzdüğü evi Tanrı yıkmaz, Avradın bozduğu evi Tanrı yapmaz* (Ayol qurgan uyni Tangri buzmaydi, ayol buzgan uyni Tangri qurmas). *Tanrı* turk islom tushunchasida koinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ularni asrovchi, yagona va buyuk zot. Ayol ham uning yaratgan yaratmaqlari ichidan joy oladi. Bu maqoldagi Tangri obrazidan maqsad, hech bir kuch ayol qurgan uyni buzishga qurbi yetmaydi yoki aksincha u buzgan uyni hech qanday kuch qayta qura olmaydi, deyilmoqda. Mazkur maqolning mantiqiy davomi sifatida *Avradın yıkmadığı ev bin yıl dikili kalır* (Ayol buzmagani uy ming yil tik turadi) maqolini keltirishimiz mumkin. Ayol kishi oilaning tuzuvchisi ekanligiga ushbu maqol ham yaqqol misol bo'ladi, ming yil uzoq muddat bo'lishi bilan birga bir inson umri yashab ulgurmaydigan miqdorda ko'p vaqtni bildiradi. Ming yildan maqsad hech qachon, ya'ni oilani ayol buzmasa u hech qachon buzilmaydi, yaxlitligini saqlab qolaveradi. Ayol kishining bunyodkorlik yoki vayronkorlik xususiyatni ifodalab kelgan maqollarda, oila asosan uya-in, uy bilan berilgan bo'lsa, uning yaratuvchi xislatlari *yapmak, düzmek, etmek* fe'llari bilan; buzg'unchi sifatleri esa *yıkmak, bozmak* fe'llari orqali ifodalangan.

Turk madaniyatida ayolga nisbatan **"do'st"** sifatida ham qarashlar borligi quyida keltiradigan maqollarimizda ko'zga tashlanadi: *Ana baba rüşvetsiz dosttur* (Ona porasiz/evazsiz do'stdir), *Ana gibi yar olmaz, Bağdat gibi diyar olmaz* (Ona kabi do'st bo'lmaz, Bog'dod kabi yurt), *Ana yiğidin kalkanıdır* (Ona yigitning qalqonidir), *Ağızdan burun yakın, kardeşten karın* (Og'izdan burun yaqin, qardoshdan xotining). *Rüşvet* turk tilidan tarjima qilinganda "pora" ma'nosini beradi, lekin ushbu maqolda

nafaqat pora, balki manfaat, evaz, bir narsa kutish ma'nosida kelmoqda, ya'ni ota ona farzandidan hech bir narsa kutmaydigan, manfaatlarsiz, evazsiz do'st ekanligi ta'kidlanmoqda. Ba'zan kishi biror yomon vaziyatga tushib qolganida, boshiga ish tushganida tevaragida yurgan insonlar undan yuz o'giradi, tashlab ketadi, lekin ona farzandidan har qanday vaziyatda ham voz kechmaydi, bu turk maqolida quyidagicha keltiriladi – *Ana evladından geçmez* (Ona bolasidan kechmaydi). Aka-ukalar ham ba'zan o'zidan uzoqlashtirishi mumkin, yana er koriga ayoli yaraydi: *Kardeş kardeşi atmış, yar başında tutmuş* (Aka ukasini uloqtiribdi, yor (xotin) boshida tutibdi). Turk madaniyatida aka-ukadan uzoqlashish holati ming yillardan beri davom etib keladigan holat hisoblanadi. Bu holat maqollarida ham o'z aksini topgan. Yaqinlik ko'zga nisbatan olingan bo'lib, maqolda quyidagicha ifodalanadi: *Ağızdan burun yakın, kardeşten karın* (Og'izdan burun yaqin, akangdan/ukangdan xotining) yoki shunchaki *Kardeşten karın yakın* (akangdan/ukangdan xotining yaqin). Mehr-oqibat masalasida ham uzoqlashish ko'zga nisbatan ishlatilgan *Gözden ırak gönülden ırak* (Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq). Boshqa bir maqolda esa ayol erining dunyo tashvishlarini birga ko'taradigan sherigi sifatida baholanadi: *Dünya dört kulplu tekne, ikisinden kadın tutar, ikisinden erkek* (Dunyo – to'rt tutqichli tog'ora, ikkitasidan ayol tutadi, ikkitasidan erkak). Shunday qilib, turk madaniyatida ayol oilada erning har jihatdan hamrohi, do'sti va yaqini hisoblanadi.

Nafaqat turk dunyosida, balki butun borliqda ayol ***“oilaning davomiyligini ta'minlovchi borliq”*** sifatida qaraladi. Turk madaniyatida, ya'ni maqollarda bu qanday aks etganligini ko'rib o'tamiz: *Avrat lazım kalçalı, oğlan doğursun aslan pençeli* (Beli baquvvat ayol kerak, o'g'il tug'sin arslon bilak); *Erkeğin elinde çubuk, kadının elinde çocuk* (Erkakning qo'lida tayoq, ayolning qo'lida bola); *Gelin eşikte, oğlan beşikte* (Kelin ostonada, o'g'lon beshikda); *Kadını evine bağlayan altın şıkırtısı değil, beşik gıcırtısı* (Ayolni uyiga bog'lab turgan narsa oltinning jiringlashi emas, beshikning g'ichirlashi). Ayol ushbu maqollarda davomiylilikni ifodalovchi *tug'moq, bola, beshik* singari so'zlar orqali namoyon bo'ladi.

Oila konseptida *qiz farzand* obrazining konseptuallashuvi

Farzand turk madaniyatida oila mavjudligini belgilab beruvchi asosiy omil sanaladi. Turk jamiyatida farzand er-xotin aloqalarning mustahkamlovchi, ayolning oiladagi o'rnini belgilovchi, otaning jamiyatdagi mavqeyini ko'rsatuvchi asosiy faktorlardan biridir. Farzand, ega bo'linishi kerak bo'lgan va hayotning go'zalligini oshiradigan qadriyat sifatida qaralib, uning yo'qligi qat'iy qoralanadi va tanqid qilinadi: *Çocuksuz kadın meyvəsiz ağaç gibidir* (Befarzand ayol mevasiz daraxtga o'xshaydi), *Oğlanı kızı olmayan avrattan, eski hasır yeğdir* (O'g'il qizi yo'q xotindan eski bo'yra yaxshi), *Çocuk evin meyvəsidir* (Bola uyning mevasidir), *Çocuklu ev pazar, çocuksuz ev mezar* (Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor), *Evlâdı olmayanda merhamet olmaz* (Bolasi yo'qning shafqati bo'lmaydi). Farzand *meva, bozor, shafqat* so'zlari bilan turk madaniyatidagi o'z o'rnini aniq ko'rsatib bergan. Farzandsiz insonlar, asosan, ayollarga nisbatan salbiy qarashni kuzatish mumkin. Qadimdan turkiy qavmlarda farzand oila uchun zaruriy ekanligi ta'kidlangan. Farzandsiz ota-ona Dada Qo'rqut kitobida la'natlanadi va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarida farzandsizlik haqorat ekanligi qayd etiladi¹²⁴. Farzand dunyoga kelgach esa, uning o'g'il yoki qiz ekanligiga qarab, uning ota-onasiga muomala qilganlar (*Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün*), hatto, tug'ilgan farzandni uning ota-onasining moddiy ahvolidan kelib chiqib *xonim* yoki *janob(bek)* dunyoga keldi, deyilar: *Fukaranın doğurduğuna ya oğlan ya kız derler, zenginın doğurduğuna ya bey ya hanım derler*. Jamiyatning ularga nisbatan qarashi tug'ilganlaridanoq shakllanishiga urg'u beriladi.

Turk xalqining tafakkurida qiz farzand *onasining izdoshi, yuk(mashaqqat), xarajat, uyat, yordamchi, uyning bezagi, bokiralik, mehmon, nomus* kabi tushunchalarni ifodalab keladi. Bu tushunchalar xalq orasida ming yillardan buyon shakllanib kelgan maqollarda o'z aksini topgan. Turk xalqining qiz farzand bilan

¹²⁴ Sovgatov, İ. Gelenek Din İlişkisi Bağlamında Atasözlerinde Toplumsal Cinsiyet (Türk, Azərbaycan ve Türkmen atasözleri örneği). (Yüksek Lisans tezi). – Bursa-Türkiye 2016. – 592.s.

bog'liq qarashlarini kichik guruhlarga bo'lib, tadqiq qilishni maqsad qildik.

Turk xalq maqollarida biror oilaning o'g'il ko'rishi qizdan ko'ra afzalligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jins nuqtayi nazaridan olib qaralganda an'anaviy turk madaniyatida qizga nisbatan o'g'il farzand ko'proq qadrlanadi. Chunki oilada o'g'il dunyoga kelishi ota uyning chirog'ini yoqish, naslini davom ettirish, meros va mulkning sovrilib ketishining oldini olish kabi faktorlar nuqtayi nazaridan ahamiyatli deb qaraladi¹²⁵. Maqollarda qiz farzand bilan bog'liq turli-tuman qarashlarni uchratish mumkin. Ularda asosan qizlarning tarbiyasi qiyin ekanligi, xatti-harakatlari va xarakterining onasidan o'tishi va onasining izini davom ettirishiga ishonish, voyaga yetishlari bilanoq turmushga berilishi kerakligi, aks holda qarindosh-urug' oldida nomusga qolish mumkinligi kabi bir qator ijobiy va salbiy jihatlar ko'zga tashlanadi¹²⁶. Maqollarda qiz uzatilishi arafasida qadrlı, qolgan holatlarda esa buning aksi ko'riladi, ya'ni qiz bolaga nisbatan hissiy qarash salbiy hukm ifodalab keladi¹²⁷.

Oilada qiz bola hamma ishni onasidan o'rganishi *Anası ağaca çıkan kız, dal dal gezer, Anası uyumuş, kızı büyümüş, Anası yeşillenince, kızı köpürür, Kız anadan öğrenir oda düzmeyi, oğlan babadan öğrenir sokak gezmeyi* maqollarida o'z aksini topadi. Maqollarda qiz bola onasining salbiy jihatini ortiqchasi bilan o'zlashtirishi (*Ananın çıktığı dala kızı salıncak kurar*), onasi unga har bir uy ishini o'zi o'rnak bo'lib o'rgatishi lozimligi (*Kız anasından görmeyince sofrayı kaldırmaz*) aytiladi. Qizning onasi farzandiga odob, nomus, oriyat masalalarini o'rgatishi kerak. Turk xalqi nuqtayi nazariga ko'ra, qizni axloqli qilib voyaga yetishtiruvchi yoxud buning aksi, yomon tarbiyali qilib o'sturuvchi onasidir - *Kızını baştan çıkaran anasıdır*. Shu sababli onasi yaxshi

¹²⁵ Karadağ, Özey. Türkiye Türkçesi Atasözlerinde Çocuk ve Çocukluk. Milli Folklor. Sayı 98. 2013, 118.s.

¹²⁶ Sovgatov, İ. Ko'rsatilgan asar. – Bursa-Türkiye 2016. – 93.s.

¹²⁷ Hirik, Erkan. Türkiye Türkçesi Atasözlerinde Akralık Bildiren Kelimeler ve Duygu Değerleri // İnsan ve Toplum Bilim Araştırmaları Dergisi. Cilt:6, Sayı:3. – İstanbul, 2017. – 1740.s.

bo'lsa, qiz farzand yana ham yaxshi tarbiya oladi, degan tushuncha o'rta chiqadi¹²⁸.

Kelin qilib olishda ham qizning onasiga katta ahamiyat qaratiladi. *Alma delinin kızını, soya çeker; Anasına bak kızını al, kenarına (kıyısına, tarağına) bak bezini al; Bez alırsan Musul'dan, kız alırsan asilden; Alma soysuzun kızını, sürer anası izini* maqollarida kelin tanlashda qizning onasiga e'tibor qaratilishi, agar onasining yomon xislatlari bo'lgudek bo'lsa, u oiladan qiz olmaslik tavsiya qilinadi. Qiz yomon xarakterlarni onasidan o'zlashtirishini yoki undan 'sut bilan o'tishi' mumkinligi maqollardan ham anglashilmoqda. Shuning uchun ham turk xalqi orasida *Ananın bahtı kızına* degan maqol ham aynan mana shu holat uchun ishlatiladi.

Oilada qiz farzandning dunyoga kelishi bilan mashaqqatlar ham ko'payadi - *Kızın var, sızın var*. Bu mashaqqat unga beriladigan tarbiya nuqtayi nazaridan aytiladi. Turk oilasida farzandlarni nazorat ostida tutish borasida qizlarga ko'proq diqqat qaratiladi. Chunki jamiyatda qizlarning zaif tabiatlari bois xato qilish ehtimoli kattaroq¹²⁹ deb qaraladi. Tarbiya masalasida turklar qizlarga nisbatan qattiqqo'l bo'lishni *Kıza kısı, sabana baskı olmalı* va hatto joiz bo'lsa, kaltakni ishga solishni tashviq qiladi¹³⁰ *Kızını dövmeleyen dizini döver*. Ya'ni qizlari orqasidan ta'na kelsa, "tizzalarini mushlab" qolishlari mumkinligidan ogohlantiriladi. Shuning uchun ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozimligi, ayniqsa, bu boradagi ma'suliyat onalarga tushishi maqollarda o'z ifodasini topadi. O'g'il yoki qiz bo'lishidan qat'iy nazar uning tarbiyasi bilan alohida shug'ullanish kerak - *Oğlan doğur, kız doğur; hamurunu sen yoğur*. Turk xalqi ushbu maqol orqali tarbiya har ikkala farzand uchun ham muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Onalarning "og'irini yengil qilish"lari inobatga olinsa, oilada qiz farzandning bo'lishini hammadan ko'ra ko'proq onalar xohlaydilar - *Bir anaya bir kız, bir kafaya bir göz*. Lekin ularning soni ko'p bo'lishi ham o'ziga yarasha boshqa bir muammo - *Bir*

¹²⁸ Sovgatov, İ. Ko'rsatilgan asar. – Bursa-Türkiye, 2016. – 97.s.

¹²⁹ Sovgatov, İ. Ko'rsatilgan asar. – Bursa-Türkiye 2016. – 95.s.

¹³⁰ Karadağ, Ö. Milli Folklor // Sayı 98. – 2013. – 120.s.

evde iki kız, biri çuvaldız biri biz. O'z-o'zidan ko'rinadiki, oilada qiz farzand ko'paysa, uning muammosi, mashaqqati, yuki ikki baro-barga ortadi. Maqollarda qiz bola uchun asosan salbiy ifodalar uchraydi, biroq ayrim ijobiy jihatlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunda oilada qiz farzandning bo'lishi, uyga fayz qo'shishi - Dünyanın tadı göz, aşın tadı tuz, evin tadı kız; u orqali onasi e'zozda bo'lishi - Kız anası raf elması, oğlan anası sıçan dolması, Kız anası köşe minderi, oğlan anası kapı yaması maqollarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin bunday maqollar soni ko'p emas.

Qiz bolaning dunyoga kelishi o'sha xonadonga "xarajatlar" eshigini ochadi. Chunki turk xalqida qiz bolaning sarposi tug'ilishidan boshlanishi - *Kız beşikte (kundakta) çeyiz sandıkta* yoki *Kız kucakta, çeyiz bucakta* kabi maqollarda o'z aksini topganligini ko'rish mumkin. Hatto, mubolag'ali tarzda "xonavayron qildi"(soydu) tabiri qo'llaniladi - *Oğlan doğurdum, oydu beni; kız doğurdum, soydu beni*. Ushbu maqolda nafaqat qiz, balki o'g'il fazrand ham ota-onaga tashvish keltirishi ifodalanilgan¹³¹.

Qiz leksemasi o'rin olgan maqollarning aksariyatida turmush qurish masalasi uchraydi. Kelin bo'ladigan qizning xususiyatlari, qiz turmushga chiqish vaqtida amalga oshirilishi kerak bo'lgan maslahat va tavsiyalar old planga chiqariladi¹³². Qizning ota-onasiga *Çobana verme kızı ya koyun götürür ya kuzu (Lafin azı, uzu çobana verme kızı, ya koyun götürür ya kuzu)*, ya'ni qizining kelajakda boradigan xonadoni yumushlari qiziga munosibmi, qizi boradigan xonadonda uning qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullaniladimi yo'qmi, shularni inobatga olgan holda turmushga berishni maslahat berishadi. Bundan tashqari, turmushga chiqayotgan qizning ixtiyorini butunlay o'ziga topshirib qo'ymaslik lozimligini, aks holda *Kızı gönlüne bırakırsan ya davulcuya varır (kaçar), ya zurnacıya*, deb ogohlantiradi dono xalq. Chunki turmush arafasidagi qizlar o'yin-kulguga, yengil-yelpi hayotga ko'proq o'ch bo'ladi, uzoq kelajakni ko'ra olmaydi. Shunday bo'lsa-da, turk madaniyatida turmush qurishda

¹³¹ Karadağ, Ö. Ko'rsatilgan asar. – 2013. – 119.s.

¹³² Tabar, B. Türk Atasözlerine Yansıyan Akrabalık İlişkilerinin Dil-Kültür Bağlantısı Kapsamında İncelenmesi // International Journal of Languages' Education and Teaching. – Mannheim-Germany 2015. – 300.s.

farzandlar istaklari ham inobatga olinadi: *Kız kimi severse, güveyin odur; oğlan kimi severse, gelinin odur*. Eng asosiysi qarindosh bilan “quda-anda” bo‘lish yaxshilikka olib kelmasligini *Akrabaya at ver, dost ol; kız ver, düşman ol* maqoli orqali ifodalaydi.

Turk xalqida qiz bolani erta turmushga berish lozimligi, aks holda oila sha’ni va nomusiga dog‘ tushishi mumkinligi maqollar orqali o‘z ifodasini topadi. *On beşinde kız ya erde gerek ya da yerde*, qiz bola balog‘at yoshiga yetgach, turmushga chiqishi lozim, yo‘qsa, ota-onasini isnodga qo‘yishi mumkin, ota-onasiga nomus keltirgandan ko‘ra, qizning yerda (o‘lgan) bo‘lgani yaxshi deb qaraladi. Uni yosh, go‘zal va o‘z vaqtida *At beslenirken, kız istenirken; Demir tavında, dilber çağında* turmushga berish kerakligi uqtiriladi.

Dono xalq maslahat va tavsiyalarini qizlardan ham ayamagan holda *İven kız ere varmaz, varsa da baht bulmaz* (Shoshgan qiz erga tega olmaydi, tegsa ham baxtli bo‘lmaydi) deb turmush masalasida shoshilmaslikka chaqiradi. Bundan oldingi maqollarda qizni voyaga yetishi bilanoq, ya’ni tezroq turmushga berishni ilgari surgan xalq, ushbu maqol orqali shoshmaslikka chaqiradi. Bu yerda ahamiyat qaratilishi kerak bo‘lgan jihat qaror masalasi, ya’ni qiz bolaning tezroq turmush qurgani a’lo, lekin shoshilinch qaror qabul qilgan holda emas.

Bo‘lajak kuyovga ham bir qator tavsiyalar beriladi, chunonchi *Kız evi naz evi*, qizini so‘rab kelgan zahoti bermasligidan, uni osonlikcha qo‘lga kiritib bo‘lmasligidan *Alacak kız ay görünür, evleri saray* ogohlantiradi. Shuningdek, turk xalqi bokiralik masalasiga qattiq qarashini *Tarlayı düz al, kadını kız al* maqoli orqali bayon etadi. Buning uchun esa qizning xonadonida uning aka-ukasi bor yo‘qligiga katta ahamiyat beradilar: *Tarlayı taşlı yerden, kızı kardaşlı yerden*. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad aka-ukasi uni qo‘riqlab ehtiyot qilganligi hamda qiz bolaning erkak kishiga xizmat qilishni o‘rgangan bo‘lishidir¹³³.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, qiz bola mavzu qilib olingan maqollarning aksariyati ularning oila qurishi masalasiga qaratilgan. Bunda, qizning o‘ziga, ota-onasiga, kuyovga va

¹³³ Akbalik, E. Ko‘rsatilgan asar. – Nisan 2013. – 84.s.

kuyovning ota-onasiga ham bir qator maslahat va tafsiyalar beriladi. *Kendinden küçükten kız al, kendinden büyüğe kız ver, Komşu kızı almak, kalaylı kaptan (tastan) su içmek gibidir, Kızın çirkin, Allah'tan gelmiş; gelinin çirkin, gözün kör müydü?* kabi maqollar orqali har jihatdan o'zining oilasidan pastroqdan qiz olish joizligi, 'qo'shni qiz'ni kelin qilish ishonchli idish (kalayli kap)dan suv ichish bilan barobar ekanligi, kelin tanlashda diqqatli bo'lish lozimligi uqtiriladi.

O'g'il farzand ko'rish istagining nisbatan ustunligi haqida gapirish mumkin bo'lsa-da, qiz farzand ko'rish ham talab qilinadigan holat: *Bir anaya bir kız, bir kafaya bir göz* (Bir onaga bir qiz, bir boshga bir ko'z), *Kızı kim istemez, kımız kim içmez* (Kim qiz istamas, qimiz kim ichmas) kabi maqollar buni tasdiqlasa ham, qiz farzandli bo'lish ko'p qiyinchiliklar va muammolarga duchor bo'lishni talab etuvchi holatdir. Boshga ko'z qanchalik kerak bo'lsa, qiz farzand ona uchun shunday ahamiyatlidir. Oiladagi yumushlarni, odatda, uy beksasidan keyin qiz farzandlar o'z zimmasiga oladi. Qiz bola otasiga sidqidildan xizmat qiladi (qimiz keltirib beradi). Shunday bo'lishiga qaramasdan, qizlarni har jihatdan himoya qilish, ularga g'amxo'rlik qilish, ularning tarbiyasi, odob-axloqi, or-nomusi, turmush qurishi, turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlashi kabi masalalar har tomonlama ota-onaning zimmasida bo'lganligi sababli qiz farzandli bo'lish "og'ir" sanaladi: *Kız doğuran tez kocar* (Qiz tug'gan tez qatiydi), *Kızın var, sizin var* (Qizing bor, muammong bor), *Bir ev (gemi) donanır, bir kız (çıplak) donanmaz* (Bir uy (kema) jihozlanishi mumkin, qiz esa yo'q). Qizlar o'g'il bolalardan ham jismonan, ham ruhiy jihatdan zaifroq hisoblanganligi sababli, ular himoya va yashirinishga muhtoj bo'lib ko'riladi. Shu ma'noda qizlarning ta'lim-tarbiyasi va nazorati katta ahamiyatga ega. Qizlar to'g'ri qaror qabul qilishda, irodasidan to'g'ri foydalanishda qiynaladi. Shuning uchun turk xalqi nazdida ular har doim oila nazorati va himoyasida bo'lishlari kerak: *Kızı kendi gönlüne bırakırsan ya davulcuya varır ya zurnacıya* (Qizning ko'ngliga qarasang, yo do'mbirachini, yo surnaychini tanlaydi), *Oğlun pazar aşı tatmasın, kızın komşu evinde yatmasın* (O'g'ling bozor oshi totmasin, qizing qo'shni uyida yotmasin).

Endi farzand bilan bog'liq metaforik o'xshatishlarni ko'rib chiqamiz. Farzand bilan bog'liq umumiy tushunchalar qismida bularga aslida biroz to'xtalib ham o'tdik.

O'yin: O'yin bolalik va bolalikni belgilashda asosiy omillardan biridir. *Abdal düğünden, çocuk oyundan usanmaz* (Tilanchi to'ydan, bola o'yindan charchamaydi), *Çocuklar oynamaktan, gençler işlemekten, ihtiyarlar da söylemekten yorulmaz* (Bolalar o'yindan, yoshlar ishdan, keksalar gapdan charchamaydi) Maqollar bolaning o'yinga munosabatini ochib bersa, bolaning bu xususiyatini tanqid qiladi. Birinchi maqolda tilanchi (abdal) bolaga qiyoslanadi. Turk maqollarida *abdal* odatda jiddiy qabul qilinmaydigan obraz hisoblanadi, ya'ni abdalning bola bilan bir joyda kelishi bolaning o'ynash qobiliyati tanqid qiladi.

Yegulik: *Evlat kısmı şirin lokmadır, ne iyisinden geçilir, ne kötüsünden* (Bola degani shiringina luqmadir, na yaxshisidan, na yomonidan kecha olasan), *Herkes pişirdiğini soğutsun, doğurduğunu büyütsün* (Hamma o'zi pishirganini sovutsin, tug'ganini katta qilsin), *Çocuk evin meyvesidir* (Farzand uyning mevasidir), *Armut dalının dibine düşer* (Nok shoxining tagiga tushadi), *Evladın hamı tatlı olur* (Bolaning pishmagani(xomi) shirin bo'ladi), *Oğlanı doğuran ana sevinmesin de, ekmeğini yiyen sevinsin* (O'g'il tug'gan ona emas, nonini yegan ona suyunsin), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ilniki asil asal, qizniki hovli guli) *Anasız çocuk evde çürür, babasız çocuk çarşıda* (Onasiz bola uyda chiriydi, otasiz bola – bozorda) maqollarida farzand *luqma, pishgan narsa, meva, nok, xomi, non, asal* kabi obrazlar orqali beriladi.

O'simlik: *Ekin ektim yel aldı, değirmen yaptım sel aldı, oğul yetiştirdim el aldı* (Ekin ekdim yel oldi, tegirmon qurdim sel oldi, o'g'il o'stirdim el oldi), *Karpuz kökeninde büyür* (Tarvuz tubida o'sadi), *Karpuz sulandıkça büyür* (Tarvuz suvlagan sari o'sadi), *Kız büyür bahtı beraber büyür* (Qiz o'sadi, baxti o'zi bilan birga o'sadi), *Ağaç yaş iken eğilir* (Daraxt novdaligida egiladi), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ilniki asil asal, qizniki hovli guli) maqollarida farzand o'stirmoq (*yetiştirdim*), tarvuz (*karpuz*), o'smoq (*büyür*), daraxt (*ağaç*), hovli guli (*bahçe gülü*) obrazlari oqali tasvirlangan.

Narsa-buyum: *Bir ev donanır, bir kız donanmaz* (Bir uy jihozlanadi, qiz jihozlanmaydi), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat),

Tashvish, dard, muammo, qiyinchilik: *Çocuğu olanın bin, olmayanın bir derdi var* (Bolasi borning ming, bolasi yo'qning bir dardi bor) yoki *Evladin varsa bin derdin var, evladın yoksa bir derdin var* (Farzanding bo'lsa, ming darding bor, farzanding yo'q bo'lsa, bir darding bor), *Evladin var mı, derdin var* (farzanding bormi, darding ham bor), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat), *Çocuk büyütmek taş kemirmek* (Bola katta qilish tosh kemirish), *Çocuk isteyen belasını da istemesi gerek* (Bola tilagan balosini ham tilashi kerak), *Kızı olan tez kocar* (Qizi bor odam tez qariydi), *Kızın var, sızın var* (Qizing bor bo'lsa, o'g'rig'ing ham bor), maqollarida farzand dard (*derdin var*), mashaqqat (*mihnet*), tosh kemirish (*taş kemirmek*), tez qarish (*tez kocar*), o'g'riq (*sızın var*) obrazlari orqali talqin qilingan.

Qimmatbaho buyum: *Kız ile altın gizli gerek* (Qiz bilan oltin yashirilishi kerak), *Çocuk karı koca arasında altın toptur* (Bola er-xotin orasidagi oltin to'p) maqollarida farzand oltin (*altın*), oltin to'p (*altın toptur*) obrazlarida namoyon bo'ladi.

Xarajat, to'ymas "mavjudot": *Oğlanın karası para kesesi, kızın karası can tasası* (O'g'ilning yomoni – hamyonga jabr, qizning yomoni joningga jabr), *Bir kaz doymaz, bir kız* (Bir g'oz to'ymaydi, bir qiz), *Kız boğazı kırk boğum olur* (Qiz tomog'i qirq bo'g'im bo'ladi), *Yavru kuşun ağzı büyük olur* (Polaponning og'zi katta bo'ladi) *Eşeğe 'sıpan oldu' demişler, 'sırtımdaki yükümü atacak değil ya, önümdeki yemimi alacak' demiş* (Eshakka "xo'tikchali bo'lding" deyishibdi, "ustimdagi yukni olmaydi, oldimdagi yemni oladi" debdi) maqollarida esa hamyon (*para kesesi*), to'ymaydi (*doymaz*), qirq bo'g'im (*kırk boğum*), og'zi katta (*ağzı büyük*), yem (*yemimi alacak*) so'zlari orqali metafora hosil bo'lgan.

Do'st-dushman: *Yılana yavrusu düşman olur* (Ilonning bolasi o'ziga dushman bo'ladi), *Oğul babaya, kız anaya yar olur* (O'g'il

otaga, qiz onaga do'st bo'ladi), *Çocuk kısmı hem ağlatır, hem güldürür* (Bola ham kuldiradi, ham yig'latadi), *Çocuk kısmı hem dost, hem düşman* (Bola ham do'st, ham dushmanidir), *Çocukla çıkma yola, düşersen güler, düşerse ağlar* (Bola bilan yo'lga chiqma, yiqilsang kuladi, yiqilsa yig'laydi) maqollarida farzand dushman (*düşman*), do'st (*yar, dost*), kuldiradi (*güldürür*), yig'latadi (*ağlatır*), yiqilsang kuladi (*düşersen güler*) so'z va birikmalar orqali talqin qilingan.

Ishonchsizlik va xavf: *Oğluna güvenme, koluna güven* (O'g'lingga ishonma, bilagingga ishon), *Büyükler evde söyler, çocuklar damda söyler* (Kattalar uyda gapirishadi, bolalar tomدا aytishadi), *Çocuğa emniyet olmaz* (Bolaga ishonib bo'lmaydi), *Çocuğun bulunduğu yerde dedikodu olmaz* (Bola bor joyda mishmish bo'lmaydi), *Kadına, çocuğa, sarhoşa sırrını açma* (Ayolga, bolaga, sarxushga siringni aytma) maqollarida farzand ishonma (*güvenme*), aytib qo'yadi (*damda söyler*), ishonch yo'q (*emniyet olmaz*), mishmish bo'lmaydi (*dedikodu olmaz*), siringni aytma (*sırrını açma*) kabi so'z va so'z birikmalari yordamida ifodalangan.

Haq so'z: *Haberin doğrusunu oğlandan al* (Xabarning to'g'risini o'g'londan ol), *Çocuktan al haberi* (Boladan xabarni(haqiqatni) bilib ol) maqollarida rost xabar (*haberin doğrusunu*) va haqiqat, xabar, ma'lumot (*haber*) so'zlari orqali bolalar yolg'on gapirmasliklari, haqiqatni yashirmasliklari bayon qilingan.

Maqollarni o'rganish bir xalqning madaniy dunyosiga kirib borish demakdir. Turk xalqining yuz yillar davomida shakllangan maqollari orqali xalq orasidagi qiz farzandga bo'lgan munosabat, oila ichidagi uning o'rni va mavqeyi, u yashab turgan jamiyatning qizning ota-onasiga nisbatan munosabati, oilada o'g'il farzand bilan taqqoslanishi masalalarini yaqindan bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, qiz farzandga xalq tomonidan *yuk, xarajat, bokiralik, nomus, mehmon* sifatida qaralgan. Maqollarning aksariyat qismida, qiz bolaga nisbatan salbiy xususiyatlar ifodalanib kelingan bo'lsa ham, ba'zi maqollar ularning ijobiy jihatlari ham ochib bergan. Shuningdek, ushbu obrazni ifodalovchi maqollarning katta qismi turmush qurish masalasiga bag'ishlangan. Maqollardan yana shu narsani anglash mumkinki,

qiz bolaga u dunyoga kelganidan tortib, voyaga yetib turmushga chiqib ketmagunicha salbiy jihatdan qaralgan. Uning turmushga chiqishdan oldingi ma'lum vaqt davomida ushbu salbiylik, nafaqat qiz bolaga nisbatan, balki uning ota-onasiga nisbatan ham ijobiy tomonga o'zgarganligining guvohi bo'lamiz.

Turk madaniyatida farzand oilaning eng asosiy omillaridan biri bo'lishiga qaramay, farzand bilan bog'liq maqollarning aksariyati bolaning salbiy jihatlarni ko'rsatgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, turk xalqi "ming dardni bir darddan" afzal ko'radi. Oila konseptini ochib berishda farzand mikrokonsepti muhim rol o'ynaydi. Turk xalqining lisoniy manzarasida farzand ramziy tarzda davomiylik, dard, tashvish, xarajat(chiqim) kabi bir qator tushunchalarni ifodalab keladi.

Turk madaniyatida oila eng muqaddas qadriyat hisoblansa, uning tarkibidagi har bir shaxs alohida qadriyatdir. Oilada ona eng ulug' inson sifatida qaraladi.

Ayol turk madaniyatida va oilasi asosiy 'kalit' vazifasini o'tashi yaqqol namoyon bo'ldi. Maqollarda asosan salbiy jihatlardan yoritilsa-da, oila quruvchisi sifatida qaralishi va ulug'lanishi aniqlandi. Tug'ilganidan to tushmushga chiqmaguniga qadar 'qadrsiz' bo'lgan ayol, tushmushga chiqishi bilan qadrlana boshlashi, turmushga chiqishi uning bu yo'ldagi ilk qadami ekanligi hamda farzandli bo'lishi, ayniqsa, o'g'il farzandni dunyoga keltirishi uning oiladagi mavqeyini birdan yuksaltirib yuborishi maqollar tahlilida aniqlandi.

Turk madaniyatida ayol kishiga nisbatan zaifa, ojiza va kuchsiz borliq sifatida qarashdan ko'ra ko'proq kuchli, jasur va kerak bo'lsa yetakchi o'laroq gavdalanishi kutiladi va hatto, talab qilinadi. Biroq oilada er boshqaruvini tan olmasdan o'zini undan ustun qo'yish, oilaning boshqaruvini o'z qo'liga olish salbiy holat sifatida baholanadi va qattiq qoralanadi. Bunday holatda oila tanazzulga yuz tutishi va baxtsiz bo'lishi maqollar tahlilida o'z isbotini topdi.

Turk maqollarida ayol ot, olov, aqcha (pul), dengiz, shayton, qiyshiq suyak, moda qush kabi obrazlar do'st-dushman, vayronkor va ijobiy kuch, ham jismoniy, ham aqliy ojiza, fikrlari

inobatga olinmaydigan, shaytoniy xistlar egasi ekanligi kabi metaforik obrazlarda namoyon bo'lishi aniqlandi.

